

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA KOMMUNIKATSIYALARINI**  
**RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI**

**MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI**  
**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI**

**HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI**

fanidan

**AMALIY MASHG'ULOTLAR TO'PLAMI**  
**(2-QISM)**

Uslubiy qo'llanma

(Sirtqi (maxsus sirtqi), ikkinchi va undan keyingi oliy ta'lif negizidagi sirtqi shaklda  
ta'lif oluvchi talabalar uchun)



Toshkent 2022

Taqrizchilar: Ma'lumotlarni uzatish tarmoqlari va tizimlari kafedrasи, texnika fanlari nomzodi, dotsenti Djabbarov Sh.Yu.

Toshkent Davlat transport universiteti Aeronavigatsiya tizimlari kafedrasи PhD, dotsenti S.M.Shukurova

Sapayev M., Qodirov F.M. "Hayot faoliyati xavfsizligi" fanidan amaliy mashg'ulotlar to'plami. (Sirtqi (maxsus sirtqi), ikkinchi va undan keyingi oly ta'lim negizidagi sirtqi shaklda ta'lim oluvchi talabalar uchun).

O'quv qo'llanma. - TATU, 2022. - 101b.

"Hayot faoliyati xavfsizligi" fani bo'yicha amaliy mashg'ulotlarning maqsadi, mavzular bo'yicha tayanch iboralar va nazariy materiallar, faoliyat xavfsizligini ta'minlash, baxtsiz hodisalar va kasallanishlarni oldini olishga qaratilgan tadbirlar ishlab chiqishda zarur hisoblar uslubi va mustaqil ishslash uchun variantlar keltirilgan.

Сапаев М., Кодиров Ф.М. Сборник практических работ по предмету "Безопасности жизнедеятельности". (Для студентов, обучающихся по заочной (специальной заочной), заочной форме обучения на базе второго и последующих высших учебных заведений).

Методические пособие. ТУИТ, 2022. – 101 стр.

Изложены цели практических занятий по предмету "Безопасность жизнедеятельности" и приведены основные термины и теоретические материалы по темам, методика расчета задач по обеспечению безопасности деятельности, разработке мероприятий, направленных на предупреждение несчастных случаев и заболеваний, варианты для самостоятельной работы.

Sapaev M., Qodirov F.M. Collection of practical works on the subject of "Life safety". (For students studying by correspondence (special correspondence), correspondence form of study on the basis of the second and subsequent higher educational institutions).

Textbook. - TUIT, 2022. – 101 p.

The goals of practical lessons on the subject "Life Safety" are stated and the basic terms and theoretical materials on the topics, the methodology for calculating tasks to ensure the safety of activities, the development of measures aimed at preventing accidents and diseases, options for independent work are presented.

**© Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, 2022 y.**

## MUNDARIJA

|  |          |
|--|----------|
| <b>Kirish .....</b>  | <b>4</b> |
| <b>IV-Bob. ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA XAVFSIZLIK<br/>(MEHNAT MUXOFAZASI) .....</b>   | <b>6</b> |
| 4.1. Ishlab chiqarish korxonalarida shovqin intensivligini hisoblash ..  | 8        |
| 4.2. Ishlab chiqarish korxonalarida yoritilganlikni hisoblash .....  | 20       |
| 4.3. Elektromagnit maydon nurlanishlaridan himoyalanishni<br>hisoblash .....   | 31       |
| 4.4. Ionlashtiruvchi nurlanishlardan himoyalanishni hisoblash .....  | 36       |
| 4.5. Ishlab chiqarish korxonalarida radiatsiyalangan hududni<br>o'rGANISH, radiatsiya dozasini aniqlash va himoya materialining<br>qalinligini hisoblash ..... | 47       |
| 4.6. Teleradio uzatish stantsiyalardan tarqaladigan elektromagnit<br>nurlanishni hisoblash .....   | 55       |
| 4.7. 1000 V gacha bo'lgan kuchlanishli o'zgaruvchan tokning bir<br>fazali va uch fazali elektr tarmoqlarida elektr toki urishi xavfini<br>hisoblash .....      | 66       |
| 4.8. Himoyaviy yerga ulash qurilmasini hisoblash .....   | 78       |
| Ilova .....  | 91       |
| Adabiyotlar .....  | 97       |

## KIRISH

Ilm-fan jadal taraqqiy etayotgan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimlari vositalari keng joriy etilgan jamiyatda turli fan sohalarida bilimlarning tez yangilanib borishi, ta’lim oluvchilar oldiga ularni puxta egallash bilan bir qatorda, muntazam va mustaqil ravishda bilim izlash vazifasini qo‘ymoqda.

O‘quv qo‘llanmaning maqsadi hayot faoliyati xavfsizligi fani bo‘yicha olingan nazariy bilimlarni mustahkamlash va hayotda insonning faoliyat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan masalalar yechimi bo‘yicha amaliy ko‘nikmalar hosil qilishga qaratilgan.

“Hayot faoliyati xavfsizligi” fani faoliyat xavfsizligining nazariy asoslari, ishlab chiqarishda faoliyat xavfsizligi, favqulodda vaziyatlarda hayot faoliyat xavfsizligi va ekologiya kabi bo‘limlardan iborat bo‘lib, uning asosiy maqsadi va vazifasi ishlab chiqarishda xavfsiz va sog‘lom ish sharoitini yaratish hamda favqulodda vaziyatlar, jumladan tabiiy ofatlar, texnogen va antropogen tusdagi hamda harbiy-siyosiy mojarolar vaqtidagi favqulodda holatlar vaqtida aholini himoya qilish, ishlab chiqarish korxonalarining barqaror ishlashini ta’minlash va favqulodda holatlar oqibatlarini bartaraf etishga qaratilgan tadbirlar majmui va texnik vositalar tizimlarini ilmiy tahlillar asosida o‘rganishdan iboratdir.

«*Hayot faoliyati xavfsizligi*» fanining asosiy *maqsadi* insonning barcha ko‘rinishdagi faoliyati davrida yuzaga keladigan xavfli omillar, ularning kelib chiqish sabablari va bartaraf etish yo‘llarini puxta o‘rgatish orqali talabalarda hayotiy faoliyat xavfsizlignini ta’minlashga qaratilgan kasbiy hamda ijodiy-ilmiy kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirishdan iboratdir.

Fanning *vazifasi* ishlab chiqarishda xavfsiz va sog‘lom ish sharoitlarini yaratish, favqulodda vaziyatlarda hayot faoliyat xavfsizligini ta’minlash, inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlar, texnika ta’sirida o‘zgargan atrof-muhitning inson sog‘ligiga salbiy ta’siri hamda eng muhim ekologik omillar va ular o‘rtasidagi bog‘liklar to‘g‘risida nazariy bilim berish va amaliy ko‘nikmalar hosil qilishdan iborat.

«Hayot faoliyat xavfsizligi.» fanini o‘zlashtirish jarayonida bakalavr: hayot faoliyati xavfsizliginiig o‘ziga xos qonuniyatlarini, texnik me’yorlarini joriy qila olishni; insonning fiziologiyasini bilgan xolda mehnat sharoitlarni to‘g‘ri tashkil qilishni; jarohatga olib keluvchi zararli va xavfli omillarni keltirib chiqaruvchi vaziyatlarni aniqlash va chora-tadbirlar ishlab chiqishni; favqulotda vaziyatlar sharoitida jarohatlovchi, zararli va xavfli omillarni aniqlay olish; texnik vositalar va texnologik jarayonlarning xavfsizligini ekologik zararsizligini va mustaxkamligini oshirish manbalari va usullarini; ishlab chiqarish ob’ektlarining barqaror va xavfsiz ishlatish usullarini va texnik tizimlarining favqulodda vaziyatlardagi xavfsizligini tadqiq qilishni *bilishi kerak*; uskunalarining ko‘rsatkichlarini va salbiy ta’sir qilish darajasini me’yoriy talablarga mos kelishini nazorat qilish; jarohatlanishga olib keluvchi holatlarda himoya vositalaridan samarali foydalana bilish; ishlab chiqarish faoliyatida tozalikni ta’minlash va xavfsizlikni oshirish tadbirlarini ishlab chiqish; xodimlar va aholini favqulotda vaziyatlar sharoitida himoyalash tadbirlarini rejalashtirish; zarur bo‘lganda favqulodda vaziyat oqibatlarini tugatish va qutqarish ishlarida amaliy ishtirok etish; elektr tokidan yoki boshqa jarohatlardan zararlanganlarga birinchi yordam ko‘rsatish *ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak*. Fanni o‘rgatish natijasida talaba hayot faoliyati xavfsizligi talablariga javob beruvchi shart-sharoitlarni aniqlash va zaruriy hisoblash ishlarini amalga oshirish *malakalariga ega bo‘lishi kerak*.

“Hayot faoliyati xavfsizligi” fani talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, ishlab chiqarishdagi hodisa va jarayonlarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish vazifalarini bajaradi.

Fanning ushbu maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda fan bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar talabalarga ma’ruza darslarida olgan nazariy bilimlarini mustahkamlashda hamda mehnat sharoitini, favqulodda vaziyatlar darajasini hamda ekologik omillarni baholash va tahlil qilishda mustaqil qarorlar qabul qilishga o‘rgatadi.

## **IV-BOB. ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA XAVFSIZLIK<sup>1</sup>** **(MEHNAT MUXOFAZASI)**

Hozirgi kunda axborot kommunikatsiya vositalari kun sayin rivojlanib, yangi – yangi cho‘qqilarni egallab borayotgani sir emas. Deyarli har bir inson uyali telefon, kompyuter, televizor shu kabi elektr jihozlariga ega. Ulardan biz ko‘pgina o‘zimizga kerakli bo‘lgan ma’lumotlarni olamiz. Ular kundalik turmushimizning bir bo‘lagiga aylanib qolgan. Bu jihozlarni ijobiylarga taraflarini o‘ylab harid qilamiz, lekin salbiy tomonlari haqida o‘ylamasak kerak.

Bizni nurlanishlar qamrab olganligidan habarimiz ham bo‘lmasa kerak. Uyali aloqa abonentlari qisman bu masalada tajribalari bor. Kompyuterda ham surunkali ishlaganlar bu masalada tushunchaga ega. Umuman olib qaraganda barcha maishiy texnikalar nurlanish manbai bo‘lib hizmat qiladi, desak adashmagan bo‘lamiz, lekin ularning ta’sir doirasi, quvvati, nurlanish koeffsienti va shu kabi omillarga bog‘liq bo‘lganlidan ular inson tanasiga turlicha ta’sir o‘tkazadi. Quyida biz so‘z yuritadigan nurlanish elektromagnit maydon asosida vujudga keladi. Elektromagnit maydonning asosiy manbalari bo‘lib elektr uzatkich liniyalari, elektr o‘tkazgich, maishiy elektr asboblar, shaxsiy kompyuterlar, tele va radio uzatuvchi stansiyalar, sun’iy yo‘ldosh va uyali aloqa xizmati, elektrotransport, radar qurilmalari hisoblanadi. Quyida sanab o‘tilgan elektromagnit manbaini hosil qiluvchi vositalardan bugungi kunda ko‘p foydalanimayotganlari ko‘rib o‘tiladi.

*Maishiy elektrasboblar:* Bu turdagи qurilmalarda nurlanish darajasi qurilmaning rusumi, ishlash rejimi, ishlash jarayonidagi iste’mol quvvatiga (ya’ni qurilmaning iste’mol quvvati qancha ortib borsa, elektromagnit maydonning ham ta’sir doirasi shuncha ortib boraveradi) va shu kabi omillarga bog‘liq bo‘ladi. Bu kabi qurilmalarga kir yuvish mashinalari, qahva qaynatgich, chang yutgich, qunduzgi chiroq, mikroto‘lqin isitgich va hokazolar kiradi. Bu qurilmalarning

---

<sup>1</sup> Hayot faoliyatini xavfsizligi va ekologiya. Sapaev M.S., Qodirov F.M. O‘quv qo‘llanma, Toshkent-“Aloqachi”-2019, 276 b.

ichida ta'siri yuqori hisoblanadigan mikroto'lqinli isitgich bo'lib, undan foydalanishni biroz kamaytirishni va homilador ayollarning bu kabi vositalardan iloji boricha foydalanmasliklari tavsiya qilinadi.

*Kompyuterlar:* Kompyuterning tizimli qismini olib qaraydigan bo'lsak, u erda deyarli hamma narsa nurlanishdan himoyalangan va uning ichidagi qurilmalar past quvvatda ishlaganligi uchun u erdan chiqayotgan nurlanish kam miqdorda bo'ladi, qolaversa ko'pgina tizimli bloklarning ustki qavati metal bilan qoplangan. Tizimli blokdagi nurlanish asosan markaziy protsessor va elektron hisoblagichlar uchun mo'ljallangan bo'lib, u 2300 ta tranzistordan tashkil topgan. Hozirda esa kompyuter uchun mo'ljallangan protsessorlari Intel Pentium IV 2GGs da 42mln, Intel Core 2 Duo da 291mln va eng so'ngi ishlab chiqargan protsessorlarida tranzitorlar soni 2mlrddan ortib ketgan. Bu esa nurlanish manbaini tizimli blokda ham tobora ortib borayotganini ko'rsatadi.

*Tele va radiouzatuvchi stansiyalar:* Odatda bu turdagи stansiyalar axoli yashamaydigan joylarga o'rnatiladi, lekin vaqt o'tishi bilan bu chekka hududlar ham axoli yashash joyiga aylanib bormoqda. Toshkent teleminorasi bunga yaqqol misol. Bu turdagи stansiyalarda nurlanish quvvati etarlicha baland hisoblanadi. Bu stansiya atrofida yashovchi kishilarning soch to'kilishi, bosh og'rig'inинг ko'p bo'lishi bu erdagи elektromagnit maydonning quvvati yuqoriligidandir. Bunga bir necha santimetrali sim o'tkazgichni antenna qilib, telekanallarni ushlab olish ham misol bo'la oladi. Shifokorlar elektromagnit maydon yuqori bo'lgan sohalarda hotiraning pasayishi, immun tanqisligi uyquning yo'qolishi va shu kabilar ko'p bo'lishini ta'kidlashadi. Shuning uchun ularga yomg'irda sayr qilish va sharshara bo'yalarida ko'proq dam olish tavsiya etiladi. Deyarli har bir inson umri davomida musbat ionlarni o'ziga jamlab yuradi. Musbat ionlar manbai bo'lib televizor, kompyuter va shu kabilar misol bo'ladi. Fizika kursidan ma'lumki, qarama - qarshi zaryadlar uchrashganda neytral xolatga o'tadi. Suv zarralari esa manfiy ionlar manbaidir. Demak, insonning bu kabi ochiq havoda yurganda va hushmanzara

joylarga borganda qandaydir o‘zida engillik his etishi shu omilga ko‘ra amalga oshadi.

*Sun’iy yo‘ldoshli va uyali aloqa xizmati:* Bu turdagি stansiyalarning ham quvvati yuqori hisoblanadi. Sun’iy yo‘ldoshli aloqa hizmatining quvvati er sathiga etib kelgunga qadar kamayib ketadi, shuning uchun bu turdagи signallarni ushlab olishda parabolik antennalardan foydalaniladi. Bu parabolik antenna sun’iy yo‘ldoshdan kelayotgan signallarni kuchaytirib beradi. Sun’iy yo‘ldoshdan kelayotgan signallar er sathiga etib kelgunga qadar insonga ta’sir doirasi kamayib ketadi.

Hulosa qilib aytadigan bo‘lsak, elektromagnit nurlanishning inson organizmining markaziy nerv tizimi, immunitet, endokrinologik tizim, jinsiy tizimiga o‘zining salbiy ta’sirini o‘tkazar ekan. Demak, bu kabi elektrmagnit nurlanish hosil qiladigan vositalardan foydalanishni mo‘tadil holatga keltirib olsak ham o‘zimizni ham naslimizni sog‘ligini asragan bo‘lamiz.

#### **4.1. Ishlab chiqarish korxonalarida shovqin intensivligini hisoblash**

##### **4.1.1 Ishlab chiqarish korxonalarida shovqin intensivligini hisoblashdan maqsad:**

Shovqinni yutuvchi materiallar qo‘llanilmaganda va qo‘llanilganda shovqin intensivligini aniqlash. Shovqin manbasihacha masofani, devor-to’siqlarni hisobga olgan holda umumiy shovqin darajasini aniqlashni o‘rganish. Xulosalar chiqarish.

##### **4.1.2 Nazariy ma’lumotlar**

Asosiy tushunchalar<sup>2</sup>:

*tovush bosimi* – o‘zgaruvchan havo bosimi bo‘lib, tovush tebranishi natijasida paydo bo‘ladi;

---

<sup>2</sup> "Turar joylarda, jamoat binolarida, aholi yashash hududlarida va dam olish zonalarida ruxsat etilgan shovqin darajasining sanitariya qoidalari va me’yorlari O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirining qarori" №0008-20, 29.12.2020 yil.

*doimiy bo‘lmagan shovqin* – vaqtida o‘zgaradigan shovqin, tovush darajasi vaqt ichida 5dBA dan ortiq bo‘lmagan uzlusiz ravishda o‘zgaradi (misol uchun, avtotransport vositalarida hosil bo‘luvchi shovqin);

*tovushning ekvivalent darajasi, L<sub>Aekv</sub>, dBA*, doimiy bo‘lmagan shovqin – doimiy shovqin darajasining shunday o‘rtacha kvadrat tovush bosimiga ega va bu aniq vaqt davomidagi doimiy bo‘lmagan shovqin;

*ruxsat berilgan shovqin darjasи* – bundan daraja, odam organizmining shovqinga sezgir bo‘lgan funksional tizimlari va analizatorlari o‘zgarishiga olib kelmaydi hamda insonda xavotir keltirib chiqarmaydi;

*keng chiziqli shovqin* – kengligi 1 oktavadan ortiq bo‘lgan uzlusiz spektrli shovqin;

*tonal shovqin* – shovqin spektrida yaqqol namoyon bo‘ladigan alohida (diskret) tovushlarga ega va chastotalarni 1/3 oktava chiziqlarida o‘lchanganda yonma-yon joylashganlardan 10dBA ga ortib ketishi;

*impulsli shovqin* – ushbu shovqin bir yoki bir necha tovushli signallardan tashkil topgan bo‘lib, har biri 1 sekunddan kam bo‘lgan davomiylikka ega va shu bilan birga “impuls” va “sekin” vaqtga oid tavsiflarda dBAda o‘lchanan tovush darajalari 7dBA dan kam bo‘lmagan darajalarda farq qiladi.

Ishlab chiqarish jarayonlarining avtomatlashtirish va mexanizatsiyalash vositalari taraqqiyoti o‘z ishi davomida mexanik tebranish (silkinish) hosil qiluvchi uskunalar qo‘llash bilan bog‘liq. Mexanik tebranishlarning inson organizmiga ta’siri chastota, tebranish uzatiladigan jadallik va muhitga bog‘liq tarzda turlicha namoyon bo‘ladi. Tebranish shovqin va silkinishga bo‘linadi<sup>3</sup>.

Eshitiladigan chastotalar diapazonida uzatiladigan mexanik tebranishlar inson tomonidan tovush sifatida qabul qilinadi. Chastota bo‘yicha tovush tebranishlari 3 diapazonga bo‘linadi:

1. Infratovushli  $f < 20$  Gs;
2. Tovushli (eshitiladigan)  $20 \text{ Gs} < f < 20 \text{ kGs}$ ;

---

<sup>3</sup> Hayot faoliyati xavfsizligi va ekologiya. Sapaev M.S., Qodirov F.M. O‘quv qo‘llanma, Toshkent-“Aloqachi”-2019, 276 b.

### 3. Ultratovushli $f > 20$ kGs.

**Shovqin** – turli chastota va tezlikdagi tovushlarning tartibsiz birikmasidir. Shovqin mexanik, aerodinamik, gidrodinamik va elektromagnit kelib chiqishiga ega bo‘lishi mumkin.

*Mexanik shovqin* – ayrim detallar va umuman uskunalarning tebranishlari, zARBALARI OQIBATIDANDIR.

*Aerodinamik shovqin* manbai gazlardir.

*Gidrodinamik shovqin* – suv va boshqa suyuqliklarning harakati oqibatida kelib chiqadi.

*Elektromagnit shovqin* – o‘zgaruvchan magnit kuchlarining elektromexanik qurilmalarga ta’siri natijasida yuzaga keladi.

Tovush tezligi – vaqt birligida to‘lqin tarqalish yo‘nalishiga perpendikulyar, yagona yuza orqali tovushli to‘lqin bilan ko‘chadigan quvvat.

Inson tovushlarni tezliklarning keng diapazonida qabul qiladi. Turli chastotalardagi tovushlar bir xil qabul qilinmaydi. Insonning eshitish ostonasiga  $f=1000$  Hz va tezligi  $I=10-12$  Vt/m<sup>2</sup> tovush mos keladi.

#### *O‘lchov va me’yorlashtirilgan birliklari*

Me’yorlashtirilgan doimiy bo‘lmagan shovqin tovushining ekvivalent darajasi  $L_{Aekv}$ , dBA va tovushni maksimal darajasi  $L_{Amaks}$ , dBA hisoblanadi. Ruxsat etilgan shovqin darajasiga muvofiqligi bir vaqtda ikkita ko‘rsatgich bilan baholanadi, bitta ko‘rsatgich yuqori bo‘lsa, bu holat hujjatda belgilangan me’yorga javob bermaydi deb hisoblanadi.

Doimiy bo‘lgan shovqinni me’yoriy darajasi tovush bosimi darajasi  $L$ , dBA hisoblanadi, chastotalarni oktava chiziqlarida 31.5, 63, 125, 250, 500, 1000, 2000, 4000, 8000 Hz li o‘rtacha geometrik chastotalar bilan (tovush bosimini oktava darajalari), mo‘ljallangan baholash uchun tovushni umumiy darajasi  $L_A$ , dBA.

Turar joylar va jamoat binolarida (fortochkalarda, framugalarda, derazalardan birining tabaqasi ochiq holda) va aholi yashash hududlarida ekvivalent tovush darajasi (tashqi, ichki manbalarda) va tovush bosimining

oktavalari bo'yicha ruxsat etilgan darajalari shovqin tavsifi va kunduzgi yoki tungi vaqtlar hisobga olgan holda 4.1.1-jadvalda berilgan.

#### 4.1.1-jadval

##### Tovush bosimining ruxsat etilgan darajalar<sup>4</sup>

| T/r | Bino yoki<br>hududlarning<br>nomlari  | Sutkaning<br>vaqtлари     | Tovush bosimi darajalari, dB, o'rtacha<br>geometrik chastotalar bilan oktava<br>bandlari chastotalarida, Gts |    |     |     |     |      |      |      |      | Tovush darajalari, L <sub>A</sub> va tovushni<br>ekvivalent darajalari, L <sub>Aekv</sub> , dB <sub>A</sub> | Tovushni maksimal darajalari, dBA |
|-----|---|---------------------------|--|----|-----|-----|-----|------|------|------|------|---|-----------------------------------|
|     |   |                           | 31,5   | 63 | 125 | 250 | 500 | 1000 | 2000 | 4000 | 8000 |   |                                   |
| I   | 2   | 3                         | 4  | 5  | 6   | 7   | 8   | 9    | 10   | 11   | 12   | 13  | 14                                |
| 1.  | Shifoxona,<br>klinika va<br>sanatoriylar<br>palatalari<br>hamda<br>operatsiya<br>xonalar                                    | soat 7 dan<br>23 gacha    | 76   | 59 | 48  | 40  | 34  | 30   | 27   | 25   | 23   | 35  | 50                                |
|     |   | soat 23<br>dan<br>7 gacha | 69   | 51 | 39  | 31  | 24  | 20   | 17   | 14   | 13   | 25  | 40                                |
| 2.  | Poliklinika,<br>ambulatoriya,<br>dispanser,<br>shifoxona,<br>sanatoriylar<br>va<br>klinikalardagi<br>vrachlar<br>xonalarida | -                         | 76   | 59 | 48  | 40  | 34  | 30   | 27   | 25   | 23   | 35  | 50                                |

<sup>4</sup> "Turar joylarda, jamoat binolarida, aholi yashash hududlarida va dam olish zonalarida ruxsat etilgan shovqin darajasining sanitariya qoidalari va me'yorlari O'zbekiston Respublikasi Sog'lijni saqlash vazirining qarori" №00008-20, 29.12.2020 yil.

| <i>1</i> | <i>2</i>   | <i>3</i>                  | <i>4</i> | <i>5</i> | <i>6</i> | <i>7</i> | <i>8</i> | <i>9</i> | <i>10</i> | <i>11</i> | <i>12</i> | <i>13</i> | <i>14</i> |
|----------|--|---------------------------|----------|----------|----------|----------|----------|----------|-----------|-----------|-----------|-----------|-----------|
| 3.       | Sinf, o‘quv va o‘qituvchilarni ng xonalari, ta’lim muassasalarini auditoriyalari, anjumanlar va seminarlar o‘tkazish uchun zallar, masjidlar, kutubxonalar o‘qish zallarida  | -                         | 79       | 63       | 52       | 45       | 39       | 35       | 32        | 30        | 28        | 40        | 55        |
| 4.       | Xonadonlarning yashash xonalari, dam olish uylari, pansionatlar, qariyalar va nogironlar uylari, maktabgacha ta’lim muassasalarini va maktab-internatlarning yotoqxonalarida | soat<br>7 dan<br>23 gacha | 79       | 63       | 52       | 45       | 39       | 35       | 32        | 30        | 28        | 40        | 55        |
|          |  | soat<br>23 dan<br>7 gacha | 72       | 55       | 44       | 35       | 29       | 25       | 22        | 20        | 18        | 30        | 45        |
| 5.       | Mehmonxona va kempinglar xonalari va yotoqxonalarini ng yashash xonalarida   | soat<br>7 dan<br>23 gacha | 67       | 57       | 49       | 44       | 40       | 37       | 35        | 33        | 45        | 60        |           |
|          |  | soat<br>23 dan<br>7 gacha | 76       | 59       | 48       | 40       | 34       | 30       | 27        | 25        | 23        | 35        | 50        |
| 6.       | Kafe, restoran, bar va oshxonalarning ovqatlanish zallarida  | -                         | 90       | 75       | 66       | 59       | 54       | 50       | 47        | 45        | 43        | 55        | 70        |

| <i>1</i> | <i>2</i>  | <i>3</i>                  | <i>4</i> | <i>5</i> | <i>6</i> | <i>7</i> | <i>8</i> | <i>9</i> | <i>10</i> | <i>11</i> | <i>12</i> | <i>13</i> | <i>14</i> |
|----------|---|---------------------------|----------|----------|----------|----------|----------|----------|-----------|-----------|-----------|-----------|-----------|
| 7.       | Bozorlar<br>hududlarida,<br>do‘konlarning<br>savdo<br>zallarida,<br>aeroport va<br>vokzallarning<br>yo‘lovchilar<br>zallarida,<br>maishiy xizmat<br>korxonalarini<br>qabul<br>punktlarida   | -                         | 93       | 79       | 70       | 63       | 59       | 55       | 53        | 51        | 49        | 60        | 75        |
| 8.       | Shifoxona,<br>klinika va<br>sanatoriylar<br>bilan bevosita<br>tutashgan<br>hududlarda   | soat<br>7 dan<br>23 gacha | 83       | 67       | 57       | 49       | 44       | 40       | 37        | 35        | 33        | 45        | 60        |
|          |   | soat<br>23 dan<br>7 gacha | 76       | 59       | 48       | 40       | 34       | 30       | 27        | 25        | 23        | 35        | 50        |
| 9.       | Aholi<br>yashaydigan<br>uylar,<br>poliklinikalar,<br>ambulatoriyala<br>r,<br>dispansyerlar,<br>dam olish<br>uylari,<br>pansionatlar,<br>qariyalar va<br>nogironlar<br>uchun internat-<br>uylar,<br>maktabgacha<br>ta’lim<br>muassasalari,<br>maktab va<br>boshqa o‘quv<br>yurtlari hamda<br>kutubxonalar<br>bilan bevosita<br>tutashgan<br>hududlarda | soat<br>7 dan<br>23 gacha | 90       | 75       | 66       | 59       | 54       | 50       | 47        | 45        | 43        | 55        | 70        |
|          |   | soat<br>23 dan<br>7 gacha | 83       | 67       | 57       | 49       | 44       | 40       | 37        | 35        | 33        | 45        | 60        |
| 10.      | Mehmonxonalar,<br>kempinglar<br>va<br>yotoqxonalar<br>binolari bilan<br>bevosita<br>tutashgan<br>hududlarda   | soat<br>7 dan<br>23 gacha | 93       | 79       | 70       | 63       | 59       | 55       | 53        | 51        | 49        | 60        | 75        |
|          |   | soat<br>23 dan<br>7 gacha | 86       | 71       | 64       | 54       | 49       | 45       | 42        | 40        | 39        | 50        | 65        |

| <i>I</i> | <i>2</i>  | <i>3</i> | <i>4</i> | <i>5</i> | <i>6</i> | <i>7</i> | <i>8</i> | <i>9</i> | <i>10</i> | <i>11</i> | <i>12</i> | <i>13</i> | <i>14</i> |
|----------|---|----------|----------|----------|----------|----------|----------|----------|-----------|-----------|-----------|-----------|-----------|
| 11.      | Shifoxona,<br>klinika va<br>sanatoriylar<br>hududlaridagi<br>dam olish<br>joylarida | -        | 79       | 63       | 52       | 45       | 39       | 35       | 32        | 30        | 28        | 40        | 55        |

*Izoh.* Tashqi hamda ichki manbalardan hosil bo'layotgan shovqin impulsli yoki tonal tavsifga kiradi, jadvalda ko'rsatilgan me'yorlarga qaraganda 5dBA dan past qabul qilinadi.

#### **4.1.3 Ishlab chiqarish korxonalarida shovqin intensivligini hisoblashda dastlabki ma'lumotlar**

*4.1-amaliy mashqning 1-sharti:*

Devor materiali va shovqin manbaidan masofani (*R*) hisobga olgan holda turar-joydagi shovqin darajasini aniqlang.

**4.1.2-jadval**

**Dastlabki ma'lumotlar**

| Parametrlari                                   | Variantlar |    |    |    |     |    |     |    |    |    |    |     |    |    |     |
|--|------------|----|----|----|-----|----|-----|----|----|----|----|-----|----|----|-----|
|  | 1          | 2  | 3  | 4  | 5   | 6  | 7   | 8  | 9  | 10 | 11 | 12  | 13 | 14 | 15  |
| 16   | 17         | 18 | 19 | 20 | 21  | 22 | 23  | 24 | 25 | 26 | 27 | 28  | 29 | 30 |     |
| <i>Shovqin darjasasi<br/>L, dB</i>             | 80         | 75 | 90 | 95 | 100 | 85 | 110 | 90 | 95 | 80 | 95 | 110 | 75 | 85 | 110 |
| <i>to'siq-devor<br/>№</i>                      | 1          | 2  | 3  | 4  | 1   | 2  | 3   | 4  | 1  | 4  | 1  | 2   | 2  | 2  | 4   |
| <i>to'siq-devor<br/>№</i>                      | 9          | 10 | 11 | 9  | 10  | 9  | 10  | 9  | 10 | 0  | 10 | 10  | 10 | 9  | 11  |
| <i>to'siq-devor<br/>№</i>                      | 13         | 14 | 13 | 14 | 11  | 14 | 14  | 13 | 12 | 14 | 13 | 11  | 14 | 14 | 12  |
| <i>Devorgacha<br/>bo'lgan masofa,<br/>R, m</i> | 10         | 15 | 20 | 25 | 25  | 15 | 25  | 15 | 10 | 20 | 10 | 22  | 30 | 20 | 30  |

*4.1-amaliy mashqning 2-sharti:*

Dasturiy ta'minot muhandisining ish joyidagi uchta manbadan umumiyl shovqin darajasini aniqlang. Shovqin darajasini pasaytirish choralarini taklif qilish, shovqin darajasini pasaytirishni hisoblash.

### 4.1.3-jadval


Dastlabki ma'lumotlar

| Parametr-lari            | Variantlar |     |     |     |     |     |     |     |     |     |     |     |     |     |     |
|--------------------------|------------|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|
|                          | 1          | 2   | 3   | 4   | 5   | 6   | 7   | 8   | 9   | 10  | 11  | 12  | 13  | 14  | 15  |
| 16                       | 17         | 18  | 19  | 20  | 21  | 22  | 23  | 24  | 25  | 26  | 27  | 28  | 29  | 30  |     |
| $L_1, dB$                | 70         | 80  | 85  | 90  | 90  | 100 | 100 | 80  | 80  | 90  | 85  | 90  | 90  | 100 | 100 |
| $L_2, dB$                | 100        | 90  | 80  | 70  | 70  | 70  | 80  | 70  | 90  | 100 | 80  | 70  | 70  | 70  | 80  |
| $L_3, dB$                | 95         | 70  | 95  | 85  | 95  | 90  | 95  | 90  | 85  | 80  | 95  | 85  | 95  | 90  | 95  |
| $R_1, m$                 | 2,5        | 2   | 3   | 3,5 | 4   | 3   | 2,5 | 3   | 4   | 4,5 | 3   | 3,5 | 4   | 3   | 2,5 |
| $R_2, m$                 | 7          | 7,5 | 8   | 8,5 | 9   | 9,5 | 8,5 | 8,5 | 8   | 7,5 | 8   | 8,5 | 9   | 9,5 | 8,5 |
| $R_3, m$                 | 7          | 6,5 | 6   | 5,5 | 5   | 4,5 | 4   | 3,5 | 3   | 2,5 | 6   | 5,5 | 5   | 4,5 | 4   |
| $S_{nn}, m^2$            | 100        | 150 | 200 | 250 | 300 | 350 | 400 | 450 | 500 | 550 | 200 | 250 | 300 | 350 | 400 |
| $S_c, m^2$               | 160        | 180 | 200 | 220 | 250 | 260 | 280 | 300 | 320 | 340 | 200 | 220 | 250 | 260 | 280 |
| $\alpha_1 \cdot 10^{-3}$ | 20         | 25  | 30  | 35  | 40  | 45  | 40  | 35  | 30  | 25  | 30  | 35  | 40  | 45  | 40  |
| $\alpha_2 \cdot 10^{-2}$ | 95         | 90  | 85  | 80  | 75  | 70  | 75  | 80  | 85  | 90  | 85  | 80  | 75  | 70  | 75  |
| $\beta_1 \cdot 10^{-3}$  | 34         | 33  | 32  | 31  | 30  | 31  | 32  | 33  | 34  | 35  | 32  | 31  | 30  | 31  | 32  |
| $\beta_2 \cdot 10^{-2}$  | 75         | 80  | 85  | 90  | 95  | 90  | 85  | 80  | 75  | 70  | 85  | 90  | 95  | 90  | 85  |

### 4.1.4-jadval

Devor-to'siqlar xarakteristikasi

| Nº  | Materiallar va konstruksiyalar                                    | Konstruksiyaning qalinligi, m | $1/m^2$ to'siqning og'irligi, kg |
|-----|---|-------------------------------|----------------------------------|
| 1.  | G'isht devor  | 0,12                          | 250                              |
| 2.  | G'isht devor  | 0,25                          | 470                              |
| 3.  | G'isht devor  | 0,38                          | 690                              |
| 4.  | G'isht devor  | 0,52                          | 934                              |
| 5.  | Bir necha qatlamlı karton   | 0,02                          | 12                               |
| 6.  | Bir necha qatlamlı karton   | 0,04                          | 24                               |
| 7.  | Voylok  | 0,025                         | 8                                |
| 8.  | Voylok  | 0,05                          | 16                               |
| 9.  | Temirbeton  | 0,1                           | 240                              |
| 10. | Temirbeton  | 0,2                           | 480                              |
| 11. | Shlakobetonli devor   | 0,14                          | 150                              |
| 12. | Shlakobetonli devor   | 0,28                          | 300                              |
| 13. | Ikki tomoni suvalgan, 0,02 mmli taxtalardan (doska) iborat to'siq | 0,06                          | 70                               |
| 14. | Ikki tomoni suvalgan, 0,1 mmli taxtalardan (doska) iborat to'siq  | 0,18                          | 95                               |
| 15. | Gipsli to'siq   | 0,11                          | 117                              |



4.1.1-rasm. Shovqin manbalarini joylashuvi

#### 4.1.4 Hisoblash uchun uslubiy ko'rsatmalar

Har qanday istalmagan tovush shovqin deb ataladi. Shovqin sog'liq uchun zararli, ish faoliyatini pasaytiradi, shikastlanish darajasini oshiradi. Shuning uchun shovqindan himoya qilish choralarini ko'rish kerak.

Shovqinni turli usullar bilan kamaytirish mumkin: shovqinni hosil bo'ladigan manbasida kamaytirish; shovqinni tarqalish yo'lida so'ndirish; masofadan boshqarish qurilmalaridan foydalanish; shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish; profilaktik tadbirlar yordamida. Sanoat binolaridagi shovqinni devor va shiftlarni tovushni yutuvchi materiallar (g'ovakli gips, teshilgan, zinch g'ovakli mato) bilan qoplash orqali sezilarli darajada kamaytirish mumkin.

1. Masofani hisobga olgan holda shovqin darajasini hisoblash formulalar orqali amalga oshiriladi:

$$L_{R1} = L_1 - 20 \cdot \lg \cdot R_1 - 8, dB, \quad (4.1.1)$$

$$L_{R2} = L_2 - 20 \cdot \lg \cdot R_2 - 8, dB, \quad (4.1.2)$$

$$L_{R3} = L_3 - 20 \cdot \lg \cdot R_3 - 8, dB, \quad (4.1.3)$$

Shovqinning umumiy intensivligi 4.1.4-formula bo'yicha ketma-ket aniqlanadi:

$$L_{\Sigma 1,2,3} = L_A + \Delta L, dB, \quad (4.1.4)$$

bu yerda:  $L_A$  – 2 ta qo'shilgan darajaning eng kattasi, dB;

$\Delta L$  – 4.1.5-jadvalga muvofiq belgilanadigan darajalar farqiga qarab tuzatish:

#### 4.1.5-jadval

| $L_A - L_B, dB$ - manbalar darajasidagi farq | 0   | 1   | 2   | 3   | 4   | 5   | 6 | 7   | 8   | 9   | 10  | 15  | 20 |
|--|-----|-----|-----|-----|-----|-----|---|-----|-----|-----|-----|-----|----|
| Tuzatish $\Delta L$                          | 3,0 | 2,5 | 2,0 | 1,8 | 1,5 | 1,2 | 1 | 0,8 | 0,6 | 0,5 | 0,4 | 0,2 | 0  |

Masalan:  $L_{R1}=85$  dB;  $L_{R2}=95$  dB;  $L_{R3}=100$  dB;

$L_{R1} < L_{R2} \rightarrow 85 < 95$ ;

95 - taqqoslangan darajalarning eng yuqori darjasи;

$L_{R1}$  ( $L_A$ ) va  $L_{R2}$  ( $L_V$ ) ni farqi ( $L_{R1}-L_{R2}=85-95=10$ ) orqali 4.1.5-jadvaldan tuzatishni topamiz. Bizning misolda tuzatish 0,4 ga teng.

$L_{\Sigma 1,2}=95+0,4=95,4$  dB.

Olingan natijani ( $L_{\Sigma 1,2}$ )  $L_{R3}$  bilan taqqoslashni davom ettiramiz ( $L_{\Sigma 1,2}$  va  $L_{R3}$ ).

$L_{\Sigma 1,2}$  ( $L_A$ ) va  $L_{R3}$  ( $L_B$ ) ni farqi ( $L_{\Sigma 1,2}-L_{R3}=95,4-100\approx 5$ ) orqali 4.1.5-jadvaldan tuzatishni topamiz. Bizning misolda tuzatish 1,2 ga teng.

$L_{\Sigma 1,2,3}=100+1,2=101,2$  dB

bu yerda: 100 - taqqoslangan darajalarning eng kattasi.

Olingan natija standart daraja bilan taqqoslanadi – dasturiy ta'minot muhandisining ish joyi uchun 50 dB. Agar shovqin darjasи standartdan oshsa, quyidagi himoya choralar taklif etiladi:

a) devor va shiftlarni qoplash uchun ovoz o'tkazmaydigan materiallardan foydalanish;

b) ish joyini devor-to'siq orqasida ko'chirish;

a) shartimiz o'lchovidan foydalanish uchun dastlabki ma'lumotlar 4.1.2-jadvalda keltirilgan:

$\alpha_1, \alpha_2$  – mos ravishda, tovushni yutuvchi material bilan qoplashdan oldin va keyingi shift materialining tovush yutish koeffitsiyentlari;

$\beta_1, \beta_2$  – mos ravishda, tovushni yutuvchi material bilan qoplashdan oldin va keyingi devor materialining tovush yutish koeffitsiyentlari;

$\gamma$  – polning tovush yutish koeffitsiyenti. Pol tovush yutuvchi material bilan qoplanmaydi. Hisoblashda polning tovush yutish koeffitsiyenti  $\gamma=0,061$  ga teng qilib olinadi.

Devor va shiftning tovushni yutuvchi material bilan qoplashdan oldingi tovushni yutishi birligi:

$$M_1 = S_{sh} \cdot \alpha_1 + S_d \cdot \beta_1 + S_p \cdot \gamma, \quad (4.1.5)$$

Devor va shiftning tovushni yutuvchi material bilan qoplashdan keyingi tovushni yutishi birligi:

$$M_2 = S_{sh} \cdot \alpha_2 + S_d \cdot \beta_2 + S_p \cdot \gamma, \quad (4.1.6)$$

Pol va shift yuzalari teng.

Shovqinning intensivligini kamaytirish qo'yidagi formula orqali aniqlanadi:

$$K = 10 \lg \frac{M_2}{M_1}, dB \quad (4.1.7)$$

Materiallardan foydalanishni hisobga olgan holda, 4.1.8-formula bo'yicha umumiy tovush sathini aniqlaymiz:

$$L_M = L_{1,2,3} - K, dB \quad (4.1.8)$$

bu yerda:  $L_M$  – tovushni yutuvchi material bilan qoplashdan keyingi tovush sathi;  $L_{1,2,3}$  – ish joyidagi 3 ta manbaning jami tovush sathi.

Olingen natijalar standart qiymat bilan taqqoslanadi. Tovush sathi standartga mos keladigan bo'lsa, hisoblashni shu yerda to'xtatish mumkin. Agar mos kelmasa, b) shartdagi o'lchov qo'llaniladi.

b) shartdagi o'lchovdan foydalanish uchun dastlabki ma'lumotlar 4.1.9-jadvalda keltirilgan (uchta ixtiyoriy dastlabki ma'lumot olamiz):

Agar shovqin manbai va ish joyi o'rtasida devor to'sig'i mavjud bo'lsa, shovqin intensivligi darajasi  $N, dB$  ga kamayadi:

$$N = 14.5 \cdot \lg \cdot G + 15, dB \quad (4.1.9)$$

bu yerda:  $G$  – bir metr kvadratdagи ( $m^2$ ) devor to'sig'i massasi, kg.

Devor-to'siqlarni hisobga olgan holda ish joyidagi shovqin darajasini aniqlash 4.1.9-formula bo'yicha amalga oshiriladi:

$$L_N = L_{\Sigma 1,2,3} - N, dB \quad (4.1.10)$$

Shunday qilib, ish joyidagi yakuniy shovqin darjasini qo'yidagicha aniqlanadi:

$$L_N = L_M - N = L_{\Sigma 1,2,3} - K - N, dB \quad (4.1.11)$$

Hisob-kitoblar natijalariga ko'ra xulosalar chiqaring.

2. Shovqin manbasidan  $R$  masofada joylashgan devor materialini hisobga olgan holda turar-joydagi shovqin darajasini aniqlang.

Oraliq masofani hisobga olgan holda tovush sathi 4.1.12-formula orqali aniqlanadi:

$$L_R = L_{ekv} - 20 \lg \cdot R - 8, dB \quad (4.1.12)$$

Uyning devorlari ortidagi tovush sathi 4.1.13-formula orqali aniqlanadi:

$$N = 14.5 \cdot \lg \cdot G + 15, dB \quad (4.1.13)$$

Masofa va to'siq devorini hisobga olgan holda tovush sathi 4.1.14 - formula orqali aniqlanadi:

$$L_N = L_R - N, dB \quad (4.1.14)$$

Turar-joy va jamoat binolarida ruxsat etilgan shovqin darajalari bilan solishtiring (turar-joy binolaridagi shovqin darjasini kunduzi kamida 30 dBA va kechasi 40 dBA bo'lishi kerak).

Shovqin darajasini standart qiymatlarga kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni taklif qiling, shu jumladan yashil maydon chizig'idan foydalaning (4.1.6-jadval).

#### 4.1.6-jadval

##### Dastlabki ma'lumotlar

| Yashil maydon chizig'i  | Maydon kengligi | Shovqin darajasini kamayishi, $L_{A,yashil\ maydon}, dBA$ |
|---|-----------------|---|
| Bir qator qilib daraxtlarni ekish (shaxmat shaklida)  | 10-15           | 4-5   |
| Bir qator qilib daraxtlarni ekish (shaxmat shaklida)  | 16-20           | 5-8   |
| Ikki qatorli qilib daraxtlarni ekish (qatorlar orasidagi masofa 3-5 m, qatorlar bir qatorli ekishga o'xshaydi)        | 21-25           | 8-10  |
| Ikki yoki uch qatorli qilib daraxtlarni ekish (qatorlar orasidagi masofa 3 m, qatorlar bir qatorli ekishga o'xshaydi) | 26-30           | 10-12   |

*Eslatma:* Daraxtlarning balandligi kamida 5-6 m bo'lishi kerak.

#### **4.1.5 Nazorat savollari**

1. Shovqin deb nimaga aytildi?
2. Shovqin tasnifi va uni meyorlashtirish.
3. Shovqin odamga qanday ta'sir qiladi?
4. Shovqinning intensivligi, intensivlik darajasi nima?
5. Eshitish chegarasi, og'riq chegarasi nima?
6. Shovqin ta'siridan qanday himoya choralar mavjud?
7. Shahar shovqini, yashash muhiti shovqinlarining asosiy manbalari nimalardan iborat?
8. Shovqinni yutish va to'sish tadbirlari samaradorligini aniqlashda nimalarga e'tibor berish kerak?
9. Shovqin sathini kamaytirish bo'yicha qanday muxandislik echimlari qo'llaniladi?
10. Ishlab chiqarishda shovqin ta'sirini kamaytirish qanday tadbirlar orqali amalga oshiriladi?
11. Inson organizmiga shovqining ta'sirini tushuntiring, me'yorlar bo'yicha ruhsat etiladigan shovqinlar sathlarini va himoya choralarini ayting.

#### **4.2. Ishlab chiqarish korxonalarida yoritilganlikni hisoblash**

##### **4.2.1 Mashg'ulotning maqsadi:**

Ishlab chiqarish xonasida chiroqlar sonini, yoritish moslamasining quvvatini aniqlash, xonaga chiroqlarni joylashtirish metodologiyasini o'zlashtirish.

##### **4.2.2 Nazariy ma'lumotlar.**

Ishlab chiqarish binolari va ish joylarini yoritish. Yoritilganlik haqida umumiy ma'lumotlar. Yoritilganlik insonning tashqi muhit bilan boglanishini aniqlovchi va inson miyasiga keluvchi tashqi dunyo to'g'risidagi ma'lumotlarning sifatini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlardan biridir. To'g'ri va me'riy miqdordagi

yoritilganlik ish qurollari va jihozlarning rangini, o'lchamlarini tezda aniqlashga imkon beradi va ishchining mehnat qobiliyatini uzoq muddatgacha saqlanib qolishiga, mehnat unumdorligining oshishiga, ishlab chiqarilgan mahsulotning sifatli bo'lishiga sharoit yaratib, mehnat xavfsizligini oshiradi.

Ish xonalari va joylarini yoritishga asosan quyidagi talablar belgilangan:

- ish ob'ektlarini tez va engil farqlash imkoniyatini berishi zarur;
- yoritilganlik bir tekis bo'lishi, hech qanday keskin soya bermasligi lozim;
- ob'ekt va u joylashgan joy rangi (fon) orasida ma'lum darajada farq ("kontrast") bo'lishi kerak;
- yorug'lik manbai ko'rildigan ob'ektda hech qanday yorug'lik qaytishini (yaltirashlar)hosil qilmasligi kerak;
- yorug'lik manbai ishchi ko'zini qamashtirmasligi lozim;
- ishchi yuzalarning yoriliganlik darajasi vaqt oralig'ida o'zgarmasligi zarur.

Yoritilganlikka qo'yilgan ushbu talablar nafaqat tadqiqotlarda, balki amaliyotda ham o'z isbotini topgan. Me'yoriy yoritilganlik faqat yorug'lik oqimiga bog'liq bo'lmasdan, yorug'likni xona shipi va devoridan qaytishiga, fon bilan buyum orasidagi kontrast (ranglar farqi)ga ham bog'liq holda belgilanadi. Masalan, qora ipni qora fonda ko'rish uchun oq rangda joylashgan fonga nisbatan kamida ming marta katta yoritilganlik talab etiladi.

Yoritilganlikning asosiy yorug'lik-texnik ko'rsatkichlari. Yoritilganlikning yorug'lik-texnik ko'rsatkichlariga yorug'lik, yorug'lik oqimi ( $F$ ,  $lyumen$ ), yorug'lik kuchi ( $I$ ,  $kandela$ ), yoritilganlik ( $E$ ,  $lyuks$ ), ravshanlilik ( $l$ ,  $kd/m^2$ ), va yorug'likni qaytarish koeffitsiyenti ( $\alpha$ , %) kiradi. Sifat ko'rsatkichlariga esa fon, ob'ektni fon bilan farqlash kontrasti, pulsatsiya koeffitsiyentini kiritish mumkin.

Yorug'lik – elektromagnit spektrini ko'zga ko'rindigan sohasining bir qismi hisoblanadi. Uning asosiy xarakteristikasi sifatida to'ljin uzunligi ( $\lambda$ ) va tebranish chastotasi ( $v$ ) qabul qilingan. Bu ko'rsatkichlar orasidagi o'zaro bog'lanish quyidagicha ifodalanadi:

$$\lambda = \frac{s}{v}, \quad (4.2.1)$$

bu yerda:  $s$  – yorug‘likning tarqalish tezligi.

Ko‘zning ko‘rish darajasi spektrning ko‘rinadigan sohasini har xil qismida turlicha bo‘lib, spektrning yashil oblastida, to‘lqin uzunligi  $\lambda=554\text{ nm}$  bo‘lgan holatda maksimal hisoblanadi.

Yoritilganlikning asosiy yorug‘lik – texnik ko‘rsatkichlariga yorug‘lik kuchi, yoritilganlik, yorug‘likni yutish, o‘tkazish va qaytarish koeffitsiyenti, yorug‘lik ravshanligi, ob‘ektning fon bilan kontrasti (ob‘ekt bilan asosiy rang orasidagi keskin farq), yoritilganlikning pulsatsiya koeffitsiyenti va yoritilganlikning notyokislik koeffitsiyenti kiradi.

Yorug‘lik kuchi ( $J$ ) – yorug‘lik oqimining yorug‘lik tarqaladigan burchakga nisbati orqali ifodalanadi:

$$J = \frac{dF}{d\omega}, \quad (4.2.2)$$

Yorug‘lik kuchining o‘lchov birligi qilib kandela ( $K_d$ ) qabul qilingan.

Yorug‘lik oqimi ( $F$ ) – yorug‘lik quvvati orqali xarakterlanadi va lyumenda ( $lm$ ) o‘lchanadi.

Yoritilganlik ( $E$ ) – yorug‘lik oqimining sirt bo‘ylab zichligi bo‘lib, lyuks ( $lk$ ) da o‘lchanadi.

Yoritilganlikni qaytarish, yutish, o‘tkazish koeffitsiyentlari. Yoritilganlik sifati yoritilganlik miqdori va yoritiluvchi yuzaning xususiyatlariga bog‘liq bo‘ladi. Yoritiluvchi yuzaning yorug‘lik oqimini qaytarish, yutish va o‘tkazish xususiyatlari yorug‘likni qaytarish  $\alpha_s$ , yutish  $\beta_s$  va o‘tkazish  $\gamma_s$  koeffitsiyentlari orqali baholanadi. Ushbu koeffitsiyentlar quyidagicha aniqlanadi:

$$\alpha_s = \frac{F_\alpha}{F}, \quad \beta_s = \frac{F_\beta}{F}, \quad \gamma_s = \frac{F_\gamma}{F}, \quad (4.2.3)$$

bu erda:  $F$  – yoritiladigan yuzaga tushadigan yorug‘lik oqimi;  $F_\alpha$ ,  $F_\beta$ ,  $F_\gamma$  – mos holda, yoritiladigan yuzadan qaytgan, yutilgan va o‘tkazilgan yorug‘lik oqimi, lm.

Ravshanlilik, kontrast va fon. Yoritiladigan yuzaning asosiy xarakteristikalaridan biri yorug‘likni qaytarish xususiyati hisoblanadi va bu yuzaning ravshanligi («yarkost») ga bog‘liq bo‘ladi. Ravshanlilikning o‘lchov

birligi qilib  $Nit$  ( $Nt$ ) qabul qilingan. Buyum sirti (yuzasi) dagi ravshanlilik bilan umumiyl atrof foni (rangi) orasidagi keskin farq kontrast deb ataladi. Fon deb farqlanadigan ob'ektga taaluqli yuzaning, ya'ni ushbu ob'ekt (buyum) joylashgan yuzaning rangiga aytiladi. Fon yorug'lik oqimini qaytarish xususiyati bilan xarakterlanadi va  $\alpha_s > 0,4$  bo'lganda yorug',  $\alpha_s = 0,2 \dots 0,4$  bo'lganda o'rta,  $\alpha_s < 0,2$  bo'lganda qora hisoblanadi.

Fonga bog'liq holda kontrast  $K_0 > 0,5$  bo'lsa yuqori,  $K_0 = 0,2 \dots 0,5$  bo'lsa o'rtacha,  $K_0 < 0,2$  bo'lsa kichik hisoblanadi.

Yoritilganlikning pulsatsiya koeffitsiyenti ( $K_{PK}$ ) – o'zgaruvchan tok bilan ishlovchi gazorazryadli chiroqlarda yorug'likning o'zgarishi natijasida yuzaga keladigan yoritilganlik tebranishining nisbiy chuqurligi orqali baholanadi va u quyidagicha aniqlanadi:

$$K_{PK} = \frac{E_{max} - E_{min}}{2 \cdot E_{o'r}} \cdot 100\%, \quad (4.2.4)$$

bu yerda:  $E_{max}$ ,  $E_{min}$ ,  $E_{o'r}$  – tebranish davridagi maksimal, minimal va o'rtacha yoritilganlik.

Yoritilganlik pulsatsiya koeffitsiyenti ( $K_{PK}$ ) 10...20% bo'lishi lozim.

Yoritilganlikning notekistlik koeffitsiyenti ( $K_{NK}$ ) – ishchi yuzadagi minimal va maksimal yoritilganliklarning nisbati orqali ifodalanadi:

$$K_{NK} = \frac{E_{min}}{E_{max}} \cdot 100\%, \quad (4.2.5)$$

Yoritish tabiiy va sun'iy usullarda bo'ladi. Agar tabiiy yoritish to'g'ri loyihalashtirilsa va me'yor darajasida bo'lsa inson uchun eng qulay ish sharoiti yaratiladi.

**Tabiiy yoritish.** Tabiiy yoritish yorug'lik o'tkazish yo'llariga bog'liq holda yon tomonlama, yuqori tomonlama va kombinatsiyalashgan, ya'ni ham yon ham yuqori tomonlama bo'lishi mumkin.

Tabiiy yoritish darjasini kunning vaqtiga va iqlimiyl sharoitlarga bog'liq holda ish vaqtida o'zgarishi hisobli, ish joyining yoritilganligi bilan emas, balki tabiiy yoritilganlik koeffitsiyenti orqali me'yorlashtiriladi.

Tabiiy yoritilganlik koeffitsiyenti deb xona ichidagi biror nuqtaning yoritilganligini shu vaqtdagi tashqi muhit yoritilganligiga nisbatining foizdagi ifodasiga aytildi:

$$e_{min} = \frac{E_{ichki}}{E_{tashqi}} \cdot 100\%, \quad (4.2.6)$$

bu yerda:  $E_{ichki}$  – xona ichining biror nuqtasidagi yoritilganlik, lk;  $E_{tashqi}$  – tashqi muhitdagi ochiq maydondagi yoritilganlik, lk.

Tabiiy yoritilganlik koeffitsiyenti ( $e$ )  $n$  tomonlama yoritilganlikda  $e_{o'rtacha} \geq 80\%$   $e_n$ ; yuqori tomonlama va kombinatsiyalashgan yoritilganlikda  $e_{o'rtacha} \geq 60\%$   $e_n$  bo'lsa yaxshi hisoblanadi. Tabiiy yoritilganlik koeffitsiyenti yorug'likning iqlimi y koeffitsiyentiga bog'liq bo'ladi. Uning miqdori ish razryadiga, farqlash ob'ektining eng kichik o'lchamiga hamda iqlimning yorug'lik poyasiga bog'liq holda maxsus jadvallardan tanlab olinadi va shu asosida binolarga o'rnatilishi lozim bo'lgan derazalar hamda fonarlar (yuqori tomonlama yoritilganlikda) soni hisoblanadi. Tabiiy yoritilganlikni me'yor darajasida ta'minlash uchun yorug'lik o'tish yo'llari (derazalar maydoni va soni) ish turiga bog'liq holda o'rnatilgan yoritilganlik me'yori asosida hisob yo'li bilan aniqlanadi.

**Suniy yoritish.** Sun'iy yoritish umumiyligi yoki kombinatsiyalashgan bo'lishi mumkin. Kombinatsiyalashgan yoritishda umumiyligi va mahalliy yoritish birgalikda qo'llaniladi. Umumiy yoritishda xona ichi umumiyligi chiroqlar yordamida yoritilsa, mahalliy yoritishda esa chiroqlar bevosita ish joyiga yoki ish jihoziga oldiga o'rnatiladi, masalan, ish stoli ustida o'rnatilgan ko'chma chiroqlar, stanoklar yoki boshqa ish qurilmalarida o'rnatiladigan chiroqlar va boshqalar.

Yoritilganlikni me'yorlashni engillatish maqsadida barcha ishlar aniqlilik darajasiga ko'ra 6 razryadga bo'lingan: o'ta yuqori aniqlikdagi ishlar – I razryad; juda yuqori aniqlikdagi ishlar – II razryad; yuqori aniqlikdagi ishlar – III razryad; o'ta aniqlikdagi ishlar – IV razryad; kamani aniqlikdagi ishlar – V razryad; dag'al ishlar – VI razryad.

Eng yuqori yoritilganlik I razryaddagi ishlar uchun belgilangan bo‘lib 5000 lk. ni tashkil etadi, kichik yoritilganlik esa IV razryaddagi ishlar uchun – 75 lk qilib belgilangan.

Tashqi muhitda bajariladigan ishlarda ish razryadiga bog‘liq holda yoritilganlik 2 dan 50 lk gacha bo‘ladi.

Ishlab chiqarish xonalarida yoritilganlik parametrlarini aniqlashda ishchilarining ish stollariga yorug‘lik qaysi tomondan tushishi, tabiiy yorug‘lik va sun’iy yorug‘lik yetarli bo‘ladimi, yorug‘lik ishchilarni ko‘zini qamashtiradimi yoki yo‘qmi, stollar va doska yuzasida yorug‘likni yaltirashi kuzatiladimi, shuni hisobga olish kerak.

Binolarning yuqori yoritish kerak emas, chunki bu xonaning haddan tashqari qizib ketishiga yoki gipotermiyaga olib keladi.

#### **4.2.3 Ishlab chiqarish korxonalarida yoritilganlikni hisoblashda dastlabki ma’lumotlar.**

1. 1.1.1-jadvaldagi (oslubiy qo’llanmaning 1-qismiga qarang) variant ma’lumotlari va 4.2.7, 4.2.9-formulalar yordamida yorug‘lik o’tkazish maydonini va xonalar uchun oynalar sonini aniqlang;
2. 4.2.10-formula orqali yorug‘lik koeffitsiyentini hisoblang;
3. 4.2.11-formula orqali chuqurlik koeffitsiyentini hisoblang;
4. Xona uchun yorug‘lik koeffitsiyenti kamida 1/6 bo’lishi kerakligini hisobga olgan holda, olingan koeffitsiyentlarning sanitariya-gigiyena me’yorlariga muvofiqligi to’g’risida xulosa chiqaring; chuqurlik koeffitsiyenti – 1/2 dan kam emas.

#### **4.2.4 Hisoblash uchun uslubiy ko‘rsatmalar.**

*Binolarning tabiiy yoritilishini hisoblash.* Odatda, xonada kunduzgi tabiiy yorug‘lik bir devorda joylashgan derazalardan yon yorug‘likning bir tomonlama qabul qilinishi tufayli sodir bo‘ladi.

Bu holda tabiiy yorug'lik koeffitsiyentining minimal qiymati (TYoK) yorug'lik o'tadigan devor qiyaligidan  $1 m$  masofada joylashgan nuqtada, vertikal tekislik va stollarning (yoki polning) shartli ishchi yuzasi kesishgan joyda normallashadi.

Yorug'lik o'tadigan maydon yuzasini dastlabki hisoblash quyidagi formula bo'yicha amalga oshiriladi:

$$\frac{S_{t,yon,yorit.}}{S_p} \cdot 100 = \frac{e_n \cdot \eta_o \cdot K_b}{\tau_0 \cdot r_1}, \quad (4.2.7)$$

bu yerda:  $S_{t,yon,yorit.}$  – tabiiy yon yoritishdagi yorug'lik o'tadigan yuza maydoni;  $S_p$  – xona polining yuzasi;  $e_n$  – tabiiy yorug'lik koeffitsiyentini normallashtirilgan ko'rsatkichi (ko'rgazmali ishlarning xususiyatlarini hisobga olgan xolda  $e_n = 0,6\%$ );  $\eta_o$  – derazalarning yorug'lik xarakteristikasi ( $\eta_o = 31$ );  $K_b$  – qarama - qarshi bino tomonidan derazalarga soyasi tushishini hisobga oladigan koeffitsiyent (agar qarama - qarshi binolar bo'lmasa, u holda  $K_b = 1$ );  $\tau_0$  – umumi yorug'lik o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti:

$$\tau_0 = \tau_1 \cdot \tau_2 \cdot \tau_3 \cdot \tau_4, \quad (4.2.8)$$

bu yerda:  $\tau_1$  – materialning yorug'lik o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti,  $\tau_1 = 0,8$ ;  $\tau_2$  – yorug'likni deraza bog'lamalarida yo'qotilishini belgilovchi koeffitsiyent, qo'sh yog'och bog'lamlar uchun  $\tau_2 = 0.65$ ;  $\tau_3$  – yuk ko'taruvchi konstruktsiyalarda yorug'lik yo'qolishini hisobga oladigan koeffitsiyent, yon tomondan yoritilganda  $\tau_3 = 1$ ;  $\tau_4$  – quyoshdan himoyalovchi qurilmalarda yorug'lik yo'qolishini hisobga oladigan koeffitsiyent, tortiladigan pardalar uchun  $\tau_4 = 1$ ;  $r_1$  – xona yuzalaridan va binoga tutashgan asosiy qatlamdan aks ettirilgan yorug'lik tufayli yon yoritishda TYoK oshishini hisobga oluvchi koeffitsiyent (katta auditoriyalar uchun  $r_1 = 1.9$ ).

4.2.9-formuladan biz tabiiy yon yoritishdagi yorug'lik o'tadigan kerakli yuza maydoni aniqlaymiz,  $m^2$ :

$$S_{t,yon,yorit.} = \frac{e_n \cdot \eta_o \cdot K_b \cdot S_p}{\tau_0 \cdot r_1 \cdot 100}, \quad (4.2.9)$$

Yorug'lik o'tadigan yuzalarning umumi yuzaliga qarab, standart o'lchamdagisi derazalarning kerakli soni hisoblab chiqiladi.

Misol uchun, agar natija yorug'lik o'tadigan yuzaning umumiy maydoni  $8 \text{ m}^2$  bo'lsa, demak, deraza o'lchamlari binoning me'moriy xususiyatlari asosida tanlanadi, masalan, xona uchun har biri  $4 \text{ m}^2$  maydonga ega ikkita oyna kerak.

Bo'yalgan devor yuzalarining qaytaruvchanligini hisobga olish kerak. Bu oq rangga bo'yalgan sirt uchun 80%, och sariq rangga bo'yalgan sirt uchun 60%, och yashil rangga bo'yalgan sirt uchun 40%, och ko'k rangga bo'yalgan sirt uchun 30% va tim ko'k rangga bo'yalgan sirt uchun 6%. Sirti kir bo'lgan devorlar yangi bo'yalgan yoki yuvilgan devorlarga qaraganda yorug'likni 2 barobar kamroq aks ettiradi.

Binolarning tabiiy yoritilishini xarakteristikasi uchun qo'yidagi formula bo'yicha aniqlanadigan yorug'lik koeffitsiyenti ishlataladi:

$$K_{yor.koef} = \frac{S_{t.yon.yorit.}}{S_p}, \quad (4.2.10)$$

bu yerda:  $S_{t.yon.yorit.}$  – tabiiy yon yoritishdagi yorug'lik o'tadigan yuza maydoni (derazaning oyna bilan qoplangan maydoni);  $S_p$  – xona polining yuzasi.

Chuqurlik koeffitsiyenti – yerdan derazaning yuqori chetigacha bo'lgan masofaning xonaning chuqurligiga nisbati, ya'ni yorug'lik o'tkazuvchi devordan qarama-qarshi devorgacha bo'lgan masofa.

Chuqurlik koeffitsiyenti qo'yidagi formula bilan aniqlanadi:

$$K_{chuq.koef} = \frac{h_1}{b}, \quad (4.2.11)$$

bu yerda:  $h_1$  – derazaning yuqori chetining poldan balandligi;  $b$  - xonaning chuqurligi (kengligi).

*Binolarning sun'iy yoritilishini hisoblash.* Yorug'likni hisoblashda yorug'lik oqimdan foydalanish koeffitsiyenti usuli bilan amalga oshiriladi. Bu usul qorong'ilik bo'limganda xonalarda gorizontal ishchi yuzalarni (masalan, stol yuzalarini) umumiy bir xil yoritilishini hisoblash uchun ishlataladi.

Har bir chiroqning kerakli yorug'lik oqimi ( $lm$ ) qo'yidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$F = \frac{E \cdot S \cdot k \cdot z}{N \cdot \eta}, \quad (4.2.12)$$

bu yerda:  $E$  – vizual ishning ma'lum bir toifasi uchun ish sirtlarining me'yoriy minimal yoritilganligi, ( $lyuks$  -  $lk$ );  $E = 300 lk$  qabul qilamiz;  $S$  – yoritiladigan maydon yuzasi,  $m^2$ ;  $k$  – lampaning zaxira koeffitsiyenti, ishlash vaqtida ularning changlanishini va eskirishini hisobga olgan holda lampaning zaxira koeffitsiyenti  $k = 1,4$  ga teng qilib olamiz;  $z$  – minimal yoritilganlik koeffitsiyenti,  $z = 1,1-1,5$  (yoritgichlar orasidagi masofaning hisoblanayotgan balandlikdagi optimal nisbati  $z = 1,1$ );  $N$  – xonadagi lampalar soni;  $\eta$  – yorug'lik oqimidan foydalanish koeffitsiyenti.

Yorotilayotgan xonaning maydoni  $S$ ,  $m^2$ , qo'yidagi formula orqali aniqlanadi:

$$S = a \cdot b, \quad (4.2.13)$$

bu yerda:  $a$  – xona uzunligi,  $m$ ;  $b$  – xona eni,  $m$ .

Keyinchalik, xona ichiga o'rnatish uchun  $N$  lampalar soni hisoblanadi:

$$N = \frac{S}{L^2}, \quad (4.2.14)$$

bu yerda:  $L$  – lampalar orasidagi masofa,  $m$ .

Yoritgichlarning umumiyligi yoritish tizimiga ega bo'lgan xonaga joylashtirilishi ularning hisoblangan osma o'lchami  $h$  ning balandligiga bog'liq bo'lib, u odatda binolarning o'lchami bilan belgilanadi. Yoritgichlar orasidagi masofaning hisoblangan osma balandligiga eng qulay nisbati qo'yidagi formula orqali aniqlanadi:

$$\lambda = \frac{L}{h}, \quad (4.2.15)$$

bu yerda:  $\lambda$  – yoritgichlar orasidagi masofaning hisoblangan osma balandligiga nisbati, chiroqning yorug'lik intensivligi egri chizig'iga qarab normativ hujjatlar jadvalidan aniqlanadi. Tipik kosinus egri chiziqli bo'lgan lyuminestsent lampalar uchun  $\lambda=1,4$ ;  $h$  – yoritgichlardagi lampalarning hisoblangan osma balandligi,  $m$ .

Lampalar orasidagi masofa 4.2.16-formuladan kelib chiqadi:

$$L = \lambda \cdot h, \quad (4.2.16)$$

Ish stoli sathidan yuqori bo'lgan lampaning osma balandligini  $h$  quyidagi formula bo'yicha topish kerak:

$$h = H - h_{yo} - h_{ish}, \quad (4.2.17)$$

bu yerda:  $h_{yo}$  – shiftdan yoritgichning pastki chetigacha bo’lgan masofa,  $m$ .

Qandillarda ixcham lyuminestsent lampalar yoki cho’lg’amlı lampalar ishlatilganda  $h_{yo}$  qiymatini hisobga olish kerak. Hozirda zamonaviy yoritgichlar hift sathiga moslashtirilgan quvurli lampalar bilan jihozlangan bo’lib, ularning shiftdan yoritgichning pastki chetigacha bo’lgan masofasini  $h_{yo} = 0$  qilib olamiz.  $h_{ish}$  – polda ishchi stol sathigacha bo’lgan masofasi, odatda bu masofa  $h_{ish} = 0,8 m$ .

Yorug’lik oqiminning foydalanish koeffitsiyentini ( $\eta$ ) aniqlash uchun xonaning indeksini ( $i$ ), shuningdek, xona devorlaridan ( $\rho_d$ ) va shiftidan ( $\rho_{sh}$ ) yorug’lik aks etish koeffitsiyentlarini topish kerak.

To’rtburchak xonalar uchun:

$$i = \frac{a \cdot b}{h \cdot (a+b)}, \quad (4.2.18)$$

bu yerda:  $a$  va  $b$  – xonaning eni va uzunligi,  $m$ ;  $h$  – yoritgichlarning taxminiy osma balandligi,  $m$ ;

kvadrat xonalar uchun:

$$i = \frac{0,5}{h} \cdot \sqrt{S}, \quad (4.2.19)$$

katta uzunlikdagi xonalar uchun:

$$i = \frac{b}{h}, \quad (4.2.20)$$

Agar hisob-kitoblarda  $i$  indeksi 5 dan oshgan bo’lsa, ular  $i = 5$  ga teng, agar  $i$  hisobida 0,5 dan kam bo’lsa,  $i = 0,5$  ga teng qilib olinadi.

Xona sirtlarining aks ettirish koeffitsiyentlari: shift –  $\rho_{sh} = 7\%$ , devorlar –  $\rho_d = 50\%$ , stollarning ishchi yuzasi –  $\rho_{ish} = 30\%$ .

4.2.12-formulada shiftga osilgan qandilning har bir chirog’ning yorug’lik oqimi aniqlanadi. 1-ilovadagi 2, 3, 4-jadvallardan yorug’lik oqimiga qarab, chiroq turini tanlang. Shuni esda tutish kerakki, bitta ixcham lyuminestsent lampaning quvvatini (ular energiyani tejaydigan lampalar deb ataladi) beshta cho’lg’amlı lampaning quvvatiga tenglashtirish mumkin. Masalan, YPZ5-2U-3 chirog’ining quvvati 15 Vt, bu esa 75 Vt cho’lg’amlı chiroqqa teng.

Agar hisoblashda olingan yorug'lik oqimi  $F$  qiymatiga ega bo'lган lampalar bo'lmasa, shu olingan yorug'lik oqimiga mos lampalar tanlanadi, keyin xonaga joylashtirish uchun zarur bo'lган lampalar soni qayta hisoblash orqali aniqlanadi:

$$N_a = \frac{N \cdot F}{F_{tan}}, \quad (4.2.21)$$

bu yerda:  $N_a$  – aniqlangan lampalar soni;  $N$  – oldindan hisoblangan lampalar soni;  $F$  – chiroqning hisoblangan yorug'lik oqimi,  $lm$ ;  $F_{tan}$  – tanlangan chiroqning yorug'lik oqimi,  $lm$ .

Tanlangan lampalar qandilga bitta, ikkita, to'rtta va x.k. o'rnatiladi. Yoritgichning turi va dizayni xonaning o'ziga xos va maqsadili bo'lishi kerak.

#### **4.2.5 Nazorat savollari.**

1. Yoritilganlik nima?
2. Yoritilish qanday birlikda o'lchanadi?
3. Yorug'lik oqimi qanday birlikda o'lchanadi?
4. Ravshanlik qanday birlikda o'lchanadi?
5. Pulsatsiya koeffitsienti nima?
6. Yorug'lik uzatish hususiyati nima?
7. Aks ta'sir koeffitsienti nima?
8. Qanday tabiiy yoritishlarni bilasiz?
9. Qanday sun'iy yoritishlarni bilasiz?
10. Qanday yoritkich turlarini bilasiz?
11. Yoritkichlarning sifat ko'rsatkichlari qanday asosiy parametrlarni tavsiflaydi?
12. Mehnat samaradorligiga ish joylarini yoritilishi qanday ta'sir ko'rsatadi?
13. Tarmoqdagi kuchlanish sun'iy yoritishga qanday ta'sir ko'rsatadi?
14. Lipillashning keskin chastotasi nima?
15. Suniy yoritishni me'yorlashtirishda hisobga olinadigan omillar.
16. Sun'iy yoritishning o'ziga xos xususiyati nimada?
17. Sun'iy yoritish tizimlari qanday tasniflanadi?

18. Yoritish moslamalarining roli qanday?
19. Lyuminessent va cho'g'lanma lampalarning afzalliklari va kamchiliklarini solishtiring.
20. Stroboskopik effektning sabablarini tushuntiring.

### **4.3. Elektromagnit maydon nurlanishlaridan himoyalanishni hisoblash**

#### **4.3.1 Mashg'ulotning maqsadi:**

Turli manbalardan elektromagnit nurlanish darajasini hisoblash, nurlanish manbasidan xavfsiz masofasini aniqlash va baholash. EMMning salbiy ta'sirini kamaytirish bo'yicha zarur chora-tadbirlarni o'rganish.

#### **4.3.2 Nazariy ma'lumotlar**

Elektromagnit maydoni ma'lum kuchlanishdagi elektr maydoni ( $V/m$ ) va magnit maydoni ( $A/m$ ) vektorlari orqali ifodalanadi. Harakatlanuvchi elektromagnit to'lqinlari va vektorlari har yaqt o'zaro perpendicular bo'ladi. O'tkazuvchi muhitda tarqalayotganda ular o'zaro quyidagi bog'lanishga ega bo'ladi:

$$E = H \sqrt{\frac{\varpi \cdot \mu}{\gamma}} \cdot e^{-kz}, \quad (4.3.1)$$

bu yerda:  $\varpi$  – elektromagnit tebranishlarining aylanma chastotasi;  $\gamma$  – ekran moddasining solishtirma o'tkazuvchanligi;  $\mu$  – bu moddaning magnit o'tkazuvchanligi;  $k$  – so'nish koefitsiyenti;  $z$  – nurlanayotgan ekran yuzasidan aniqlanayotgan nuqtagacha bo'lgan masofa.

Elektromagnit to'lqinlari vakumda yoki havo muhitida tarqalayotgan bo'lsa,  $E=377 \cdot H$  bo'ladi. Elektromagnit to'lqinlarining tarqalishi maydonidagi energiyani ko'chirish bilan bog'langan.

Elektromagnit maydonidagi energiya oqimining zichligi vektori  $I$  ( $Vt/m^2$ ) (intensivligi), - "Umov-Poynting vektori" deb ataladi va quyidagicha ifodalanadi:

$$I = E \cdot H, \quad (4.3.2)$$

Elektromagnit maydoni nazariyasiga asosan o'zgamvchi elektr yoki magnit maydoni manba yaqinida ikki zonaga bo'linadi: yaqin zona yoki induksiya zonasini bo'lib, maydonlarini bir-birlariga bog'lanmagan deb hisoblash mumkin. Shuning

uchun bu zonadagi normalashtirish eletromagnit maydonining ham elektr, ham magnit maydonlari qo'shilmalari sifatida olib boriladi.

Nurlanish zonasida esa maydon harakatlanayotgan elektromagnit to'lqinini vujudga keltiradi va bu harakatlanayotgan to'lqinning muhim parametri to'lqin oqimining zichlik quvvati hisoblanadi. Bu zonadagi normalashtirish intensivlikka asosan olib boriladi va bu intensivlik nuqtasimon manbagacha bo'lgan masofa kvadratiga teskari proporsional bo'ladi.

$$R \leq \frac{\lambda}{2\pi} \cong \frac{\lambda}{6} \quad (4.3.3)$$

bu yerda:  $\lambda$  – to'lqin uzunligi bo'lib,  $\lambda = S/f$  – tenglamasiga asosan aniqlanadi, bunda,  $S$  – elektromagnit to'lqinlarining tarqalish tezligi (vakum yoki havo muhiti uchun yorug'lik tezligi);  $f$  – elektromagnit to'lqinlarining chastotasi va nurlanish zonasi bo'lib,  $R > \lambda/6$  masofalarda joylashgan bo'ladi.

$$I = \frac{P_M}{4\pi \cdot R}, \quad (4.3.4)$$

bu yerda:  $P_M$  – manbaning nurlanish quvvati. Agar bu manba yo'naltirilgan harakterga ega bo'lsa (antenna), unda:

$$I = \frac{P_M \cdot Q}{4\pi \cdot R^2}, \quad (4.3.5)$$

bu yerda:  $Q$  – antennaning kuchaytirish koefitsiyenti bo'lib, hisoblashlar yordamida aniqlanadi. Induktorlar, termik qurilmalarning kondensatoriati, generatorlarning ayrim qismlarini ulovchi filder liniyalari, transformatorlar, antennalar, to'lqin uzatgichlarning ochiq qismlari va o'ta yuqori chastota generatorlari elektromagnit to'lqinlarning manbalari sifatida qaralishi mumkin.

Bu manbalarda hosil bo'ladigan elektromagnit to'lqinlari radio chastotalarining tavsifi 3.3.1-jadvalda keltirilgan.

Elektromagnit maydonining inson organizmiga ta'siri elektr va magnit maydonlarining kuchlanishi, energiya oqimining intensivligi tebranish chastotasi, nurlanishning tananing ma'lum yuzasida to'planishi va inson organizmining shaxsiy xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. Elektromagnit maydonining inson organizmiga ta'sir ko'rsatishining asosiy sababi inson tanasi tarkibidagi atom va

molekulalar bu maydon ta'sirida musbat va manfiy qutblarga bo'linan boshlaydi. Qutblangan molekulalar elektromagnit maydoni tarqalayotgan yo'nalishga qarab harakatlana boshlaydi.

#### 4.3.1-jadval

**Elektromagnit to'lqinlari radiochastotalarining tavsifi**

| Diapazonlari /belgilanishlari/             | Chastotasi, Hz ( $f$ )           | To'lqin uzunligi, m ( $\lambda$ ) |
|--|----------------------------------|-----------------------------------|
| Uzun to'lqinlar /DV/                       | $3 \cdot 10^4 - 3 \cdot 10^5$    | 10000 – 1000                      |
| O'rtacha to'lqinlar /SV/                   | $3 \cdot 10^5 - 3 \cdot 10^6$    | 1000 – 100                        |
| Qisqa to'lqinlar /KV/                      | $3 \cdot 10^6 - 3 \cdot 10^8$    | 100 – 1,0                         |
| O'ltra qisqa to'lqinlar /UKV/              | $3 \cdot 10^8 - 3 \cdot 10^9$    | 1,0 – 0,1                         |
| O'ta yuqori chastotadagi to'lqinlar /SVCh/ | $3 \cdot 10^9 - 3 \cdot 10^{11}$ | 0,1 – 0,001                       |

Elektromagnit maydonlarni ta'siridan himoyalashning asosiy usullari va vositalariga quyidagilar taluqli:

1. Himoyalashning tashkiliy choralari.
2. Manbadan nurlanishning jadalligini kamaytirish.
3. Nurlanish manbaining ekranlashuvi.
4. Nurlanish manbaidan ishchi o'rinalarini ekranlashtirish va yoki holi qilish.
5. Signalizatsiya vositalarini qo'llash.
6. Individual himoya vositalarini qo'llash.

#### 4.3.3 Elektromagnit nurlanishlardan himoyalanishni hisoblashda dastlabki ma'lumotlar

*4.3-amaliy mashqning 1-sharti:*

Himoya ekranisiz ishlash uchun o'ta yuqori chastotali nurlanish manbasidan  $R_{min}$  xavfsiz masofasini aniqlang, agar:

#### 4.3.2-jadval

**Dastlabki ma'lumotlar**

| Parametr-lari  | Variantlar |     |     |     |     |     |     |     |     |     |     |     |     |     |     |
|--|------------|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|
|  | 1          | 2   | 3   | 4   | 5   | 6   | 7   | 8   | 9   | 10  | 11  | 12  | 13  | 14  | 15  |
| 16   | 17         | 18  | 19  | 20  | 21  | 22  | 23  | 24  | 25  | 26  | 27  | 28  | 29  | 30  |     |
| <i>P, nurlanish quvvati, Vt</i>                        | 5          | 10  | 15  | 20  | 25  | 30  | 35  | 40  | 45  | 50  | 55  | 60  | 65  | 70  | 75  |
| <i>T, nurlanish vaqtি, minut</i>                       | 10         | 15  | 20  | 25  | 30  | 35  | 5   | 10  | 15  | 20  | 25  | 30  | 35  | 5   | 30  |
| <i>G, skanerlash rejimida nurlanishning yo'nalishi</i> | 1000       | 800 | 700 | 600 | 500 | 400 | 300 | 200 | 100 | 150 | 250 | 350 | 400 | 450 | 550 |

#### 4.3-amaliy mashqning 2-sharti:

Agar nurlanish quvvati ( $P$ ), nurlanish yo'nalishi skanerlash rejimida ( $G$ ) bo'lsa, 8 soatlik ish kuni hisoblangan ishchini ish o'rnini o'ta yuqori chastota diapazonida ishlovchi radiolokatsion stansiyasi ( $RLS$ ) antennasidan qancha masofada ( $R_{min}$ ) joylashtirish kerak.

#### 4.3.3-jadval

Dastlabki ma'lumotlar

| Parametr-lari                                       | Dastlabki ma'lumotlar variantlari |     |     |     |     |     |     |     |     |     |     |     |     |     |      |
|---|-----------------------------------|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|------|
|   | 1                                 | 2   | 3   | 4   | 5   | 6   | 7   | 8   | 9   | 10  | 11  | 12  | 13  | 14  | 15   |
|   | 16                                | 17  | 18  | 19  | 20  | 21  | 22  | 23  | 24  | 25  | 26  | 27  | 28  | 29  | 30   |
| $P$ , nurlanish quvvati, $Vt$                       | 50                                | 100 | 150 | 200 | 300 | 250 | 350 | 450 | 400 | 500 | 550 | 100 | 150 | 200 | 300  |
| $T$ , nurlanish vaqt, minut                         | 5                                 | 50  | 12  | 10  | 15  | 60  | 20  | 30  | 25  | 28  | 35  | 38  | 40  | 45  | 90   |
| $G$ , skanerlash rejimida nurlanishni ng yo'nalishi | 250                               | 200 | 300 | 350 | 400 | 450 | 500 | 550 | 600 | 650 | 700 | 800 | 850 | 900 | 1000 |

#### 4.3.4 Hisoblash uchun uslubiy ko'rsatmalar

Yer stansiyasining xizmat ko'rsatuvchi xodimlari (foydalanuvchisi) uchun SanPIN 0295-11 ga muvofiq:

- energiya oqimining zichligi (EOZ) ruxsat etilgan maksimal qiymat  $P_{REQ} = 2 Vt \cdot soat/m^2$  dan oshmasligi kerak;
- tekistlikdagi energiy oqimining zichligi (TEOZ) ruxsat etilgan maksimal qiymat  $P_{REQ,max} = 10 Vt/m^2$  dan oshmasligi kerak;

Shu munosabat bilan, yer stantsiyasi antennasining elektromagnit nurlanishi (EMN) ta'sir ko'rsatadigan yer stantsiyasi hududda xodimlar (foydalanuvchi) o'tkazadigan vaqtning ruxsat etilgan maksimal qiymatini ko'rsatilishi kerak, buning uchun quyidagilarni hisoblash kerak:

- $P_{REQ,max}$  qiymatiga mos keladigan xavfsizlik zonası, ya’ni yer stantsiyasi antennasi ish rejimida bo’lganda ishlayotganda xodimlarning ruxsat etilgan minimal masofasi;
- yer stantsiyasi antennasining EMN tarqalishi zonasida xodimlarning bir sutka davomuda faoliyat olib borishi mumkin bo’lgan ruxsat etilgan vaqt chegaralari.

Bundan tashqari, yuqorida keltirilgan SanPIN turar-joy binolari hududida radiochastotalarning elektromagnit nurlanishining ( $RCh EMN$ ) intensivligini tartibga soladi, bu ruxsat etilgan  $P_{t.j.} = 0,1 \text{ Vt/m}^2$  maksimal qiymatidan oshmasligi kerak.

Yer stantsiyasi antennasining TEOZ qiymati ( $\text{Vt/m}^2$ ) qo’yidagi formula bilan aniqlash mumkin:

$$P_A = \frac{P \cdot G(\theta)}{4\pi \cdot R^2}, \quad (4.3.1)$$

bu yerda:  $P$  – radio uzatish qurilmasi quvvati,  $Vt$ ;  $G(\theta)$  – kuzatuv nuqtasi yo’nalishidagi antennani kuchaytirish koefitsiyenti qiymati;  $R$  – kuzatish nuqtasidan antennagacha bo’lgan masofa,  $m$ .

Energiy oqimining zichligi (TEOZ) ruxsat etilgan maksimal qiymati  $P_{REQ,max}=10 \text{ Vt/m}^2$  da ishlayotgan yer stantsiyasi antennasidan xodimlarni joylashuvining minimal ruxsat etilgan masofasi  $R_{min}$ :

$$R_{min} = \sqrt{\frac{P \cdot G(\theta)}{4\pi P_{REQ,max}}}, \quad (4.3.2)$$

Normaga muvofiq, yer stantsiyasi antennasining joylashuvi aholi turar-joylariga nisbatan minimal ruxsat etilgan masofasi  $R_{a.t.j.}$  qo’yidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$R_{a.t.j.} = \sqrt{\frac{P \cdot G(\theta)}{4\pi P_{t.j.}}}, \quad (4.3.3)$$

#### **4.3.5 Nazorat savollari**

1. Elektromagnit maydonlari va uning parametrlarini tushuntirib bering?
2. Elektromagnit maydonlarining yaqin va induksiya zonalarini tushuntirig?
3. Elektromagnit to’lqinlari radiochastolarining tavsifini aytинг?

4. Elektromagnit to'lqinlarining inson organizmiga ta'sirini ayting?
5. Elektromagnit maydonining me'yorlarini ayting?
6. Elektromagnit maydonlaridan oraliqni uzaytirish yo'li bilan muhofazalanish nima?
7. Elektromagnit maydonidan ekranlar o'rnatish orqali muhofazalanishni tushuntiring?
8. Elektromagnit nurlanishlarini o'lchash usullarini ayting?

#### **4.4. Ionlashtiruvchi nurlanishlardan himoyalanishni hisoblash**

##### **4.4.1 Mashg'ulotning maqsadi:**

Ionlashtiruvchi nurlanishning ta'siri, normasi va undan himoyalanish haqidagi asosiy ma'lumotlar bilan tanishish, tashkiliy-texnik tadbirlarni hisoblash, ishlab chiqarish korxonalaridagi xodimlarni va aholini ionlashtiruvch nurlanishlar ta'siridan himoya qilish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.


##### **4.4.2 Nazariy ma'lumotlar**

Ionlashgan nurlar inson organizmiga zararli ta'sir ko'rsatib, og'ir kasalliklarning kelib chiqishiga sababchi bo'lishi mumkin. Uning ta'sirida inson og'ir kasallik hisoblanadigan nur, oq qon kasalligi va har xil xavfli shishlar, teri kasalliklariga duchor bo'lishi mumkin. Shuningdek, ionlashgan nurlar ta'sirida genetik ta'sirlanish, ya'ni keyingi avlodlarga ham ta'sir ko'rsatuvchi nasliy kasalliklar kelib chiqishi mumkin.


**Radioaktivlik** – atom yadrolarining ion nurlanishlari chiqarishi natijasida boshqa bir atom yadrolarining hosil qilishidir.

Radioaktiv nurlanishlar ionlovchi nurlanishlar deb ataladi, chunki bu nurlar ta'sir etgan moddalar atom va molekulalarida ionlar hosil bo'ladi. Bunday ionlovchi nurlanishlarga rentgen nurlari, radio va gamma nurlari, alfa va beta nurlari, shuningdek, neyfron oqimlari kiradi.


**Alfa nurlari** – katta ionlashtirish kususiyatiga ega bo'lgan, harakat doirasi katta bo'limgan geliy atom yadrosining musbat zaryadlangan zarrachalari hisoblanadi. Harakat doirasi katta bo'limganligi sababli inson teri qavatigagina ta'sir qilib, terini yorib kira olmaydi, shuning uchun ham uncha zararli emas.




**Beta nurlari** – radioaktiv moddalarning atom yadrolari tarqatadigan elektron yoki pozitron oqimidir. Bu nurlarning harakat doirasi ancha keng va yorib kirish qobiliyatiga ega. Shu sababli ham inson uchun xavflidir.



**Gamma nurlari** – ionlash qobiliyati katta bo'lmasa-da, katta yorib kirish kuchiga ega bo'lib, yadro reaksiyalari va radioaktiv parchalanish natijasida vujudga keladigan yuqori chastotadagi elektromagnit nurlari hisoblanadi.



**Rentgen nurlari** – moddalarni elektron oqimlari bilan bombardimon qilganda ajralib chiqadigan elektromagnit nurlaridir.



Inson tanasi ionlashtiruvchi nurlanish energiyasini o'zlashtiradi va shikastlanish darjasini nurlanishning so'rilgan energiya miqdoriga bog'liq bo'ladi.

Ionlashtiruvchi nurlanishning so'rilgan energiyasini moddaning birlik massasi bilan tavsiflash uchun "Nurlanishlarning yutilgan dozasi" tushunchasi qo'llaniladi. Yutilgan doza - bu energiya miqdori, nurlangan modda tomonidan yutilgan va ushbu moddaning massa birligi hisoblanadi. Xalqaro SI birliklar tizimida yutilgan doza birligi grey (Gr) hisoblanadi ( $1 \text{ Gr} = 1 \text{ J/kg}$ ).

Yutilgan dozani hisoblash uchun tizimdan tashqari birlik ham qo'llaniladi - rad:  $1 \text{ rad} = 0,01 \text{ J/kg}$ ;  $1 \text{ Gr} = 100 \text{ rad}$ . Rad juda katta o'lchov birligidir va shuning uchun nurlanish dozalari odatda rad ulushlarida ifodalanadi - yuzdan bir (sentirada), mingdan bir (millirad) va milliondan bir (mikrorad).

Atrof-muhit, ish yoki yashash joylarida rentgen nurlari yoki gamma nurlanishlar ta'sirida yuzaga kelgan radiatsiyaviy vaziyatni baholash uchun ekspozitsion dozas qo'llaniladi. Organizmga uzatiladigan radioaktiv energiya miqdori ***ekspozitsion doza*** deyiladi. Rentgen va gamma nurlanishlarining ekspozitsion doza birligi sifatida kulon/kilogramm ( $\text{Kl}/\text{kg}$ ) qabul qilingan.

Rentgen va gamma nurlanishlarining ekspozitsion dozasi kulon/kilogramm shunday birlikki, u nurlanish bilan tutashgan 1 kg quruq atmosfera havosida 1  $\text{Kl}$  miqdordagi elektr zaryadlarining musbat va manfiy belgilari bo'lgan ionlarni vujudga keltiradi ( $1 \text{ R} = 2,58 \cdot 10^4 \text{ Kl/kg}$ ). Biroq, amalda, tizimdan tashqari birlik - rentgen ( $R$ ) tez-tez ishlataladi. 1 R yutilgan dozasi taxminan yutilgan  $D = 0,88 \text{ rad} = 0,9 \text{ Gr}$  dozaga to'g'ri keladi.

SI tizimida ekvivalent doza birligi zievert (Zv) hisoblanadi. Ionlashtiruvchi nurlanishning ekvivalent dozasining tizimda bo'limgan birligi ham mavjud - *ber* (rentgenning biologik ekvivalenti).  $1 \text{ Zv} = 100 \text{ ber}$ ;  $1 \text{ Zv} = 1 \text{ Gr}$  so'rilgan dozaga to'g'ri keladi.

Nurlanishning taxminiy turi rentgen va  $\gamma$  – nurlanishdan bir xil yutilgan dozada biologik jihatdan necha marta xavfliroq ekanligini ko'rsatadigan koeffitsiyent nurlanish *sifat koeffitsiyenti* ( $K$ ) deb ataladi. Rentgen va  $\gamma$  – nurlanish uchun  $K = 1$ .

Shunday qilib, ekvivalent doza yutilgan dozaning va nurlanish sifat koeffitsiyenti ko'paytmasi bilan aniqlanadi:  $1 \text{ rad} \cdot K = 1 \text{ ber}$ ;  $1 \text{ Gr} \cdot K = 1 \text{ Zv}$ .

Ionlashtiruvchi nurlanish shunday nurlanish deb ataladi, u muhitdan o'tib, uning ionlanishiga olib keladi. Ionlashtiruvchi nurlanish energiyasi tizimdan tashqari elektron volt (eV) birliklarida o'lchanadi:  $1 \text{ eV} = 1,6 \cdot 10^{-19} \text{ J} = 3,8 \cdot 10^{-20} \text{ kal}$ .

Insonga ionlashtiruvchi nurlanish ta'siri.

Ionlashtiruvchi nurlanishlar inson tanasining to'qimalariga kirib borib ular bilan o'zaro ta'sirlashadu va quyidagi ta'sir turlarini keltirib chiqaradi:

- molekulalarning ionlanishi (yuqori energiya tufayli elementar zarrachalarning o'zaro ta'sirida ajralib chiqadigan);
- fizik-kimyoviy o'zgarishlar, buning natijasida yangi molekulalar, shu jumladan "erkin radikallar" kabi o'ta radioaktiv molekulalar hosil bo'ladi;
- hujayraning normal ishlashi uchun zarur bo'lgan biologik muhim molekulalarning modifikatsiyasiga olib kelishi mumkin bo'lgan kimyoviy o'zgarishlar;
- hujayra o'limiga olib keladigan biologik ta'sirlar, ulardagi o'zgarishlar: genetik yoki saratonga olib keladi.

Ionlashtiruvchi nurlanishlar ta'sirida biologik to'qimalarda o'zgarishlarning intensivligi (ta'sir qilish darajasi) quyidagi omillar bilan belgilanadi:

- nurlanish manbasining quvvati;
- nurlanish turi;
- ta'sir qilish davomiyligii;
- organizmning individual xususiyatlari.

Bundan tashqari, organizmning turli to'qimalari turli xil radiosensitivlikka ega, ya'ni turli intensivlikdagi nurlanish bilan o'zaro ta'sir qiladi. Organlar va to'qimalarning radiosensitivligi radiatsiya xavfi koeffitsiyentlari  $K_r$  bilan baholanadi (4.4.1-jadval).

#### 4.4.1-jadval

Radiatsiyaviy xavf koeffitsiyentlari  $K_r$

| <i>Inson organlari</i> | $K_r$ |
|------------------------|-------|
| Qizil suyak iligi      | 0,12  |
| Suyak to'qimasi        | 0,03  |
| Qalqonsimon bez        | 0,03  |
| Sut bezlari            | 0,15  |
| O'pka                  | 0,12  |
| Tuxumdonlar            | 0,25  |
| Boshqa to'qimalar      | 0,30  |
| Butun tana             | 1,00  |

Nurlamishning insonga real ta'sirini baholash uchun ekvivalent doza ko'rsatkichi qo'llaniladi, bunda nurlanish turi bilan sifat koeffitsiyenti  $K_S$  hisobga olinadi (3.4.2-jadval).

Radioaktiv nurlanishlar kishi organizmining hammasiga birdan ta'sir ko'rsatmasdan, ba'zi bir a'zo va hujayralarini ko'proq zararlashi aniqlangan. Shuning uchun ham nurlanishning umumiy dozasi emas, balki organizmning qaysi qismida radioaktiv nurlanuvchi moddalar yig'ilganligi hisobga olinadi. Chunki bu yig'ilgan qismlardagi radioaktiv moddalar butun organizm falokatini ta'minlashi mumkin.

#### 4.4.2-jadval

Sifat koeffitsiyenti  $K_S$

| <i>Nurlanish turi</i>                           | <i>Sifat koeffitsiyenti <math>K_S</math></i> |
|---|--|
| Rentgen va $\gamma$ – nurlanish                 | 1  |
| $\beta$ – nurlanish, elektronlar va pozitronlar | 1  |
| 10 MeV gacha energiyaga ega protonlar           | 10   |
| 20 keV gacha energiyaga ega neytronlar          | 3  |
| 10 MeV dan ortiq energiyaga ega neytronlar      | 10   |
| 10 MeV gacha energiyali $\alpha$ – nurlanish    | 20   |
| Og'ir yadrolar                                  | 20   |

#### 4.4.3 Ionlashtiruvchi nurlanishlardan himoyalanishni hisoblashda dastlabki ma'lumotlar.

#### 4.4.3-jadval

Qo'rg'oshin ekranining qalinligi zaiflashuv omiliga va qo'rg'oshin uchun zaiflashuvchi nurlanish energiyasiga bog'liqligi

| So'nishni karraligi | Nurlanish energiyasi $meV$ da himoya qalinligi $hq$ |      |      |      |      |      |      |         |
|---------------------|---|------|------|------|------|------|------|---------|
|                     | 0,1   | 0,7  | 0,8  | 0,9  | 1,0  | 1,25 | 2,75 | 10 va < |
| 1,5                 | 0,05  | 0,4  | 0,6  | 0,7  | 0,85 | 0,95 | 1,28 | 0,9     |
| 2,0                 | 0,1   | 0,8  | 1,0  | 1,15 | 1,3  | 1,5  | 2,07 | 1,35    |
| 5,0                 | 0,2   | 1,9  | 2,2  | 2,5  | 2,8  | 3,4  | 4,54 | 3,0     |
| 10                  | 0,3   | 2,35 | 2,85 | 3,5  | 3,8  | 4,5  | 6,4  | 4,2     |
| 20                  | 0,3   | 3,25 | 3,85 | 4,4  | 4,9  | 5,8  | 8,1  | 5,6     |
| 30                  | 0,35  | 3,65 | 4,3  | 4,95 | 5,5  | 6,5  | 9,1  | 6,3     |
| 40                  | 0,4   | 3,7  | 4,5  | 5,2  | 5,8  | 6,85 | 9,8  | 6,8     |
| 50                  | 0,4   | 2,39 | 4,6  | 5,3  | 6,0  | 7,2  | 10,4 | 7,3     |
| 100                 | 0,5   | 4,7  | 5,5  | 6,3  | 7,0  | 8,4  | 12,0 | 8,7     |
| 200                 | 0,6   | 5,3  | 6,3  | 7,2  | 8,2  | 9,65 | 13,8 | 10,2    |
| 500                 | 0,65  | 6,1  | 7,2  | 8,2  | 9,2  | 11,3 | 15,9 | 11,9    |

|            |      |      |      |      |      |      |      |      |
|------------|------|------|------|------|------|------|------|------|
| 1 000      | 0,7  | 6,95 | 8,1  | 9,2  | 10,2 | 12,3 | 17,7 | 13,3 |
| 10 000     | 1,05 | 9,1  | 10,6 | 12,0 | 13,3 | 16,1 | 23,1 | 18,0 |
| 100 000    | 1,15 | 11,1 | 13,0 | 14,8 | 16,5 | 20,1 | 28,3 | 22,9 |
| 1 000 000  | 1,45 | 13,1 | 15,3 | 17,5 | 19,5 | 23,5 | 33,6 | 27,7 |
| 10 000 000 | 1,7  | 15,2 | 17,8 | 20,3 | 22,5 | 27,5 | 38,9 | 2,5  |

#### 4.4.4-jadval

#### Himoya ekranlari uchun materiallarning zichligi

| Material  | Zichlik, $kg/dm^3$ | Material    | Zichlik, $kg/dm^3$ |
|-----------|--------------------|-------------|--------------------|
| Alyuminiy | 2,7                | Temir       | 7,89               |
| Beton     | 2,1-2,7            | g'isht      | 1,4-1,9            |
| Suv       | 1,0                | Qo'rg'oshin | 11,34              |
| Havo      | 0,00129            | Chugun      | 7,2                |

#### 4.4.5-jadval

#### Hisoblashda uchun variant ma'lumotlari

| Nº<br>variant | Radionuklid                    | Nurlanish turi   | Ekspozitsion<br>doza quvvati,<br>$R/soat$ | Aktivlik,<br>mKi,<br>(millikyuri) | Oraliq<br>masofa, m | Ekran<br>materiali | Flyurens,<br>foton/ $sm^2$ |
|---------------|--------------------------------|------------------|---|-----------------------------------|---------------------|--------------------|----------------------------|
| 1             | 2                              | 3                | 4   | 5                                 | 6                   | 7                  | 8                          |
| 1             | Radiy (Radium),<br>Ra-226      | $\alpha, \gamma$ | 270                                       | 980                               | 0,35                | Beton              | $1 \cdot 10^7$             |
| 2             | Kobalt (Cobaltum),<br>Co-60    | $\beta, \gamma$  | 70  | 5,4                               | 0,8                 | Beton              | $1 \cdot 10^7$             |
| 3             | Kadmiy<br>(Cadmium), Cd-115    | $\beta, \gamma$  | 26  | 18                                | 0,25                | Temir              | $5 \cdot 10^7$             |
| 4             | Surma (Stibium),<br>Sb-125     | $\beta, \gamma$  | 35  | 25                                | 0,2                 | G'isht             | $8 \cdot 10^7$             |
| 5             | Tellur (Tellurium),<br>Te-129  | $\beta, \gamma$  | 50  | 32                                | 0,1                 | Chugun             | $20 \cdot 10^7$            |
| 6             | Stronsiy<br>(Strontium), Sr-90 | $\beta, \gamma$  | 30  | 10                                | 0,1                 | Alyumimiy          | $2 \cdot 10^7$             |
| 7             | Yod (Iodium), I-126            | $\beta, \gamma$  | 58  | 20                                | 0,2                 | Beton              | $1 \cdot 10^7$             |
| 8             | Skandiy<br>(Scandium), Sc-46   | $\beta, \gamma$  | 25  | 10                                | 0,3                 | Suv                | $5 \cdot 10^7$             |
| 9             | Kobalt (Cobaltum),<br>Co-60    | $\beta, \gamma$  | 50  | 20                                | 0,4                 | Havo               | $4 \cdot 10^7$             |
| 10            | Kadmiy<br>(Cadmium), Cd-115    | $\beta, \gamma$  | 15  | 20                                | 0,2                 | Temir              | $5 \cdot 10^7$             |
| 11            | Surma (Stibium),<br>Sb-125     | $\beta, \gamma$  | 24  | 20                                | 0,1                 | G'isht             | $8 \cdot 10^7$             |
| 12            | Tellur (Tellurium),<br>Te-129  | $\beta, \gamma$  | 20  | 20                                | 0,4                 | Chugun             | $20 \cdot 10^7$            |

| <i>I</i> | <i>2</i>                      | <i>3</i>                | <i>4</i> | <i>5</i> | <i>6</i> | <i>7</i>  | <i>8</i>        |
|----------|-------------------------------|-------------------------|----------|----------|----------|-----------|-----------------|
| 13       | Seziy (Caesium), Cs           | $\beta, \gamma$         | 36       | 50       | 0,3      | Alyumimiy | $3 \cdot 10^7$  |
| 14       | Iridiy (Iridium), Ir-192      | $\beta, \gamma$         | 45       | 100      | 0,1      | Beton     | $10 \cdot 10^7$ |
| 15       | Qo'rg'oshin (Plumbum), Pb-210 | $\alpha, \beta, \gamma$ | 55       | 200      | 0,5      | Suv       | $10 \cdot 10^7$ |
| 16       | Poloniy (Polonium), Po-210    | $\alpha, \gamma$        | 50       | 210      | 0,3      | Temir     | $10 \cdot 10^7$ |
| 17       | Radiy (Ra) - 228              | $\beta, \gamma$         | 240      | 1000     | 0,2      | Beton     | $1 \cdot 10^7$  |
| 18       | Toriy (Thorium) Th-230        | $\alpha, \gamma$        | 360      | 1500     | 0,4      | Chugun    | $10 \cdot 10^7$ |
| 19       | Uran (Uranium), U-238         | $\alpha, \gamma$        | 562      | 2300     | 0,5      | Temir     | $10 \cdot 10^7$ |
| 20       | Plutoniy (Plutonium), Pu-242  | $\alpha, \gamma$        | 38600    | 17000    | 0,2      | Chugun    | $10 \cdot 10^7$ |
| 21       | Uran (Uranium), U-238         | $\alpha, \gamma$        | 50       | 180      | 0,3      | Temir     | $10 \cdot 10^7$ |
| 22       | Tellur (Tellurium), Te-129    | $\beta, \gamma$         | 150      | 200      | 0,6      | Chugun    | $20 \cdot 10^7$ |
| 23       | Kobalt (Cobaltum), Co-60      | $\beta, \gamma$         | 120      | 70       | 0,5      | Havo      | $4 \cdot 10^7$  |
| 24       | Stronsiy (Strontium), Sr-90   | $\beta, \gamma$         | 70       | 30       | 0,4      | Alyumimiy | $2 \cdot 10^7$  |
| 25       | Yod (Iodum), I-126            | $\beta, \gamma$         | 90       | 50       | 0,5      | Beton     | $1 \cdot 10^7$  |
| 26       | Skandiy (Scandium), Sc-46     | $\beta, \gamma$         | 130      | 75       | 0,6      | Suv       | $5 \cdot 10^7$  |
| 27       | Iridiy (Iridium), Ir-192      | $\beta, \gamma$         | 30       | 110      | 0,4      | Beton     | $10 \cdot 10^7$ |
| 28       | Qo'rg'oshin (Plumbum), Pb-210 | $\alpha, \beta, \gamma$ | 65       | 180      | 0,45     | Suv       | $10 \cdot 10^7$ |
| 29       | Poloniy (Polonium), Po-210    | $\alpha, \gamma$        | 72       | 340      | 0,42     | Temir     | $10 \cdot 10^7$ |
| 30       | Radiy (Radium), Ra-226        | $\beta, \gamma$         | 175      | 1200     | 0,35     | Beton     | $1 \cdot 10^7$  |

#### 4.4.4 Hisoblash uchun uslubiy ko'rsatmalar.

Kerakli himoya choralarini hisoblash uchun nurlanish manbalarining quyidagi xarakteristikalari qo'llaniladi.

Berilgan izotopning *umumiy ionlanish gamma konstantasi* (yoki oddiy gamma konstantasi) boshlang'ich filrlashsiz  $1 \text{ sm}$  masofadagi  $1 \text{ mKi}$  faollikkagi  $\gamma$ -nurlanishning nuqta manbai tomonidan yaratilgan ta'sir qilish dozasining tezligi ( $P/\text{soat}$ ) sifatida aniqlanadi,  $P \cdot \text{sm}^2 / (\text{soat} \cdot \text{mKi})$ .

$$K_j = P \cdot \frac{R^2}{A}, \quad (4.4.1)$$

bunda  $P$  – ekspozitsion doza quvvati,  $P/\text{soat}$ ;  $R$  – masofa,  $R=1 \text{ sm}$ ;  $A$  – faollik,  $\text{mKi}$ .

**Gamma ekvivalenti.** Ionlashtiruvchi nurlanish manbasining gamma ekvivalenti radiyning ( $226Ra$ )  $mg$  dagi massasi bo'lib, u nuqta manbai shaklida ma'lum masofada ushbu manba bilan bir xil gamma nurlanishning ta'sir qilish dozasini hosil qiladi:

$$m_{\text{manba}} = K_j \cdot \frac{A}{8,4 \cdot R^2}, \quad (4.4.2)$$

bunda  $m_{\text{manba}}$  – manbaning gamma ekvivalenti,  $mg\text{-ekv. Ra}$ ;  $A$  – radionuklidning foalligi,  $\text{mKi}$ ;  $8,4$  – radiy etaloninig doza quvvati,  $P/(\text{soat} \cdot mg\text{-ekv. Ra})$ ;  $R$  – gamma ekvivalentini aniqlashdagi etalon masofasi ( $R=1 \text{ sm}$  qabul qilingan).

**$\gamma$  – kvantalarining energiyasi** ( $W_f$ ) nurlanish oqimining qiymatini ( $F$ ,  $\text{foton}/\text{sm}^2$ ) hisobga olgan holda baholanadi. Fluyuens – bu birlik maydon orqali (fotonlar) oqimi bo'lib, ma'lum bir ekvivalent dozani hosil qiladi ( $MeV$ ):

$$W_f = 10^8 \cdot D_{n(A,B)} \cdot K \cdot \frac{K_k}{F}, \quad (4.4.3)$$

bunda  $D_{o(A,B)}$  – A (B) xodimlar uchun dozaning ruxsat etilgan quvvati ( $Zv/yil$ );  $D_{n(A)} = 0,1 \text{ P/hafta}$ ;  $D_{n(B)} = 0,01 \text{ P/hafta}$ ;  $K_k$  – nurlanishning sifat koeffitsiyenti (4.4.2-jadval);  $K$  – susayish karraligi;  $F$  – fluyuens,  $\text{foton}/\text{sm}^2$  (4.4.5-jadvaldagi variantga qarang).

**Ruxsat etilgan vaqt.** Xodimlarning bevosita ishlashi uchun ruxsat etilgan vaqtiga  $t$  ( $\text{soat}/\text{hafta}$ ) qo'yidagi formula orqali aniqlanadi:

$$t = 10^4 \cdot D_{nA} \cdot \frac{r_{hm}^2}{m_{\text{manba}} \cdot 8,4}, \quad (4.4.4)$$

bunda  $D_{nA}$  – xodimlar uchun dozaning ruxsat etilgan quvvati,  $D_{n(A)} = 0,1 \text{ P/hafta}$ ;  $r_{hm}$  – ishchi va manba orasidagi haqiqiy masofa,  $m$  (4.4.5-jadvaldagi variantga qarang);  $m_{\text{manba}}$  – berilgan manbaning gamma ekvivalenti,  $mg\text{-ekv. Ra}$ .

Xodimlar to'liq ish haftasida ishlashi mumkin bo'lgan manbaning maksimal quvvati  $M_{manba}$  (*mg-ekv. Ra*):

$$M_{manba} = 10^4 \cdot D_{nA} \cdot \frac{r_{hm}^2}{8,4 \cdot t_{hafta}}, \quad (4.4.5)$$

bunda  $t_{hafta}$  - ish haftasining davomiyligi, *soat/hafta*,  $t_{hafta} = 40$  *soat/hafta*.

**Minimal ruxsat etilgan masofa  $r_{rem}$  (*m*).** Korxona hududidagi sanitariya - muhofaza zonasasi doirasida bo'lishi kerak bo'lgan minimal ruxsat etilgan masofa qo'yidagi formula orqali aniqlanadi:

$$r_{rem} = \sqrt{\frac{8,4 \cdot m_{manba} \cdot t_{hafta}}{10^4 \cdot D_{nB}}}, \quad (4.4.6)$$

bunda  $D_{nB}$  – B kategoriyadagi xodimlar uchun dozaning ruxsat etilgan quvvati,  $D_{nB} = 0,01$  *P/hafta*.

**Ekranning qalinligi  $h_e$ .** Berilgan materialdan tayyorlangan ekranning qalinligi qo'rg'oshindan tayyorlangan ekranning qalinligi  $h_{qo'r}$  orqali aniqlanadi, buning uchun ma'lum bir manbaning dozasi hisoblab chiqiladi  $D_{manba}$  (*P/hafta*):

$$D_{manba} = \frac{8,4 \cdot m_{manba} \cdot t_{hafta}}{10^4 \cdot r_{hm}^2}, \quad (4.4.7)$$

Keyin, qo'yidagi formuladan foydalanib nurlanishning susayishi zarur bo'lgan karraligi hisoblanadi:

$$K = \frac{D_{manba}}{D_{oA}}. \quad (4.4.8)$$

Zarur bo'lgan qo'rg'oshin ekranning qalinligi 4.4.3-jadvaldan  $h_{qo'r}$  nurlanishning susayish karraligi –  $K$  va  $\gamma$  – nurlanish energiyasi –  $W$  kattaliklari orqali olinadi. Yiliga 1700 soatlik ish davri uchun bir  $\gamma$  – kvant energiyasi 4.4.3-formula bilan hisoblanadi.

Agar himoya qilish uchun boshqa materiallardan tayyorlangan ekranlar ishlatilsa, unda bunday ekranning qalinligi  $h_e$  qo'yidagi formula bilan aniqlanadi:

$$h_e = h_{qo'r} \frac{\rho_{qo'r}}{\rho_e}, \quad (4.4.9)$$

bunda  $\rho_{qo'r}$  – qo'rg'oshin zichligi,  $kg/dm^3$ ;  $\rho_e$  – ekran materiali zichligi,  $kg/dm^3$ .

Qo'rg'oshin ekranolari uchun materiallarning zichligi 4.4.4-jadvalda keltirilgan.

Ishni bajarish tartibi.

1. Amaliy ishning nomini va maqsadini yozing, o'zingizning variantingiz bo'yicha ma'lumotlarni yozing. Vazifalar variantlari 4.4.5-jadvalda keltirilgan.
2. Asosiy nazariy qoidalarni aniqlang va qayd qiling.
3. Berilgan qiymatlar bo'yicha berilgan  $K_j$  izotopining gamma konstantasini 4.4.1-formula bo'yicha hisoblang (4.4.5-jadval, 4 va 5-ustunlarda keltirilgan).
4. Berilgan radionuklidning gamma ekvivalentini 4.4.2-formula bo'yicha hisoblang.
5. 4.4.4-formula bo'yicha xodimlarning manba bilan bevosita ishlashining ruxsat etilgan  $t$  vaqtini hisoblang.
6. 4.4.5-formula bo'yicha xodimlarning to'liq ish haftasida ishlashi mumkin bo'lgan manbaning maksimal quvvatini  $M_{ist}$  hisoblang.
7. 4.4.6-formula bo'yicha odamlarning korxona hududidagi sanitariya zonasini doirasidagi bo'lishi kerak bo'lgan minimal ruxsat etilgan masofani  $r_{dop}$  hisoblang.
8. 4.4.7-formuladan foydalanib, berilgan manbaning doza quvvatini  $D_{ist}$  hisoblang.
9. 4.4.8-formuladan foydalanib, nurlanishning susayishining karraligini hisoblang.
10. Yiliga 1700 soatlik ish davri uchun bir  $\gamma$  - kvant energiyasi 4.4.3-formula bilan hisoblang.
11. Zarur bo'lgan qo'rg'oshin ekranining qalinligi 4.4.3-jadvaldan  $h_{qo'r}$  nurlanishning susayish karraligi –  $K$  va  $\gamma$  – nurlanish energiyasi –  $W$  kattaliklari orqali aniqlang.
12. 4.4.5-jadval variantida ko'rsatilgan materialdan himoya ekranning qalinligini 4.4.9-formula bo'yicha hisoblang.
13. Hisoblash natijalarini 4.4.6-jadval shaklida joylashtiring. Xulosa qilish uchun: ionlashgan nurlanishlardan himoya vositalarini tanlash va ulardan foydalanish samaradorligini asoslang.

## Natijalar jadvali

| Ko'rsatkichlar | Kattaliklar | O'lchamlari                    | Hisoblash formulalari |
|----------------|-------------|--------------------------------|-----------------------|
| $K_j$          |             | $R \cdot sm^2 / (ch \cdot mK)$ | 8.1                   |
| $m_{manba}$    |             | $mg\text{-ekv. Ra}$            | 8.2                   |
| $t$            |             | $soat/hafta$                   | 8.4                   |
| $M_{manba}$    |             | $mg\text{-ekv. Ra}$            | 8.5                   |
| $r_{go'sh}$    |             | $m$                            | 8.6                   |
| $D_{manba}$    |             | $P/hafta$                      | 8.7                   |
| $K$            |             | -                              | 8.8                   |
| $W_F$          |             | $MeV$                          | 8.3                   |
| $h_{go'r}$     |             | $sm$                           | 8.3 – jadval          |
| $h_e$          |             | $sm$                           | 8.9                   |

**4.4.5 Nazorat savollari**

1. Nurlanish me'yorlari, nurlanuvchilar kategoriyalari va insonning nurlanishga xavfli organlari qaysilar?
2. Nurlanishlarning yutilgan dozasi, ekspozitsion doza va ekvivalent dozalar haqida ma'lumotlar keltiring?
3. Ionlashgan nurlanishning moddalar bilan o'zaro ta'sirini qanday izohlash mumkin?
4. Ionlashgan nurlanishlardan himoya vositalarini tanlash va ulardan foydalanish samaradorligi
5. Ionlashtiruvchi nurlanish manbalarining barcha turlaridan aholining alohida guruhlari tomonidan olingan individual va kollektiv nurlanish dozalarini tahlil qilish.
6. Nurlanishning individual dozalarini nazorat qilish uchun metrologik, texnik hamda axborot talablariga rioya etilishini ta'minlash va monitoring qilish.
7. Ionlashtiruvchi nurlanish manbalarini ta'sir etganda, uning individual (shaxsiy) dozalari.
8. Tabiiy nurlanish va texnologik jihatdan o'zgartirilgan radiatsiya fonidagi individual nurlanish dozalari.
9. Texnogen ionlashtiruvchi nurlanish manbalarining me'yoriy ishslash jarayonida personallarning nurlanishi;

10. Tashkilot ishchilari va aholini tabiiy ionlashtiruvchi nurlanish manbalaridan nurlanishi;

11. Tibbiy rentgenoradiologik muolajalarda aholining nurlanishi.

#### **4.5. Ishlab chiqarish korxonalarida radiatsiyalangan hududni o'rganish, radiatsiya dozasini aniqlash va himoya materialining qalinligini hisoblash**

##### **4.5.1 Mashg'ulotning maqsadi:**

Ishlab chiqarish korxonalarida radiatsiyalangan hududni o'rganish, nurlanish tarqalishining ekvivalent dozasini hamda ishlab chiqarish korxonasi binosida ishlayotgan xodimlar oladigan radiatsiya dozasini aniqlash va himoya materialining qalinligini hisoblashdan iborat.

##### **4.5.2 Nazariy ma'lumotlar**

Asosiy tushunchalar:

*radiatsiyaviy xavfsizlik* – fuqarolar va atrof muhitning ionlashtiruvchi nurlanishning zararli ta'siridan muhofazalanganlik holati;

*radiatsiyaviy avariya* – uskuna nosozligi, xodimlar (personal)ning xattiharakatlari (harakatsizligi), tabiiy va texnogen xususiyatlari favqulodda vaziyatlar tufayli kelib chiqqan, fuqarolarning belgilangan normalardan ko'proq nurlanish olishiga yoki atrof muhitning radioaktiv ifloslanishiga olib kelishi mumkin bo'lgan yoxud olib kelgan ionlashtiruvchi nurlanish manbai ustidan boshqaruvning izdan chiqishi.

Radioaktiv moddalar ma'lum xususiy xossalarga ega bo'lib, inson organizmiga ta'sir qilishi natijasida xavfli vaziyat vujudga kelishi mumkin.

Radioaktiv moddalarning eng havfli tomoni shundaki, uning ta'sirini inson organizmidagi sezish organlariga sezilmaydi. Ya'ni inson radioaktiv nurlar ta'sirida uzoq vaqt ishlashiga qaramasdan, ularning zararli ta'sirlarini mutlaqo sezmasligi mumkin. Buning natijasi esa ayanchli tugaydi. Shuning uchun ham radioaktiy imoddalar bilan ishlaganda, ayniqsa, o'ta ehtiyyotkor bo'lish kerak.

Inson organizmining radioaktiv nurlanishi ichki va tashqi bo'lishi mumkin. Tashqi, tomondan nurlanish ma'lum tashqi nurla-nuvchi manba ta'sirida kechganligi sababli, tarqalayotgan nurlarning kirib borish kuchi katta ahamiyatga ega. Kirib borish kuchi yuqori bo'lgan nurlarning organizmga zarari ham kuchliroq bo'ladi.

Ichki nurlanish nur tarqatuvchi moddalar inson organizmining ichki tizimlariga, masalan, yemirilgan teri qatlamlari orqali qonga, nafas olish a'zolari, o'pkaga va shilimshiq moddalarga, ovqat hazm qilish a'zolariga tushib qolgan taqdirda ro'y beradi. Bunda nurlanish nur tarqatuvchi modda qancha vaqt nurlanasa yoki qancha vaqt, davomida organizmda saqlansa, shuncha.yaqt davom etadi. Shuning uchun ham radioaktiv moddalarning katta parchalanish davriga va kuchli nurlanishga ega bo'lganda, ayniqsa, xavfli hisoblanadi.

Radioaktiv nurlanislarning biologik ta'siri organizmdagi atom va molekulalarning ionlanishi sifatida tavsiflanadi va bu o'z navbatida har xil kimyoviy birikmalar tarkiblarining o'zgarishiga va normal molekulyar birikmalarda uzilishlar bo'lishiga olib keladi. Bu o'z navbatida tirik hujayralardagi modda almashinuvining buzilishiga va organizmda biokimyoviy jarayonlarning ishdan chiqishiga sabab bo'ladi. Katta kuchdagi nurlanish ta'siri uzoq vaqt davom etsa, ba'zi bir hujayralarning halokati kuzatiladi va bu ayrim a'zolarning, hattoki, butun organizmning halokati bilan tugaydi.

Radioaktiv izotoplar bilan ish bajariladigan sanoat korxonalarida, bu korxonalarda to'g'ridan - to'g'ri shu izotoplar bilan ishlayotganlardan tashqari, qo'shni xonalarda boshqa ishlar bilan shug'ullanayotganlar, shuningdek, sanoat korxonasi joylashgan zonada yashovchilar ham birmuncha radioaktiv nurlanishlar ta'siriga tushib qolishlarini hisobga olish kerak. Ishchilarni va boshqa ishlar bilan radioaktiv zonalarda shug'ullanayotgan va yashayotgan shaxslarning xavfsizligini ta'minlashning asosiy vositalari: xavfsiz oraliq masofalari bilan ta'minlash, nurlanish vaqtini kamaytirish, umumiyligi muhofaza vositalari va shaxsiy himoya vositalaridan foydalanishdir. Bunda, radioaktiv nurlanishlar miqdorini o'lchash asboblaridan foydalanib nurlanish dozasini bilish muhim ahamiyatga ega.

Ishchilaming ichki rnurlanishlarini kamaytirish uchun radioaktiv moddalarni ochiq holatda ishlatishga yo'l qo'ymaslik, odam ichki a'zolariga, xonadagi havo jnuhitiga tushib qolmasligini ta'minlash, shuningdek, radioaktiv moddalar bilan qo'l, kiyim va xonadagi jihozlar yuzasini zararlanishdan saqlash kerak.

Ochiq holda ishlatilganda ichdan nurlantirish xavfi bo'lgan radioaktiv moddalar besh guruhga bo'linadi:

- A** – nihoyatda yuqori nurlanish aktivligiga ega bo'lgan izotoplar;
- B** – yuqori nurlanish aktivligiga ega bo'lgan izotoplar;
- D** – o'rtacha nurlanish aktivligiga ega bo'lgan izotoplar;
- E** – kichik nurlanish aktivligiga ega bo'lgan izotoplar;
- F** – nurianish aktivligi juda kam bo'lgan izotoplar.

Radioaktiv moddalar bilan ochiq holda ishlaganda ularning zararli nurlanish aktivligiga qarab uch sinfga bo'linadi. Zararli nurlanish aktivligi bo'yicha III sinfga mansub moddalar bilan kimyo laboratoriylarida ishlash mumkin. I va II sinf moddalar bilan esa maxsus jihozlanganva ma'lum sanitariya-gigiena va texnik talabga javob beradigan xonalarda ish olib borish tavsiya etiladi. III sinf moddalarni ishlatganda ba'zi bir yengil operatsiyalarni ish stolida, asosan, maxsus shamollatiladigan shkaflarda bajariladi. I va II sinf radioaktiv moddalar bilan ishlash asosan shamollatiladigan shkaflarda yoki maxsus bokslarda amalga oshiriladi.

#### **4.5.3 Dastlabki ma'lumotlar.**

*4.5-amaliy mashqning 1-sharti:*

Laboratoriya binosida xodimlar yadro portlagan vaqtidan boshlab  $t_b$  soatdan keyin ishlay boshlashlari kerak.  $t_k$  soatdan keyin laboratoriya binosi joylashgan hududda ekvivalent nurlanish dozasi  $N_H$  Zv/soatni tashkil etdi. Kuniga nurlanishning belgilangan dozasi ( $N_{BD}$ ), 0,2 Zv ga teng bo'lishi kerak. Laboratoriya xodimlarining  $T_{dav}$  ishlashi mumkin bo'lgan davomiyligini aniqlang.

#### 4.5.1-jadval

Dastlabki ma'lumotlar

| Parametr-lari      | Variantlar |     |     |     |     |     |     |     |     |     |     |     |     |     |     |
|--------------------|------------|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|
|                    | 1          | 2   | 3   | 4   | 5   | 6   | 7   | 8   | 9   | 10  | 11  | 12  | 13  | 14  | 15  |
| 16                 | 17         | 18  | 19  | 20  | 21  | 22  | 23  | 24  | 25  | 26  | 27  | 28  | 29  | 30  |     |
| $t_b$ , soat       | 6          | 5   | 4   | 6   | 5   | 6   | 4   | 6   | 5   | 4   | 6   | 5   | 4   | 6   | 5   |
| $t_k$ , soat       | 4          | 2   | 3   | 3   | 4   | 4   | 2   | 3   | 3   | 4   | 4   | 2   | 3   | 3   | 4   |
| $N_{Ht}$ , Zv/soat | 0.4        | 0.3 | 0.4 | 0.3 | 0.4 | 0.3 | 0.4 | 0.3 | 0.4 | 0.3 | 0.4 | 0.3 | 0.4 | 0.3 | 0.4 |

#### 4.5-amaliy mashqning 2-shart:

Yadroviy portlashdan  $t_b$  soat keyin sanoat korxonasi binolarining birida xodimlar  $t_k$  soatgacha ishlay boshladilar. Yadroviy portlashdan 3 soat o'tgach, korxona hududida radiatsiya dozasi  $N_H$ , Zv/soat ga teng bo'ldi ( $t_b$ ,  $t_k$  va  $N_H$  10.2-jadvaldan olinadi). Sanoat korxonasi binosida ishlayotgan xodimlar oladigan radiatsiya  $D$  dozasini aniqlang.

#### 4.5.2-jadval

Dastlabki ma'lumotlar

| Parametr-lari   | Variantlar |     |     |     |     |     |     |     |     |     |     |     |     |     |     |
|-----------------|------------|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|
|                 | 1          | 2   | 3   | 4   | 5   | 6   | 7   | 8   | 9   | 10  | 11  | 12  | 13  | 14  | 15  |
| 16              | 17         | 18  | 19  | 20  | 21  | 22  | 23  | 24  | 25  | 26  | 27  | 28  | 29  | 30  |     |
| $t_b$ , soat    | 5          | 6   | 7   | 8   | 9   | 10  | 11  | 5   | 6   | 7   | 8   | 9   | 10  | 11  | 12  |
| $t_k$ , soat    | 8          | 9   | 10  | 11  | 12  | 13  | 14  | 10  | 12  | 14  | 16  | 18  | 20  | 22  | 24  |
| $N_H$ , Zv/soat | 0,2        | 0,3 | 0,4 | 0,5 | 0,6 | 0,7 | 0,8 | 0,3 | 0,4 | 0,5 | 0,6 | 0,7 | 0,8 | 0,2 | 0,6 |

#### 4.5-amaliy mashqning 3-sharti:

Shaxsiy kompyuterning monitor va tizim blokidagi statik zaryadlarni zararsizlantirish uchun  $\beta$  – manba ishlatiladi. Havodagi  $\beta$  – zarralarning chiziqli harakatini hisoblang va agar  $\beta$  – zarralar energiyasi  $E_\beta$  va zichligi  $\rho$  bo'lgan himoya materiali ma'lum bo'lsa, himoya materialining qalinligini aniqlang.

## Dastlabki ma'lumotlar

| Parametr-lari  | Variantlar |           |           |         |         |         |           |                     |         |           |           |          |          |          |           |
|----------------|------------|-----------|-----------|---------|---------|---------|-----------|---------------------|---------|-----------|-----------|----------|----------|----------|-----------|
|                | 1<br>16    | 2<br>17   | 3<br>18   | 4<br>19 | 5<br>20 | 6<br>21 | 7<br>22   | 8<br>23             | 9<br>24 | 10<br>25  | 11<br>26  | 12<br>27 | 13<br>28 | 14<br>29 | 15<br>30  |
| Material       | Temir      | Alyuminiy | Orgsteklo | Mis     | Nikel   | Titan   | Mis-nikel | Zanglamas po'latdan | Temir   | Alyuminiy | Orgsteklo | Mis      | Nikel    | Titan    | Mis-nikel |
| $\rho, g/sm^3$ | 7,88       | 2,7       | 1,18      | 8,96    | 8,9     | 4,5     | 9,02      | 8,10                | 7,88    | 2,7       | 1,18      | 8,96     | 8,9      | 4,5      | 9,02      |
| $E_b, MeB$     | 1,7        | 2,2       | 3,0       | 2,5     | 1,8     | 2,1     | 3,1       | 2,6                 | 1,5     | 2,8       | 2,3       | 3,4      | 3,1      | 3,8      | 3,3       |

## 4.5.4 Hisoblash uchun uslubiy ko'rsatmalar

4.5-amaliy mashqning 1-sharti bo'yicha hisoblash uchun uslubiy ko'rsatmalar.

Qo'yidagi formuladan foydalanib laboratoriya hududida portlashdan  $t_b$  soat keyin  $t_k$  soatgacha ishslash vaqt orqali  $N_H$  nurlanish tarqalishining ekvivalent dozasini  $N_H$  ni toping, buning uchun 4.5.4-jadvaldan  $K_D$  radiatsiya darajasi hisoblangan koeffitsiyentlarini oling, Zv/soat:

$$N_H = N_{Ht} \cdot K_D, \quad (4.5.1)$$

bu yerda  $K_D$  – radiatsiya darajasi hisoblangan koeffitsiyenti, 4.5.4-jadvaldan olinadi.

## 4.5.4-jadval

Portlashdan keyin turli vaqlarda o'lchangan radiatsiya darajasining portlashdan keyin  $t_k$  soat davomida radiatsiya darajasi hisoblangan koeffitsiyentlari

| Portlashdan keyingi vaqt, $t_k$ , soat | $K_D$ | Portlashdan keyingi vaqt, $t_k$ , soat | $K_D$ | Portlashdan keyingi vaqt, $t_k$ , soat | $K_D$  |
|--|-------|--|-------|--|--------|
| 0,5                                    | 0,43  | 3,0                                    | 3,74  | 12,0                                   | 19,72  |
| 1,0                                    | 1,00  | 4,0                                    | 5,28  | 24,0                                   | 45,31  |
| 1,5                                    | 1,63  | 5,0                                    | 6,90  | 48,0                                   | 104,10 |
| 2,0                                    | 2,30  | 6,0                                    | 8,59  | 72,0                                   | 169,30 |
| 2,5                                    | 3,00  | 7,0                                    | 10,33 | 96,0                                   | 239,20 |

4.5.5-jadvalga muvofiq, himoya vositalari bilan  $K_s$  radiatsiya dozasini susaytirish koeffitsiyentining o'rtacha qiymatini oling (variant bo'yicha olinadi).

## 4.5.5-jadval

Himoya vositalari bilan  $K_s$  radiatsiya dozasini susaytirish  
koeffitsiyentlarining o'rtacha qiymatlari

| <b>Variantlar</b> | <b>Boshpana va himoya vositalari.</b>            | <b><math>K_s</math></b> |
|-------------------|--|-------------------------|
| 1, 16             | Avtomobillar, avtobuslar, tramvaylar             | 2                       |
| 2, 17             | Yo'lovchi vagonlari                              | 2, 3                    |
| 3, 18             | Boshpanalar                                      | 1000 va undan yuqori    |
| 4, 19             | Bir qavatli ishlab chiqarish binolari            | 7                       |
| 5, 20             | Ishlab chiqarish va ma'muriy binolar (3 qavatli) | 6                       |
| 6, 21             | Bir qavatli yog'och uylar                        | 2-3                     |
| 7, 22             | Bir qavatli yog'och uylarning podvallari         | 7                       |
| 8, 23             | Ikki qavatli yog'och uylar                       | 8                       |
| 9, 24             | Ikki qavatli yog'och uylarning podvallari        | 12                      |
| 10, 25            | Turar-joy bir qavatli tosh uylar                 | 10                      |
| 11, 26            | Bir qavatli tosh uylarning podvallari            | 40                      |
| 12, 27            | Ikki qavatli tosh uylarning podvallari           | 100                     |
| 13, 28            | Ikki qavatli tosh uylar                          | 15-20                   |
| 14, 29            | Ko'p qavatli uylar                               | 70                      |
| 15, 30            | Turar-joy bir qavatli loy g'ishtli uylar         | 7-8                     |

Insonlar ifloslangan hududda bo'lganida olingen radiatsiya dozalarini aniqlash uchun  $a$  koeffitsiyenti qo'llaniladi, u quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$a = \frac{N_H}{N_{BD} \cdot K_S}, \quad (4.5.2)$$

bu yerda  $N_{BD}$  – belgilangan nurlanish dozasi (0,2 Zv ga teng).

Laboratoriya xodimlarning radiatsiyalanishinig boshlanishi vaqtini ( $t_b$ ) va 4.5.6-jadvaldan  $a$  ning qiymatini topilgan bilib, laboratoriya binosida ishslashning ruxsat etilgan davomiyligiga mos keladigan  $T_{dav}$  qiymatini toping.

#### 4.5.6-jadval

Insonlarning radiatsiyadan zararlangan hududda bo'lishi vaqtida olingen radiatsiya dozalarini aniqlash uchun  $a$  koeffitsiyentining qiymatlari.

| Portlashdan<br>keyin<br>nurlanishning<br>boshlanishi, soat | Zararlangan hududda qolish muddati, soat |      |      |      |      |      |      |      |      |      |
|--|--|------|------|------|------|------|------|------|------|------|
|  | 0,5                                      | 1    | 2    | 3    | 4    | 6    | 8    | 12   | 24   | 48   |
| 0,5  | 1,5                                      | 0,85 | 0,62 | 0,55 | 0,48 | 0,43 | 0,8  | 0,35 | 0,31 | 0,3  |
| 1  | 2,5                                      | 1,5  | 1    | 0,82 | 0,72 | 0,61 | 0,55 | 0,5  | 0,41 | 0,4  |
| 2  | 5,2                                      | 3    | 1,7  | 1,3  | 1,2  | 0,92 | 0,82 | 0,7  | 0,58 | 0,5  |
| 3  | 8  | 4,5  | 2,6  | 1,3  | 1,5  | 1,3  | 1,2  | 0,9  | 0,7  | 0,6  |
| 4  | 11                                       | 6    | 3,3  | 2,3  | 2    | 1,5  | 1,3  | 1,2  | 0,8  | 0,65 |

|    |     |     |     |     |     |     |     |     |     |      |
|----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|------|
| 5  | 14  | 7,5 | 4   | 3,6 | 2,4 | 1,8 | 1,5 | 1,3 | 0,9 | 0,72 |
| 6  | 17  | 9   | 5   | 3,5 | 2,8 | 2,1 | 1,7 | 1,5 | 1   | 0,8  |
| 7  | 20  | 11  | 6   | 4,2 | 3,2 | 2,5 | 2   | 1,6 | 1,2 | 0,85 |
| 8  | 22  | 12  | 6,7 | 4,8 | 3,8 | 2,8 | 2,2 | 1,7 | 1,3 | 0,9  |
| 9  | 25  | 14  | 7,7 | 5,5 | 4,2 | 3,1 | 2,4 | 1,8 | 1,4 | 0,98 |
| 10 | 30  | 15  | 8,7 | 6,2 | 5   | 3,5 | 2,7 | 2   | 1,5 | 1,0  |
| 12 | 33  | 17  | 10  | 7,2 | 5,8 | 4   | 3,2 | 2,5 | 1,6 | 1,2  |
| 18 | 50  | 32  | 17  | 12  | 9   | 6,8 | 5   | 3,7 | 2,2 | 1,5  |
| 24 | 75  | 45  | 22  | 16  | 12  | 9   | 6,8 | 5   | 3   | 1,7  |
| 36 | 120 | 70  | 35  | 25  | 18  | 15  | 10  | 7   | 4   | 2,3  |
| 48 | 160 | 95  | 48  | 36  | 27  | 20  | 15  | 10  | 5,8 | 3,0  |
| 72 | 215 | 145 | 75  | 57  | 43  | 31  | 23  | 15  | 8,4 | 4,2  |

Yuqoridagi hisob-kitob natijalariga ko'ra hulosa yozing.

*4.5-amaliy mashqning 2-sharti bo'yicha hisoblash uchun uslubiy ko'rsatmalar.*

Variantimizdan foydalanib, 4.5.4-jadvaldan portlashdan keyin turli vaqtarda o'lchangan radiatsiya darajasining portlashdan keyin  $t_k$  soat davomida radiatsiya darajasi  $K_D$  koeffitsiyenti, hamda 4.5.6-jadvaldan insonlarning radiatsiyadan zararlangan hududda bo'lishi vaqtida olingan radiatsiya dozalarini aniqlash uchun  $a$  koeffitsiyenti qiymatini toping va 4.5.1-formulani hisoblang. 4.5.2-jadvaldan foydalanib, variant bo'yicha himoya vositalari bilan  $K_s$  radiatsiya dozasini susaytirish koeffitsiyentlarining o'rtacha qiymati olinadi.

Korxona xodimlari oladigan nurlanish dozasini quyidagi formula bo'yicha aniqlang:

$$D = \frac{N_H}{a \cdot K_S}, \quad (4.5.3)$$

Takroriy nurlanishda radiatsyaning qoldiq dozasi  $D_s$  hisobga olinadi (4.5.7-jadval), ya'ni oldin olingan umumiy radiatsiya dozasining bir qismi, ammo bu vaqtga qadar inson organizmi tomonidan tiklanmagan.

Inson tanasi radiatsiyaviy zararni 90% gacha tiklashga qodir va radiatsiyani birinchi ta'sir kuni boshlanganidan 4 kundan keyin tiklanish jarayoni boshlanadi. Qabul qilingan dozaning yarmi taxminan 28-30 kun ichida tiklanadi.

### Radiatsiyaning qoldiq dozasi

| Nurlanishdan<br>keyingi vaqt,<br><i>haftalar</i> | 1  | 2  | 3  | 4  | 5  | 6  | 7  | 8  | 9  | 10 | 11 | 12 | 13 | 14 |
|--|----|----|----|----|----|----|----|----|----|----|----|----|----|----|
| Radiatsiyaning<br>qoldiq dozasi,<br>%            | 90 | 75 | 60 | 50 | 42 | 35 | 30 | 25 | 30 | 17 | 15 | 13 | 11 | 10 |

*4.5-amaliy mashqning 3-sharti bo'yicha hisoblash uchun uslubiy ko'rsatmalar.*

Havodagi  $\beta$  – zarrachalarning chiziqli harakati quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$R_{havo} = 400 \cdot E_\beta, \quad (4.5.4)$$

bu yerda  $E_\beta$  – zarrachalarning maksimal energiyasi.

Himoya ekranining qalinligi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$d = 0,54 \cdot E_\beta - 0,16, \quad (4.5.5)$$

bu yerda  $d$  – himoya qalinligi,  $g/sm^2$ .

Agar  $1 sm^2$  ga massa birliklarida ifodalangan himoya materialining qalinligi ma'lum bo'lsa, u holda uzunlik birliklarida ifodalangan himoya materialining qalinligi bog'liqlik bo'yicha hisoblanadi.

$$d_c = \frac{d}{\rho}, \quad (4.5.6)$$

bu yerda  $\rho$  – himoya materiali zichligi,  $g/sm^3$ .

Yuqoridagi hisob-kitob natijalariga ko'ra qancha qalinlikdagi himoya materiali kompyuter operatorining xavfsiz ishlashini ta'minlaydi? Hulosa yozing.

### 4.5.5 Nazorat savollari

1. Radioaktiv moddalar bilan ishlayotgan ishchilarni nurlanishdan muhofaza qilishning qanday usullaridan foydalilanadi?
2. Ochiq holda ishlatilganda ichdan nurlantirish xavfi bo'lgan radioaktiv moddalar necha guruhg'a bo'linadi?
3. Nurlanishning yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan doza nima?

4. Radioaktiv nurlanishlarning biologik ta'siri qanday baholanadi?
5. Radioaktiv moddalarning eng havfli tomonlarina sanab bering?
6. Radioaktiv moddalarning xavfli xususiyati nimalardan iborat?
7. Yadro va radiatsion xavfsizlikni ta'minlashning asosiy tamoyillari nimalardan iborat?
8. Ishlab chiqarish korxonalarida radioaktiv moddalar va radioaktiv chiqindilarni hisobga olish va nazorat qilishning asosiy qoidalari.
9. Radiatsiyaviy xavfsizlikning asosiy sanitariya qoidalari nimalardan iborat?
10. Radiatsion vaziyat va uni tavsif lovchi taxdid va xavf-xatarlarni shakllantirishning asosiy manbalari.
11. Radiatsiyaviy avariya natijasida xodimlar va aholining nurlanishi.

#### **4.6. Teleradio uzatish stantsiyalardan tarqaladigan elektromagnit nurlanishni hisoblash**

##### **4.6.1 Mashg'ulotning maqsadi:**

- radiochastota diapazonining elektromagnit nurlanishining inson organizmiga ta'sirini o'rganish;
- teleradio uzatish antennalari tomonidan hosil qilgan elektromagnit nurlanishni hisoblash.

##### **4.6.2 Nazariy ma'lumotlar**

Asosiy tushunchalar<sup>5</sup>:

radiochastotalar (radioto'lqinlar) – belgilar, signallarni, yozma matnni, tasvirlar va tovushlarni uzatish yoki qabul qilish maqsadida fazoda sun'iy to'lqin o'tkazgichsiz tarqatiladigan, shartli ravishda uch ming gigagersdan kamroq qilib qabul qilingan chastotali elektromagnit to'lqinlar;

radiochastota spektri – shartli ravishda uch ming gigagersdan kamroq qilib qabul qilingan oraliqdagi radiochastotalar to'plami;

---

<sup>5</sup> Ўзбекистон Республикасининг қонуни “Радиочастота спектри түғрисида”. Тошкент ш., 1998 йил 25 декабрь, 725-и-сон.

radioelektron vositalar – radioto'lqinlarni tarqatish va (yoki) qabul qilish uchun mo'ljallangan texnik qurilmalar yoki tizimlar;

yuqori chastotali qurilmalar – radiochastotalar energiyasini sanoat, ilmiy, tibbiy, maishiy yoki boshqa maqsadlarda hosil qilish va undan foydalanish uchun mo'ljallangan uskunalar yoki asboblar, ulardan radioto'lqinlarni tarqatish yoki qabul qilish maqsadida foydalanish bundan mustasno;

radiochastotalar polosasi – radiochastota spektrining muayyan sharoitlarda radioelektron vositalar eki yoqori chastotali qurilmalardan foydalanish uchun mo'ljallangan qismi;

elektromagnit moslashuv – radioelektron vositalarning ularga radioxalaqitlar ta'sir etib turgan bir vaqtning o'zida mavjud ishlatish sharoitlarida talab darajasidagi sifat bilan ishlay olish qobiliyati.

Elektromagnit nurlanishning (EMN) asosiy xususiyatlari quyidagilardir:

- chastota, Hz;

Radioto'lqinlar chastotaga qarab qo'yidagi (4.6.1-jadval) diapazonlarga bo'linadi:

4.6.1-jadval  
Radioto'lqinlarning chastota diapazonlari

| Chastota spektrining diapazoni raqami | Metrik nomlanishi | To'lqin uzunligi | Chastota diapazoni | Chastota diapazonining nomi | Chastota diapazonining qisqartma nomi |
|---------------------------------------|-------------------|------------------|--------------------|-----------------------------|---------------------------------------|
| 4                                     | Miriametr         | 100...10 km      | 3...30 kHz         | O'ta uzun to'lqin           | O'UT                                  |
| 5                                     | Kilometr          | 10...1 km        | 30...300 kHz       | Uzun to'lqin                | UT                                    |
| 6                                     | Gektometr         | 1...0,1 km       | 300...3000 kHz     | O'rta to'lqin               | O'T                                   |
| 7                                     | Dekametr          | 100...10 m       | 3...30 MHz         | Qisqa to'lqin               | QT                                    |
| 8                                     | Metr              | 10...1 m         | 30...300 MHz       | Metrli to'lqin              | MT                                    |
| 9                                     | Detsimetrr        | 1...0,1 m        | 300...3000 MHz     | Detsimetrlili to'lqin       | DT                                    |
| 10                                    | Santimetr         | 1...10 sm        | 3...30 GHz         | Santimetrlili to'lqin       | ST                                    |
| 11                                    | Millimeter        | 1...10 mm        | 30...300 GHz       | Millimeterli to'lqin        | MMT                                   |
| 12                                    | Detsimillimetrr   | 0,1...1 mm       | 300...3000 GHz     | Detsimillimetrlili to'lqin  | DMMT                                  |

- elektr maydonining kuchlanganligi,  $E$ ,  $V/m$ ;
- magnit maydonining kuchlanganligi,  $H$ ,  $A/m$ ;
- energiya oqimining zichligi  $W$ ,  $Vt/m^2$ .

Radiochastotali diapazonninig elektromagnit nurlanishini aholiga ta'sir qilishini baholash quyidagicha o'tkaziladi<sup>6</sup>:

- 3-300 MHz chastotali diapazonda –  $E$ ,  $V/m$  elektr maydoni kuchlanishini samarali belgilari bo'yicha;
- 300 MHz - 300 GHz chastotali diapazonda –  $W$ ,  $mkVt/sm^2$  energiya oqimi zichligini o'rtacha belgilari bo'yicha.

Aholi yashaydigan binolarni, jamoat binolarini va uy-joy qurilish hududlarida radiotexnik ob'ektni antenna-machtalni inshootlaridan hosil bo'lган radiochastotali elektromagnit nurlanishini darajalari quyida keltirilgan ruxsat etilgan chegaralardan oshishi kerak emas:

- 30 MHz gacha bo'lган chastotali diapazonda – 1  $V/m$ ;
- 30 MHz chastotali diapazonda – 300 MHz – 3  $V/m$ ;
- 300 MHz chastotali diapazonda – 300 GHz – 2,5  $mkVt/sm^2$ .

Bazaviy stansiyalarini quvvat va kuch bilan ishlaydigan uskunalaridan hosil bo'ladigan (50 Hz) ga ega sanoat chastotali elektr maydonini kuchlanish darajasi 0,5  $kV/m$  dan oshmasligi kerak.

Energiya oqimi zichligi belgisi  $16,6\text{ }mkVt/sm^2$  ga oshib ketsa tashqi chegara bo'yicha qa'tiy tartibdagi ostki hududlarni (podzona) hisoblash o'tkaziladi va ushbu hudud chegarasiga insonlarni tushib qolishini bartaraf qilish uchun to'siq o'rnatiladi, shuningdek ushbu to'siqlarga «KXST. Signalli ranglar, xavsizlik belgilari va signal ishorasi» 12.4.026-2015 sonli Davlat standartiga mos keluvchi «Elektromagnit nurlanish!» degan ogohlantiruvchi belgilarni joylashtirish kerak.

300 MGs dan ortiq chastotada ishlaydigan radiotexnik ob'ektni antenna-machtalini va radiotexnik ob'ekt bloklarini turar joy binolari va barcha tipdagi

<sup>6</sup> Аҳоли яшайдиган пунктларда радиотехник объектларни жойлаштириш ва ишлатишни санитар коидалари ва мөъёллари. СанҚвам № 0370-19. Расмий нашр. Тошкент-2019й.

yotoqxonalarni, umumiy-ijtimoiy binolar tomlarida joylashtirishda energiya oqimi zichligini ushbu sanab o'tilgan va atrofdagi binolar tomlarida ruxsat etilgan darajasi  $10 \text{ mkVt/sm}$  ga teng deb olinishi mumkin. Bunda sharoitlarga rioya qilish kerak, ya'ni radiotexnik ob'ekt o'rnatiladigan bino xonalarida atrofdagi turar joy va jamoat binolari xonalarida hamda turar joy qurilishlari hududlarida energiya oqimi zichligi  $2,5 \text{ mkVt/sm}^2$  deb o'rnatilgan belgilardan oshmaydi.

300 kHz-300 MHz chastotali diapazonda yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xatoligi 30% dan ziyod bo'limgan, energiya oqimi zichligini o'rtacha qiymatini aniqlash uchun mo'ljallangan izotrop datchikli asboblar ishlatilishi kerak. Elektr maydon kuchlanishini keyinchalik energiya oqimi zichligini qayta hisoblab chiqish bilan o'rtacha kvadrat qiymatini aniqlash uchun mo'ljallangan o'lchov vositalaridan foydalanishga ruxsat beriladi. Selektiv asbob bilan uzoqda joylashgan hududda o'lchanganda elektr maydonini kuchlanish qiymati quyida keltirilgan formula bo'yicha energiya oqimi zichligi ga qayta hisoblab chiqiladi:

$$W = E \cdot 2/3.77, \text{ mkVt/sm}^2, \quad (4.6.1)$$

bu yerda  $E$  - elektr maydonini kuchlanganlik qiymati,  $V/m$ .

Elektromagnit nurlanish darajalarini yaqin hududlarda qabul qilib oladigan tomonga yo'naltirilgan antennalar bilan selektiv va keng bo'shliqli asboblarda elektr maydon ( $E$ ) kuchlanishi o'lchanganda o'lchovchi antennani aniq yo'nalishiga muvofiq yo'l bilan radiotaxnik ob'ektni har bir antennasini 3 ta tashkil qilingan vektori ( $Ex$ ,  $Ey$ ,  $Ez$ ), aniqlanadi. Maydon kuchlanishini vektor modul qiymati quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$E = \sqrt{E_x^2 + E_y^2 + E_z^2}, \quad (4.6.2)$$

Elektromagnit nurlanish darajalarini yaqin hududlarda qabul qilib oladigan tomonga yo'naltirilmagan antennalar bilan keng bo'shliqli asboblarda maydon kuchlanishini darhol vektor moduli aniqlanadi, shuning uchun o'lchov asbobi indikatorini maksimal ko'rsatkichiga mos keladigan maksimum qabul qiladigan o'lchovchi antennani aniq yo'nalishini o'tkazish yetarli bo'ladi.

#### 4.6.1-jadval

Televizion stantsiyalar tomonidan tarqalayotgan elektromagnit nurlanishning  
ruxsat etilgan maksimal darajalari

| Chastota, MHz | Ruxsat etilgan maksimal daraja, v/m |
|---------------|-------------------------------------|
| 30-60         | 4                                   |
| 60-120        | 5                                   |
| 120-240       | 3                                   |
| 240-300       | 2,5                                 |

Bir vaqtning o'zida bir nechta manbalardan nurlanish tarqalayotgan vaqtida ular uchun turli ruxsat etilgan maksimal daraja o'rnatilgan bo'lsa, quyidagi shartga amal qilinishi kerak:

$$a = \sum_{i=1}^n \left( \frac{E_i}{RED_i} \right)^2 \leq I, \quad (4.6.3)$$

bu yerda  $E_i$  –  $i$ -manba hosil qilgan elektr maydonini kuchlanganlik qiymati, V/m;  $RED_i$  –  $i$ -manba uchun ruxsat etilgan daraja, V/m.

Aholini QT diapazonidagi kuchli televizion va radiostansiyalarning (100 kW dan ortiq) elektromagnit nurlanishidan himoya qilish uchun ular aholi punktlaridan tashqarida, turar-joy binolaridan uzoqda joylashgan bo'lishi kerak.

Teleradiostansiyalar atrofida sanitariya-himoya zonalari yaratiladi, ularning o'lchamlari aholi punktlarida elektromagnit nurlanishning maksimal ruxsat etilgan darajasini ta'minlashi kerak (4.6.2-jadval).

#### 4.6.2-jadval

Sanitariya-himoya zonalari


| Uzatish qurilmalarining umumiy quvvati, kWt | Sanitariya-himoya zonalari, m |
|---|-------------------------------|
| 10 gacha                                    | texnik hudud doirasida        |
| 10-75                                       | 200-300                       |
| 75-160                                      | 400-500                       |
| 160 dan katta                               | 500-1000                      |

Sanitariya zonasi uzatish qurilmasining kuchiga qarab qat'iy rejim zonasi (50-100 m) va faoliyat olib borish cheklangan zonaga bo'linadi. Qattiq rejim

zonasida faqat uzatish stantsiyasining xodimlari va cheklangan vaqt oralig'ida faoliyat olib boorishiga ruxsat beriladi.

Cheklangan hududda fuqarolar 8 soatdan kam bo'lishi mumkin bo'lgan ob'ektlarda (garajlar, kommunal xonalar va boshqalar) faoliyat olib borish mumkin.

Hisoblash nuqtasida elektrtomagnit maydonining kuchlanganligini aniqlash (4.6.1-rasm).



4.6.1-rasm. Hisoblash nuqtasida elektrtomagnit maydonining kuchlanganligini aniqlash

Hisoblash nuqtasida elektrtomagnit maydonning elektr kuchlanganligi qo'yidagi formula bilan aniqlanadi:

$$W = \bar{E} \cdot \bar{H} = \frac{E^2}{377} = \frac{P \cdot \varphi}{4\pi \cdot R^2}, \quad (4.6.4)$$

$$E = \sqrt{\frac{30 \cdot P \cdot \varphi}{h^2 + x^2}}, \quad (4.6.5)$$

bu yerda:  $P$  – manba quvvati,  $Vt$ ;  $\varphi$  – antennaning yo'naltirilganlik koeffitsienti, rad;  $R$  – antennadan hisoblash nuqtasigacha bo'lgan masofa, m.

Antennaning yo'naltirilganlik koeffitsienti 4.6.6-formula orqali aniqlanadi:

$$\varphi = \operatorname{arctg} \frac{x}{h}, \quad (4.6.6)$$

bu yerda:  $h$  – antenna balandligi,  $m$ ;  $x$  – antenna asosidan hisoblash nuqtasigacha bo'lgan masofa,  $m$ .

Turar-joy binosidagi elektromagnit maydon kuchlanganligi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$E^* = k \cdot E, \quad (4.6.7)$$

bu yerda:  $k$  – bino devorlarining elektromagnit maydon kuchlanganligini susaytirishi, g'isht devorlar uchun  $k=1$ , panel devorlar uchun  $k=0,2$ .

### 4.6.3 Dastlabki ma'lumotlar.

Teleradio uzatish antennalari tomonidan hosil qilgan elektromagnit nurlanish kuchlanganligini oldindan belgilangan variantga muvofiq (4.6.3-jadval) hisoblang. 4.6.3-jadvalda teleradio uzatish antennalarining antenna balandligi –  $h$ , chastotalari –  $f$  va quvvati –  $P$  ko'rsatilgan.

4.6.3-jadval

Variant ma'lumotlari

| №<br>variant | Antenna<br>balandligi,<br>$h$ | 1-kanal   |           | 2-kanal   |           | 3-kanal   |           |
|--------------|-------------------------------|-----------|-----------|-----------|-----------|-----------|-----------|
|              |                               | $f_b, Hz$ | $P_b, Vt$ | $f_b, Hz$ | $P_b, Vt$ | $f_b, Hz$ | $P_b, Vt$ |
| 1            | 300                           | 31        | 1100      | 61        | 3100      | 121       | 6100      |
| 2            | 290                           | 32        | 1200      | 62        | 3200      | 122       | 6200      |
| 3            | 280                           | 33        | 1300      | 63        | 3300      | 123       | 6300      |
| 4            | 270                           | 34        | 1400      | 64        | 3400      | 124       | 6400      |
| 5            | 260                           | 35        | 1500      | 65        | 3500      | 125       | 6500      |
| 6            | 250                           | 36        | 1600      | 66        | 3600      | 126       | 6600      |
| 7            | 240                           | 37        | 1700      | 67        | 3700      | 127       | 6700      |
| 8            | 230                           | 38        | 1800      | 68        | 3800      | 128       | 6800      |
| 9            | 220                           | 39        | 1900      | 69        | 3900      | 129       | 6900      |
| 10           | 210                           | 40        | 100       | 70        | 4000      | 130       | 7000      |
| 11           | 200                           | 41        | 1100      | 71        | 4100      | 131       | 7100      |
| 12           | 190                           | 42        | 1200      | 72        | 4200      | 132       | 7200      |
| 13           | 180                           | 43        | 1300      | 73        | 4300      | 133       | 7300      |
| 14           | 170                           | 44        | 1400      | 74        | 4400      | 134       | 7400      |
| 15           | 160                           | 45        | 1500      | 75        | 4500      | 135       | 7500      |
| 16           | 150                           | 46        | 1600      | 76        | 4600      | 136       | 7600      |
| 17           | 140                           | 47        | 1700      | 77        | 4700      | 137       | 7700      |
| 18           | 130                           | 48        | 1800      | 78        | 4800      | 138       | 7800      |
| 19           | 120                           | 49        | 1900      | 79        | 4900      | 139       | 7900      |
| 20           | 110                           | 50        | 2000      | 80        | 5000      | 140       | 8000      |
| 21           | 100                           | 51        | 2100      | 81        | 5100      | 141       | 8100      |

| <i>I</i> | <i>2</i> | <i>3</i> | <i>4</i> | <i>5</i> | <i>6</i> | <i>7</i> | <i>8</i> |
|----------|----------|----------|----------|----------|----------|----------|----------|
| 22       | 90       | 52       | 2200     | 82       | 5200     | 142      | 8200     |
| 23       | 80       | 53       | 2300     | 83       | 5300     | 143      | 8300     |
| 24       | 90       | 54       | 2400     | 84       | 5400     | 144      | 8400     |
| 25       | 100      | 55       | 2500     | 85       | 5500     | 145      | 8500     |
| 26       | 110      | 59       | 2600     | 86       | 5300     | 146      | 8600     |
| 27       | 120      | 57       | 2700     | 87       | 5700     | 147      | 8700     |
| 28       | 130      | 58       | 2800     | 88       | 5800     | 148      | 8800     |
| 29       | 140      | 59       | 2900     | 89       | 5900     | 149      | 8900     |
| 30       | 150      | 59,5     | 3000     | 90       | 6000     | 150      | 9000     |

#### 4.6.4 Hisoblash uchun uslubiy ko'rsatmalar.

Metodik ko'rsatmalarni diqqat bilan o'r ganib chiqing va topshiriqqa muvofiq hisob-kitoblarni bajaring.

Teleradio markazidan uzoqlashish oraliqlarida ( $x$ , metr) teleradio uzatish antennalari tomonidan hosil qilgan elektromagnit nurlanish kuchlanganligini hisoblang. ( $x=0, x=50, x=100, x=150, x=200, x=250, x=300$ ).  $\alpha=f(x)$  grafigini tuzing.

Qancha masofada maxsimal ruxsat etilgan qiymatgacha elektr kuchlanganligining pasayishini aniqlang (4.6.1-jadval).

4.6.2-jadval orqali sanitariya-himoya zonalarini aniqlang va sanitariya-himoya zonasiga chegarasida joylashgan turar-joy binosi ichidagi elektr maydonining kuchlanganligini aniqlab, maxsimal ruxsat etilgan daraja bilan taqqoslang.

Misol uchun: 0-variant uchun hisoblaymiz.

Variant ma'lumotnomalari

| №_0_-variant | Antenna balandligi, <i>h</i> | 1-kanal                  |                          | 2-kanal                  |                          | 3-kanal                  |                          |
|--------------|------------------------------|--------------------------|--------------------------|--------------------------|--------------------------|--------------------------|--------------------------|
|              |                              | <i>f<sub>1</sub>, Hz</i> | <i>P<sub>1</sub>, Vt</i> | <i>f<sub>2</sub>, Hz</i> | <i>P<sub>2</sub>, Vt</i> | <i>f<sub>3</sub>, Hz</i> | <i>P<sub>3</sub>, Vt</i> |
| 0            | 300                          | 31                       | 1100                     | 61                       | 3100                     | 121                      | 6100                     |

Bu yerda: *h* – antenna balandligi, *m*; *f<sub>i</sub>* – chastota, Hz; *P<sub>i</sub>* – uzatish qurilmasi quvvati, *Vt*.

Har bir kanal uchun maxsimal ruxsat etilgan darajani 4.6.1-jadval asosida aniqlab va 4.6.4-jadvalni to'ldiramiz.

4.6.5-formula bo'yicha hisob-kitob nuqtalarida elektr kuchlanganliklarini aniqlaymiz va hisoblash natijalari 4.6.4-jadvalda qayd etiladi. 4.6.4-jadval asosida

$\alpha=f(x)$  grafigi hosil qilinadi.

$$x=0 \text{ uchun } E_1 = \sqrt{\frac{30 \cdot P_1 \cdot \operatorname{arctg} \frac{x}{h}}{h^2 + x^2}} = 0, \quad E_2 = 0, \quad E_3 = 0.$$

$$x=50 \text{ uchun } E_1 = \sqrt{\frac{30 \cdot P_1 \cdot \operatorname{arctg} \frac{x}{h}}{h^2 + x^2}} = \sqrt{\frac{30 \cdot 5000 \cdot \operatorname{arctg} \frac{50}{100}}{50^2 + 100^2}} = 2,35 \text{ V/m.}$$

$$E_2 = \sqrt{\frac{30 \cdot P_2 \cdot \operatorname{arctg} \frac{x}{h}}{h^2 + x^2}} = \sqrt{\frac{30 \cdot 10000 \cdot \operatorname{arctg} \frac{50}{100}}{50^2 + 100^2}} = 3,32 \text{ V/m.}$$

$$E_3 = \sqrt{\frac{30 \cdot P_3 \cdot \operatorname{arctg} \frac{x}{h}}{h^2 + x^2}} = \sqrt{\frac{30 \cdot 2500 \cdot \operatorname{arctg} \frac{50}{100}}{50^2 + 100^2}} = 1,66 \text{ V/m.}$$

$x$  ning qolgan  $x=100, x=150, x=200, x=250, x=300$  qiymatlari uchun ham huddi shunday hisoblanadi.

4.6.3-formula orqali  $\alpha_{x_i} = \left( \frac{E_1}{RED_1} \right)^2 + \left( \frac{E_2}{RED_2} \right)^2 + \left( \frac{E_3}{RED_3} \right)^2$   $x$  ni har biri

uchun hisoblab chiqiladi va 3.6.4-jadvalda qayd etiladi.


$$\alpha_{x_0} = \left( \frac{E_1}{RED_1} \right)^2 + \left( \frac{E_2}{RED_2} \right)^2 + \left( \frac{E_3}{RED_3} \right)^2 = 0.$$

$$\alpha_{x_{50}} = \left( \frac{2,35}{4} \right)^2 + \left( \frac{3,32}{4} \right)^2 + \left( \frac{1,66}{3} \right)^2 = 0,36.$$

Shu ketma-ketlikda  $\alpha_{x_{50}}, \alpha_{x_{100}}, \alpha_{x_{150}}, \dots, \alpha_{x_{300}}$  hisoblab chiqiladi va 4.6.4-jadvalda qayd etiladi.

#### Hisoblash natijalari

| $x$     | $\operatorname{arctg}(x/h)$ | $E_1$ | $E_2$ | $E_3$ | $\alpha$ |
|---------|-----------------------------|-------|-------|-------|----------|
| 0       | 0                           | 0     | 0     | 0     | 0        |
| 50      | 0,464                       | 2,35  | 3,32  | 1,66  | 1,34     |
| 100     | 0,785                       | 2,42  | 3,43  | 1,72  | 1,43     |
| 150     | 0,983                       | 2,13  | 3,02  | 1,51  | 1,11     |
| 200     | 1,101                       | 1,82  | 2,58  | 1,29  | 0,808    |
| 250     | 1,190                       | 1,57  | 2,21  | 1,11  | 0,596,   |
| 300     | 1,249                       | 1,37  | 1,94  | 0,97  | 0,456    |
| $RED_i$ | -                           | 4     | 4     | 3     | 1        |



4.6.2-rasm.  $\alpha=f(x)$  bog'liqlik grafigi.

Uzatish qurilmalarining umumiy quvvati:

$$P_{\Sigma} = P_1 + P_2 + P_3 = 5000 + 10000 + 2500 = 17500 \text{ Vt} = 17,5 \text{ kVt}.$$

Uzatish qurilmalarining umumiy quvvatini bilgan holda 4.6.2-jadvaldan sanitariya-himoya zonasini aniqlaymiz. Bizning variant bo'yicha  $P_{\Sigma} = 17,5 \text{ kVt}$  da sanitariya-himoya zonasi – 200 m ga teng.

Sanitariya-himoya zonasi  $x=200 \text{ m}$  ga teng bo'lgan holatda g'isht devorlar uchun  $k=1$ , panel devorlar uchun  $k=0,2$  bo'lsa 4.6.7-formuladan foydalananib turarjoy binosidagi elektromagnit maydon kuchlanganligini topamiz:

$$E^*_{g' isht devor E_{1,2,3}} = k \cdot E_{1,2,3}, \text{ bunda } k=1.$$

$$E^*_{g' isht dev. E_1} = k \cdot E_1 = 1 \cdot 1,82 = 1,82,$$

$$E^*_{g' isht dev. E_2} = k \cdot E_2 = 1 \cdot 2,85 = 2,85,$$

$$E^*_{g' isht dev. r E_3} = k \cdot E_3 = 1 \cdot 1,29 = 1,29,$$

$$E^*_{panel devor E_{1,2,3}} = k \cdot E_{1,2,3}, \text{ bunda } k=0,2.$$

$$E^*_{panel devor E_1} = k \cdot E_1 = 0,2 \cdot 1,82 = 0,364,$$

$$E^*_{panel devor E_2} = k \cdot E_2 = 0,2 \cdot 2,85 = 0,516,$$

$$E^*_{panel devor E_3} = k \cdot E_3 = 0,2 \cdot 1,29 = 0,285,$$

$$\alpha_{x_{200}} = \left( \frac{E_1}{RED_1} \right)^2 + \left( \frac{E_2}{RED_2} \right)^2 + \left( \frac{E_3}{RED_3} \right)^2 = \left( \frac{0,364}{4} \right)^2 + \left( \frac{0,516}{4} \right)^2 + \left( \frac{0,258}{3} \right)^2 = 0,032..$$

Yuqoridagi hisoblangan qiymatlarni 4.6.5-jadvalga qayd qilamiz.

#### 4.6.5-jadval

##### Elektromagnit maydon kuchlanganligi

|                                  | $E_1$ | $E_2$ | $E_3$ | $\alpha$ |
|----------------------------------|-------|-------|-------|----------|
| $X=200$                          | 1,82  | 2,58  | 1,29  | 0,808    |
| <i>G'ishtli turar-joy binosi</i> | 1,82  | 2,58  | 1,29  | 0,808    |
| <i>Panelli turar-joy binosi</i>  | 0,364 | 0,516 | 0,258 | 0,032    |
| <i>RED</i>                       | 4     | 4     | 3     | 1        |

Sanitariya zonasasi chegarasida elektromagnit nurlanish g'isht va panel uylarida ruxsat etilgan qiymatdan oshmaydi.

#### 4.6.5 Nazorat savollari

1. Radioto'lqinlarning chastota diapazonlarini chastota diapazonlari bo'yicha bo'linishini tushuntirib bering.
2. Radiochastotali diapazon elektromagnit nurlanishini aholiga ta'sir qilishini baholash qanday amalga oshiriladi?
3. Elektromagnit nurlanishning asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?
4. Aholi yashaydigan binolarni, jamoat binolarini va uy-joy qurilish hududlarida radiotexnik ob'ektni antenna-machtali inshootlaridan hosil bo'lgan radiochastotali elektromagnit nurlanishini darajalari qanday hisoblanadi?
5. Radioelektron vositalarga qanday qurilmalar kiradi?
6. Yuqori chastotali qurilmalar qanday qurilmalar kiradi?
7. Radiochastotalar polosasi deb nimaga aytildi?
8. Elektromagnit moslashuv deb nimaga aytildi?
9. Sanitariya-himoya zonasasi nima?
10. Elektromagnit nurlanish kuchlanganligi qanday hisoblanadi?
11. Turar-joy binosidagi elektromagnit maydon kuchlanganligi qanday hisoblanadi?
12. Hisoblash nuqtasida elektromagnit maydonning elektr kuchlanganligi

qanday hisoblanadi?

13. Chastota diapazonlarida elektromagnit nurlanishining inson organizmiga ta'siri?

14. Nima sababdan teleradiostansiyalar atrofida sanitariya-himoya zonalari yaratiladi?

15. Teleradiostansiyalar antennalari tomonidan hosil qilgan elektromagnit nurlanishni hisoblash ketma-ketligini tushuntirib bering.

#### **4.7. 1000 v gacha bo'lgan kuchlanishli o'zgaruvchan tokning bir fazali va uch fazali elektr tarmoqlarida elektr toki urishi xavfini hisoblash**

##### **4.7.1 Mashg'ulotning maqsadi:**

1000 V gacha kuchlanishli o'zgaruvchan tokning bir fazali va uch fazali elektr tarmoqlarida elektr toki urishi xavfini tahlil qilish va hisoblash. Ushbu shikastlanishdan himoya qilishning texnik usullarini o'rganish.

##### **4.7.2 Nazariy ma'lumotlar**

Asosiy tushunchalar qo'llaniladi<sup>7</sup>:

*elektr qurilmasi* – elektr energiyasini ishlab chiqarish, transformatsiya qilish, uzatish, taqsimlash hamda uni energiyaning boshqa turiga aylantirish uchun mo'ljallangan mashinalar, apparatlar, elektr uzatish liniyalari va yordamchi uskunalar yig'indisi (ular o'rnatilgan inshootlar va binolar bilan birgalikda);

*elektr himoya vositalari* – elektr qurilmalarida ishlayotgan odamlarni elektr tokidan jarohatlanishdan, elektr yoy va elektromagnit maydoni ta'siridan himoya qilish uchun xizmat qiladigan, holda o'zi bilan va transportda olib yuriladigan vositalar;

*buzilmagan elektr maydonining kuchlanganligi* – ish jarayonida odam bo'lishi mumkin bo'lgan zonada aniqlanadigan, odamning qatnashishida buzilmaydigan elektr maydonining kuchlanganligi;

---

<sup>7</sup> "Elektr qurilmalarini ekspluatatsiya qilishda xavfsizlik texnikasi qoidalarini tasdiqlash to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining QARORI. Toshkent sh., 2020-yil 9-oktabr, 638-son.

*ishlab turgan elektr qurilma* – kuchlanish ostida bo‘lgan yoki kommutatsiya apparatlarini ulash bilan kuchlanish berilishi mumkin bo‘lgan elektr qurilmasi yoki uning qismi;

*kuchlanish ostidagi ish* – kuchlanish ostida bo‘lgan tok o‘tkazuvchi qismlarga tegib bajariladigan yoki ushbu tok o‘tkazuvchi qismlarga ruxsat etilganidan kam masofaga yaqinlashib bajariladigan ishlar;

*tok o‘tkazmaydigan qism* – ishning avariya rejimlarida kuchlanish ostida bo‘lib qolishi mumkin bo‘lgan elektr qurilmaning qismi, masalan, elektr mashina korpusi;

*tok o‘tkazuvchi qism* – elektr qurilmaning normal holatda kuchlanish ostida bo‘ladigan qismi;

*elektr maydonining ta’sir zonasi* – elektr maydonining kuchlanganligi 5 kV/m dan ortiq bo‘lgan ochiq fazo;

*elektr uzatish kabel liniyasi* – bir yoki bir necha kabellardan tashkil topgan, bevosita yerga, kabel kanallariga, quvurlariga va kabel konstruksiyalariga yotqizilgan elektr uzatish liniyasi;

*elektr uzatish havo liniyasi* – ochiq havoda joylashgan, izolyator va armaturalar yordamida tayanchlarga yoki muhandislik inshootlari (ko‘priklar, ko‘prik yo‘llari va hokazolar) kronshteynlariga hamda ustunlariga mahkamlangan simlar orqali elektr energiyasini uzatish uchun tuzilma.

Sanoatda elektr energiyasidan keng qo’lamda foydalanish yo’lga qo’ylganligi sababli elektr toki tasirida ro’y berisi mumkin bo‘lgan bahtsiz xodisalar va ulardan saqlanish muhim masalalar qatoriga kirib bormoqda. Elektr toki tasirining eng xavfli tomoni shundaki, bu xavfni oldinroq sezish imkoniyati yoq. Shuning uchun ham elektr toki xavfiga qarshi tashkiliy va texnik chora-tadbirlar belgilas, to’siq vositalari bilan taminlash, shaxsiy va jamoa muhofaza tizimlarini o’rnatish nihoyatda muhim.

Elektr tok ta’siri natijasida inson tanasini shikastlanishi elektr jarohat deb ataladi. Elektr tokning xatarligi shuki, inson o’z sezguvchi organlari bilan,

kuchlanishni bor-yo'qligini aniqlamaydi. Odam faqat elektr kuchlanish ostida qolgandan keyin himoyalovchi reaksiyasi kechikib ishga tushadi.

Insonni elektr tokidan jarohatlanishi sabablari quyidagicha:

- izolyasiya qilinmagan tok o'tkazuvchi qismlarga tasodifan tegib ketishi;
- izolyasiyasi lat yegan sababi metal qismlarga tokni o'tib ketishi;
- kuchlanish ostida qolgan metalmas buyumlardan, qadamli kuchlanishdan va elektr yoyi orqali.

Inson tanasidan tok o'tishi natijasida tanani qizishi - elektr kuyish deb ataladi. Tanani ichki va tashqi qismi kuyishi mumkin. Jarohat olish sharoitlariga ko'ra kontakt, yoyi va aralash kuyishlarga ajratiladi.



4.7.1 - rasm. Inson tanasidan tok o'tishi natijasida tanani 3 darajali elektr kuyishi

Inson tanasidan o'tayotgan tok: termik, elektrolitik, biologik ta'sirini va mehanik jarohatlanish olishi mumkin.


*Termik ta'siri* – teri to'qimasining hujayrasini qizishidan kuydirishigacha olib kelishi mumkin.

*Elektrolitik ta'siri* – organizmning suyuqliklari parchalanishi natijasida qonning va hujayralarning kimyoviy va fizik hususiyatlari o'zgarilishi kuzatiladi.

*Biologik ta'siri* – tanani bioenergetik jarayonini buzilishi, ya'ni tirik hujayralarni to'lqinlanishi va mushaklarni keskin qisqarishiga olib keladigan holat. Elektr tok bilan shikastlanishni ikki turini ko'rsatish mumkin: elektr jarohat va elektr zarb.

*Elektr jarohatlanishi* – insonni tanasini ayrim joylarini shikastlanishi, elektr kuyishi, elektr belgilari va terini metallanishini ko’rinishlariga ega.

Teri yuzasidagi kul yoki oq - sariq rangli dog’lar elektr belgilar deb ataladi. Shu dog’lar tanani elektr o’tkazgich qismlar bilan tutashgan joylarda hosil bo’ladi. Ular ko’pincha og’riqsiz bo’ladi, vaqt o’tishi bilan o’tib ketadi.



4.7.2 - rasm. Yashin shakldagi elektr belgili ko’rinishi

Tok ta’sirida metallarni zarrachalari bo’g’lanib, teri yuzasini qoplab oladi. Lat yegan qismini yuzasi g’adir - budir bo’lib qoladi. Shu holat elektr metallanish deb ataladi. Bu holat inson tanasi uchun xatarli emas, lekin ko’zni metallanishi xavfli bo’ladi.



4.7.3 - rasm. Tok ta’sirida teri yuzasini elektr metallanishi

Yuqorida aytilgandan tashqari mehanik shikastlanishlar va elektroftalmiya ham elektr jarohatlanishiga kiradi. Tok o’tishi vaqtida mushaklarni keskin qisqarishi natijasida terini, qon tomirlarini va nervlarini yorilishiga, suyaklarni sinishiga va tobiqlarni chiqishiga sabab bo’ladi. Yoydan chiqayotgan ultrabinafsha nurlari natijasida ko’zni shamollashini yelektroftalmiya deb aytildi.

Elektr tokni ta’siri natijasida tirik to’qimalarni to’lqinlatib mushaklarni keskin qisqartirishiga olib keladigan holat elektr zarb deb ataladi. Odamni tok urish xolati to’rt darajada baholanadi:

I – darajada odam hushidan ketmagan holda yeqilib tushish, mushaklarni qisqartirishiga olib keladi;

II – darajada odamning nafas olishi va yurak faoliyatiga ta'sir etilmagan holda hushdan ketish;

III – darajada nafas va yurak faoliyatiga ta'sir etilgan holda hushdan ketish;

IV – darajada elektr shok, qon aylanishi va nafas olish to'xtab, klinik o'lim yuz beradi.

Klinik o'lim-bu odamni tirik va o'lim orasidagi holat, shu holatida yurakni faoliyati va nafas olishi to'xtaydi, insonda hech qanday hayot alomatlari sezilmaydi. Klinik holati 6-8 minut davom etadi. Shu davrida hech qanday yordam bermagan taqdirda miyani hujayralari parchalanib qaytarilmas-biologik o'limiga o'tib ketadi.

*Insonni elektr tokidan shikastlanishining asosiy omillari:*

- tokning turi,
- inson tanasidan o'tayotgan tokni davom etish muddati,
- tokni o'tgan yo'li,
- tokni chastotasiga,
- insonni shaxsiy hususiyatlarga bog'liq.

*a) Inson tanasidan o'tayotgan tokning turi.*

Tok kuchini insonga turli ta'sir ko'rsatadi. Ko'rsatgan ta'siriga qarab quyidagi tok qiymatlariga ajratiladi:

– *tokni sezish chegarasi*. O'zgaruvchan tokni 50 Hz va miqdori 0.1 - 1.5 mA, o'zgarmas tokni miqdori 5-7 mA. Shu holatda inson qo'l panjalari titraydi va issiqlikni sezadi;

– *qo'yib yuboradigan tok*. O'zgaruvchan tokni miqdori 8-10 mA, o'zgarmas tok uchun 20-25 mA. Shu holatda inson og'riq sezadi badani qiziydi.

– *ushlab qoladigan tok*. O'zgaruvchan tokni miqdori 10-15 mA, o'zgarmas tok uchun 50-80 mA. Shu holatida qo'l mushaklari keskin qisqariladi, shok holati kuzatiladi, nafas olish qiyinlashadi, va inson o'zini tanasini boshqarib ololmaydi.

– fibrilyasion tok. O'zgaruvchan tok miqdori 100 mA, o'zgarmas tok uchun 300mA. Shu holatda insonni yurak mushaklari tartibsiz qisqariladi, ishslash tartibi buziladi, natijada qon aylanish tizimi ishdan chiqadi. Tok yurakdan o'tayotgan vaqtda yurakning fibrilyasiyasi kuzatiladi, unung davomiyligi 0,2 sek teng.

*b) Inson tanasidan o'tayotgan tokni davom etish muddati.*

Inson tanasidan o'tayotgan tokni davom etish muddati ham katta ta'sir ko'rsatadi, qanchali tok vaqtি ko'p bo'lsa, shunchalik havfi oshaveradi. Shu holatda insonni yurak mushaklari tartibsiz qisqariladi, ishslash tartibi buziladi, natijada qon aylanish tizimi ishdan chiqadi.

*c) Inson tanasidan tokni o'tgan yo'li.*

Inson tanasidan tokni o'tgan yo'li ham katta ahamiyatga ega. Agar elektr tok muhim organlaridan yurak, o'pka, miyalaridan o'tgan bo'lsa o'ta xavfli, boshqa yo'llardan o'tgan bo'lsa, hatari kamroq bo'ladi.

Inson tanasidan o'tayotgan tok eng ko'p uchraydigan yo'llari aniqlangan. Tez uchrab turadigan yo'l o'n qo'l-oyoqlar, undan keyin, qo'lqo'l va chap qo'l-oyoqlar.

*d) Inson tanasidan o'tgan tokning chastotasi.*

O'zgaruvchan tok xatarligi tokni chastotasiga bog'liq. Tadqiqotlar bilan aniqlanganki, tokni chastotasi 10 Hz dan - 500 Hz gacha birdek xavfli. 500 Hz dan oshgan sari fibrilyasion tok miqdori oshib boradi, va chastotasi 1000 Hz dan oshgandan keyin yahshigina habsizligi kamayadi.

#### **4.7.3 Dastlabki ma'lumotlar**

##### *4.7-amaliy mashqning 1-sharti:*

Qulay va noqulay sharoitlarda inson tanasi orqali oqib o'tayotgan nok kuchini  $I_i$  ( $mA$ )  $U=380\text{ V}$  kuchlanishli uch o'tkazgichili uch fazali tarmoqqa bir fazali ulangan holatlarda (chiziqli kuchlanish),  $U=380/220\text{ V}$  bo'lgan to'rt simli neytrali izolyatsiya qilingan (chiziqli/fazali) aniqlash:

a) noqulay sharoitlarda: inson bitta fazaga tegdi, tok o'tkazuvchi polda (metall) turibdi, poyabzal xomashyosi dielektirk emas (oyoqlar terlagan, nam).

Qarshiliklar:  $r_i$  – inson tanasining qarshiligi, oyoq kiyim qarshiligi –  $r_{o.k.}=0$ , oyoqlarning tayanch yuzasi qarshiligi –  $r_{t.yu.}=0$  ( $Om$ ),  $r_{ish.}$  – ishchi yerga ulash qarshiligi,  $r_{iz.}$  – o'tkazgichlarning izolyatsiya qarshiligi.

b) qulay sharoitlarda: oyoqlar quruq, poyafzal dielektrik –  $r_{o.k.}=50$  ( $kOm$ ), tok o'tkazmaydigan taglik (taxta) ustida turibdi –  $r_{t.yu.}=150$  ( $kOm$ ).

#### 4.7.1-jadval

Dastlabki ma'lumotlar

| Parametrlari       | Variantlar |     |     |     |     |     |     |     |     |     |     |     |     |     |     |
|--------------------|------------|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|
|                    | 1          | 2   | 3   | 4   | 5   | 6   | 7   | 8   | 9   | 10  | 11  | 12  | 13  | 14  | 15  |
|                    | 16         | 17  | 18  | 19  | 20  | 21  | 22  | 23  | 24  | 25  | 26  | 27  | 28  | 29  | 30  |
| $r_{i.}, kOm$      | 1          | 10  | 0,2 | 0,5 | 15  | 1,5 | 0,7 | 7   | 6   | 8   | 9   | 10  | 11  | 12  | 0,8 |
| $r_{o.k.}, Om$     | 4          | 10  | 5   | 8   | 4   | 6   | 9   | 7   | 5   | 8   | 4   | 6   | 9   | 7   | 10  |
| $r_{iz.}, M\Omega$ | 0,1        | 0,5 | 0,2 | 0,4 | 0,3 | 1,0 | 0,6 | 0,9 | 0,7 | 0,8 | 0,5 | 0,2 | 0,4 | 0,3 | 0,1 |

#### 4.7-amaliy mashqning 2-sharti:

Yerga uzilib tushgan tok o'tkazgichidan yerda tarqalish sohasida bo'lgan inson uchun qadam kuchlanishi  $U_{q.k.}$  ( $V$ ) va o'zgaruvchan tok  $I_{i.q.}$  ( $mA$ ) qiymati xavfimi?

Yerning solishtirma elektr qarshiligi  $\rho$  ( $Om \cdot m$ ), yerda kuchlanish ostida turgan tok o'tkazgichining qisqa tutashuv toki  $I_{q.t.}$  ( $A$ ). Hisoblashda odamning qadaming o'lchami  $x_q = 0,8 m$  ga teng, tana qarshiligi  $r_i$  ( $Om$ ).

Inson yerga uzilib tushgan tok o'tkazgichidan yerda tarqalish zonasida  $x$  ( $m$ ) masofada turibdi. Kuchlanish xavfi ostonaviy xavfsiz kuchlanish chegarasi  $U_x=50V$ , ostonaviy qo'yib yuboradigan tok kuchi chegarasi  $I_0 = 10 mA$  qiymati bilan taqqoslash orqali baholanadi.

#### 4.7.2-jadval

Dastlabki ma'lumotlar

| Parametr-lari           | Variantlar |     |     |     |      |     |      |     |     |     |     |      |     |      |      |
|-------------------------|------------|-----|-----|-----|------|-----|------|-----|-----|-----|-----|------|-----|------|------|
|                         | 1          | 2   | 3   | 4   | 5    | 6   | 7    | 8   | 9   | 10  | 11  | 12   | 13  | 14   | 15   |
|                         | 16         | 17  | 18  | 19  | 20   | 21  | 22   | 23  | 24  | 25  | 26  | 27   | 28  | 29   | 30   |
| $\rho$ ( $Om \cdot m$ ) | 70         | 30  | 100 | 150 | 90   | 40  | 60   | 50  | 80  | 715 | 145 | 135  | 165 | 120  | 140  |
| $I_{q.t.}$ ( $A$ )      | 30         | 60  | 40  | 50  | 80   | 10  | 70   | 15  | 25  | 35  | 45  | 65   | 75  | 85   | 90   |
| $r_i$ ( $Om$ )          | 600        | 700 | 800 | 900 | 1000 | 500 | 1200 | 600 | 700 | 800 | 900 | 1100 | 500 | 1200 | 1500 |
| $r_{v.u.}$ ( $Om$ )     | 4          | 10  | 50  | 20  | 40   | 30  | 70   | 15  | 25  | 45  | 35  | 60   | 55  | 65   | 70   |
| $x$ ( $m$ )             | 1          | 3   | 5   | 7   | 9    | 8   | 10   | 1   | 3   | 5   | 7   | 9    | 8   | 10   | 1    |


#### 4.7.4 Hisoblash uchun uslubiy ko'rsatmalar

Inson zanjirining elektr qarshiligi,  $Om$

$$R_i = r_{i.} + r_{o.k.} + r_p, \quad (4.7.1)$$

bu yerda  $r_{i.}$  – inson tanasining elektr qarshiligi, ( $Om$ );  $r_{o.k.}$  – oyoq kiyim elektr qarshiligi, ( $Om$ );  $r_p$  – polning elektr qarshiligi, ( $Om$ ).

Eng ko'p tarqalgan uch fazali tarmoqlarga kelsak (4.7.1-rasm), 4.7.1a-rasm odatda ikki fazali (ikki qutubli) tegish, 4.7.1b-rasm - bir fazali (bitta qutbli) deb ataladi.



4.7.1-rasm. Elektr toki zanjiriga insonni: a – ikki qutbli tegib ketishi, b – bir qutbli tegib ketishi.


Uch fazali tarmoqlarda insonni ikki qutbli tegib ketishi xavfli hisoblanib, u qo'yidagicha naiqlanadi:

$$I_{i.} = \frac{U_L}{R_{i.}} = \frac{\sqrt{3} \cdot U_F}{R_{i.}}, \quad (4.7.2)$$

bu yerda  $U_L = \sqrt{3} \cdot U_F$ , – liniya kuchlanish, ya'ni faza o'tkazgichlari orasidagi kuchlanish,  $V$ ;  $U_F$  – faza kuchlanish,  $V$ ;  $R_{i.}$  – inson tanasining elektr qarshiligi,  $Om$ .

Haqiqiy tegib ketish kuchlanish qo'yidagicha aniqlanadi:

$$U_{i.} = \frac{U_F \cdot R_i}{R_i + r_0}, \quad (4.7.4)$$



4.7.2-rasm. Insonni neytrali yerga ulangan to'rt o'tkazgichli elektr tarmog'iga bir fazali tegib ketishi.

Inson neytrali yerga ulangan to'rt o'tkazgichli elektr tarmog'iga bir fazali tegib ketishida (4.7.2-rasm) insondan oqib o'tayotgan tok  $I_{i.}$  ( $A$ ) qo'yidagicha aniqlanadi:

$$I_{i.} = \frac{U_F}{R_i + r_0}, \quad (4.7.3)$$

bu yerda  $U_F$  – faza kuchlanishi, V;  $r_0$  – yerga ularash ishchi qarshiligi,  $r_0 = 4$   $Om$ .


Insonni avariya rejimida neytrali yerga ulangan to'rt o'tkazgichli uch fazali elektr tarmog'iga bir fazali tegib ketishida (4.7.3-rasm) kuchlanish ( $U_{i.}$ ) qo'yidagicha hisoblanadi:

$$U_{i.} = U_F \cdot R_i \cdot \frac{r_{y.u.} + r_0 \sqrt{3}}{r_{y.u.} \cdot r_0 + R_i \cdot (r_{y.u.} + r_0)}, \quad (4.7.5)$$


Insondan oqib o'tayotgan tok  $I_{i.}$  ( $A$ ) qo'yidagicha aniqlanadi:

$$I_{i.} = U_F \cdot \frac{r_{y.u.} + r_0 \cdot \sqrt{3}}{r_{y.u.} \cdot r_0 + R_i \cdot (r_{y.u.} + r_0)}, \quad (4.7.6)$$


bu yerda  $r_{y.u.}$  – yerga ulash qarshiligi.



4.7.3-rasm. Insonni avariya rejimida neytrali yerga ulangan to’rt o’tkazgichli uch fazali elektr tarmog’iga bir fazali tegib ketishi.



4.7.4-rasm. Insonni neytrali izolyatsiyalangan to’rt o’tkazgichli uch fazali elektr tarmog’iga bir fazali tegib ketishi.



4.7.5-rasm. Insonni avariya rejimida neytrali izolyatsiyalangan uch o'tkazgichli uch fazali elektr tarmog'iga bir fazali tegib ketishi.

Insonni neytrali izolyatsiyalangan erga ulangan elektr tarmoqqa ikki fazali tegib ketganda, u orqali oqib o'tadigan tok kuchi  $I_i$  ( $A$ ) qo'yidagi formula bilan aniqlanadi:

$$I_{i.} = \frac{U_L}{r_i} , \quad (4.7.7)$$

Insonni neytrali izolyatsiyalangan erga ulangan elektr tarmoqqa bir fazali tegib ketganda, u orqali oqib o'tadigan tok kuchi  $I_i$  ( $A$ ) qo'yidagi formula bilan aniqlanadi:

$$I_{i.} = \frac{U_F}{R_i + \frac{r_{iz.}}{3}} , \quad (4.7.8)$$

bu yerda  $r_{iz.}$  – o'tkazgizning elektr qarshiligi,  $Om$ .

*Qadamli kuchlanish.* Agar erga biror bir zanjir tutashib ketgan bo'lsa, tasodifiy tok yuruvchi qismning elektrik bog'lanishi bevosita er bilan bo'lgudek bo'lsa, yoki metal qurilma orqali bo'lsa, u holda yer bo'ylab yerga tok tutashib, elektr toki tarqalib ketadi. Tutashuv izolyasiyaning shikastlanishiga,

elektrasbobning tok yuruvchi qismlari va erga tutashgan sim o‘rtasidagi bog‘lanish vujudga kelishiga sabab bo‘lishi mumkin.

$$U_1 = \frac{I_{q.t.} \cdot \rho}{2\pi \cdot x}, \quad U_2 = \frac{I_{q.t.} \cdot \rho}{2\pi \cdot (x+a)},$$


$$U_{q.k.} = U_1 - U_2 = \frac{I_{q.t.} \cdot \rho}{2\pi \cdot x} - \frac{I_{q.t.} \cdot \rho}{2\pi \cdot (x+a)} = \frac{I_{q.t.} \cdot \rho \cdot a}{2\pi \cdot x \cdot (x+a)},$$

$$U_{q.k.} = \frac{I_{q.t.} \cdot \rho \cdot a}{2\pi \cdot x \cdot (x+a)}, \quad (4.7.9)$$

bu yerda  $\pi=3.14$  ga teng, oyoqlar orasidagi masofa odatda  $a=0.8 m$  olinadi.

Qadam kuchlanishi tufayli inson tanasidan oqib o’tayotgan tok qo’yidagicha aniqlanadi:

$$I_{i.q.} = \frac{U_{q.k.}}{r_i}, \quad (4.7.10)$$



4.7.6-rasm. Elektr tokini yerga tarqalishi (qadamli kuchlanish).

#### 4.7.5 Nazorat savollari

1. Insonni elektr toki urish xafviga ta’sir etuvchi asosiy omillar.
2. Inson tanasi qarshiligidagi qaysi omillar ta’sir kiladi?
3. Inson organizmiga elektr toki qanday ta’sir xarakteriga ega?
4. Elektr toki urishining turlari.
5. Tegish kuchlanishi nima? Tegish kuchlanishidan himoya choralarini.
6. Elektr tokining kanday kiymati inson xayoti uchun xavfli hisoblanadi?

7. Turli tarmoqlarga ikki tomonlama tegish.
8. Nima maqsadda va qay yo'sinda himoyaviy erga ulash o'rnataladi, qanday tarmoqlarda qo'llaniladi.
9. Nolinchi o'tkazgichning qayta erga ulanishining vazifasi (sxemalar, formulalar).
10. Qadamli kuchlanish deb nimaga aytildi?
11. Qadamili kuchlanishdan ximoya choralar.
12. Inson tanasining to'liq qarshiligi tok chastotasiga qanday bog'liq?
13. Nima uchun ichki  $R_i$  qarshilikni o'lchash yuqori chastotada amalga oshiriladi?
14. Terining ish qatlami ifloslanganda yoki shikastlanganda qarshilik  $Z_{yu}$  nimaga teng bo'ladi?
15. Sezilarli tok deb nimaga aytildi?
16. Qo'yib yubormaydigan tok deb nimaga aytildi?
17. Fibrillyatsiya toki deb nimaga aytildi?
18. Tokni qo'l - qo'l yo'nalishi bo'yicha o'tishida insonni qarshiligining elektrik sxemasi qanday?

#### **4.8. Himoyaviy yerga ulash qurilmasini hisoblash**

##### **4.8.1 Mashg'ulotning maqsadi:**

Ishlab chiqarishda elektr xavfsizligini ta'minlashda yerga ulash usulining ahamiyati to'g'risidagi umumiy tasavvurlarini shakillantirishdan iborat. Himoyaviy yerga ulash usuli va uning himoya qilish mohiyati, yerga ulash qurilmalariga qo'yiladigan talablar, tuproqning solishtirma qarshiligi va uni o'lchash, yerga ulash qurilmalarini hisoblash va tekshirish tartibi kabi ko'nikmalarni egallash.

##### **4.8.2 Nazariy ma'lumotlar**

Yerga ulashning quyidagi uch xili mavjud:

**1. Himoyaviy yerga ulash.** Yerga ulashning bu turi elektr uskunalarining himoya qobig‘i buzilib qolgan taqdirda ishchilarni elektr toki ta’siridan muhofaza qilish maqsadida qo‘llaniladi.

**2. Ishchi yerga ulash.** Yerga ulashning bu turi elektr uskunalarining normal ish rejimini ta’minlash maqsadida bajariladi.

**3. Atmosfera elektridan (yashindan) himoyalash uchun yerga ulash.** Yerga ulashning bu turi bino, inshoot, elektr va texnik qurilmalarni yashindan muhofaza qilish maqsadida qo‘llaniladi.

Himoyaviy yerga ulash vositasidan quyidagi elektr uzatish tarmoqlarida qo‘llaniladi:

- a) kuchlanishi 1000 voltgacha bo‘lgan va neytral nuqtasi yerdan izolyatsiya qilingan uch fazali tarmoqlarda;
- b) neytral nuqtasining holatidan qat’iy nazar kuchlanishi 1000 volt va undan yuqori bo‘lgan elektr uzatish tarmoqlarida.


Elektr qurilmalarining normal ishchi holatida kuchlanish ta’siri ostida bo‘lmaydigan metall qismlarini o‘tkazgichlar yordamida yer bilan tutashtirish himoyalab yerga ulash deyiladi.

Himoyaviy yerga ulash konstruktiv jihatdan yerga ulash qurilmasi orqali amalga oshiriladi va u uch qismdan iborat bo‘ladi (4.8.1a-rasm):


*a* – yerga ulagichlar (sterjenlar, qoziqlar: truba ( $d''=x$  yoki burchakli po’lat ( $x\cdot y\cdot z$ ))) tik yoki yotiq ulagichlar bilan bir-biriga ulangan bir nechta sterjendantiborat;

*b* – yerga ulagichlarni bir-biriga ulovchi po’lat plastina ( $X\cdot mm^2$ );

*c* – elektr jihozlarini yerga ulash uchun ulash simi (o‘tkazgich) ulagichlar bilan yerga ulanayotgan elektr uskunasi metall qismining asosini bog‘laydi.



a)



b)

4.8.1-rasm. Himoyaviy yerga ulashning konstruktiv ko'rinishi.

Yerga ulagichlar tabiiy va sun'iy bo'lishi mumkin.

Tabiiy yerga ulagichlar sifatida temir-beton konstruksiyalarining armaturalaridan, kabellarning qo'rg'oshin qobiklaridan, suv va boshqa suyuqliklar uchun ishlatiladigan, po'lat quvurlardan (portlash va yong'in chiqish xavfi bo'lgan quvurlar bunga kirmaydi) va boshqa metall elementlardan foydalanish mumkin.

Tabiiy yerga ulagichlar bo'limganda yoki ularning qarshiligi talab darajasida bo'limganda sun'iy yerga ulagichlardan foydalilanadi. Sun'iy yerga ulagichlar har xil shakldagi po'lat prokatlardan 2...5 metr uzunlikda tayyorlanadi. ularning diametriga, qalinligiga va kengligiga ma'lum darajada talablar qo'yilgan.

Tayyorlangan sterjenlar tuproqqa uch xil holatda joylashtiriladi:

- 1) uchi yer yuzasidan chiqib turgan tik holatda;
- 2) 0,5-0,8 metr chuqurlikka ko‘milgan tik holatda ko‘miladi;
- 3) ma’lum bir chuqurlikka yotiq holatda joylashtirilishi mumkin.

Yerga ulanadigan uskunaga nisbatan esa bitta chiziq bo‘yicha yoki yotiq sirtmoq (kontur) shaklida joylashtirilishi mumkin.

### **Yerga ulashning muhofaza qilish mohiyati**

Elektr uskunasining metall korpusini yer bilan tutashtirgan yerga ulash qurilmasi va tok oqishi mumkin bo‘lgan yer ma’lum bir qarshilikka ega bo‘ladi. U tok tarqalishiga bo‘lgan qarshilik deb ataladi va uning asosiy qismini tuproqning tok tarqalishiga bo‘lgan qarshiligi tashkil qiladi. Amalda bu qarshilik yerga ulagich qarshiligi ( $R_{yer}$ ) deb ataladi.

Elektr uskunasining muhofaza qobig‘i ishdan chiqib yerga ulash qurilmasi orqali tok o‘tgan vaqtida uskuna korpusida yuzaga keladigan potensial (yerning cheksiz uzoq, ya’ni  $\varphi_{as.}=0$  bo‘lgan nuqtasiga nisbatan) quyidagiga teng bo‘ladi:

$$\varphi_k = I_{yer} \cdot R_{yer}, \quad (4.8.1)$$

yoki


$$U_k = I_{yer} \cdot R_{yer}, \quad (4.8.2)$$

bu yerda:  $I_{yer}$  - yerga ulash qurilmasi orqali oqayotgan tok miqdori,  $A$ .

Yuqoridagi ifodadan ko‘rinib turibdiki korpusda yuzaga keladigan potensial Rep miqdoriga to‘g‘ri proporsionaldir. Demak,  $R_{yer}$  miqdorini kamaytirish bilan korpusda yuzaga keladigan potensialni ham kamaytirish mumkin. Bu yerga ulagichning asosiy himoya qilish xususiyati hisoblanadi.  $R_{yer}$  tuproqning solishtirma qarshiliga ( $\varphi_b$ ,  $Om \cdot m$ ) katta darajada bog‘liq, solishtirma qarshilik esa o‘z navbatida tuproqning mexanik holatiga, tarkibiga, namlik darajasiga, elektrolitlar mavjudligi va haroratga bog‘liqdir (4.8.1-jadval). Yerga ulash qurilmasi orqali tok oqqan vaqtida, yerga ulagichda va unga yaqin joylashgan yer yuzasi nuqtalarida potensiallar (yerning  $\varphi_{as.}=0$  bo‘lgan nuqtasiga nisbatan) yuzaga keladi, (4.8.2-rasm, 1-egri chiziq). Grafikdan ko‘rinib turibdiki, yerga ulagichdan uzoqlashgan sari potensial miqdori pasayib boradi va ma’lum bir masofadan

(amalda 20 metr) keyin potensial nolga teng bo'ladi. Bunga sabab yerga ulagichdan uzoqlashgan sari tok olayotgan tuproq qatlamining oshib borishi natijasida tok zichligining kamayishidir.

Yerga ulash qurilmasidan uzoqlashgan sari tegish kuchlanishi ( $U_{teg.}$ ) oshib boradi (4.8.2-rasm, 2-egri chiziq).



4.8.2-rasm. Yerga ulash qurilmasining himoya qilish mohiyati va tegish kuchlanishining hosil bo'lishi.

1-potensialning masofaga ( $x$ ) bog'liq ravishda o'zgarish chizig'i. 2-tegish kuchlanishining ( $U_{teg.}$ ) masofaga ( $x$ ) bog'liq ravishda o'zgarish chizig'i.

#### 4.8.1-jadval

Yerga ulash qurilmasini hisoblash uchun ma'lumotlar jadvali

| Nº | Nomlanishi   | Belgi lanishi | O'lchov birligi |
|----|--|---------------|-----------------|
| 1. | Yerga ulash qurilmasi hisoblanayotgan elektr uskunasining kuchlanishi  | $U$           | $V$             |
| 2. | Yerga ulash qurilmasi bajarilishi lozim bo'lgan joydagi tuproq solishtirma qarshiligini o'lchashda olingan nazorat sterjeni qarshiligi | $R_C$         | $Om$            |
| 3. | Sterjen o'lchamlari:   | uzunligi      | $l$             |
|    |  |               | $m$             |

|    |  |                      |                      |
|----|--|----------------------|----------------------|
|    | diametri<br>yelka kengligi             | <i>d</i><br><i>b</i> | <i>m</i><br><i>m</i> |
| 4. | Sterjenlarning joylashish sxemasi      |                      |                      |
|    | chiziq bo‘ylab yoki kontur             |                      |                      |
|    | sterjenlar orasidagi masofa            | <i>a</i>             | <i>m</i>             |
|    | sterjenlarning ko‘milish chuqurligi    | <i>h</i>             | <i>m</i>             |
| 5. | Tabiiy yerga ulagichlarning qarshiligi | $R_{T,yer}$          | $Om$                 |

Tegish kuchlanishi deb elektr zanjirining bir vaqtida inson tekkan ikki nuqtasining potensiallar ayirmasiga aytildi, yoki boshqacha aytganda, inson tanasi qarshiligida ( $R_i$ ) kuchlanish tushishiga aytildi:

$$U_{teg} = I_i \cdot R_i, \quad (4.8.3)$$

bu yerda:  $I_i$  – o‘tish yo‘li “qo‘ldan - oyoqga” bo‘lganda inson tanasi orqali o‘tadigan tok,  $A$ .

Elektr xavfsizligini ta’minlashning himoyaviy yerga ulash, nollash va boshqa sohalarida inson qo‘li tegadigan nuqta potensiali yerga ulagichning potensialiga  $\varphi_{yer.u.}$  oyoqi turadigan nuqta potensiali esa asos (pol)  $\varphi_{as.}$  potensialiga teng bo‘ladi (4.8.2-rasm). Unda tegish kuchlanishi quyidagicha aniqlanadi:

$$U_{teg.} = \varphi_{yer.u.} - \varphi_{as.}, \quad (4.8.4)$$

yoki

$$U_{teg} = \alpha_I \cdot \varphi_{yer.u.}, \quad (4.8.5)$$

bu yerda:  $\alpha_I$  - tegish kuchlanishi koeffitsiyenti.

Tegish kuchlanishi koeffitsiyenti potensial o‘zgarishi egri chiziqining shakli bilan xarakterlanadi va u quyidagicha aniqlanadi:

$$\alpha_I = 1 - \frac{\varphi_{yer.u.}}{\varphi_{as.}} \leq 1. \quad (4.8.6)$$

4.8.2-rasmdagi grafikdan ko‘rinadiki, 1-insonga ta’sir qiladigan  $U_{teg.1}$  kuchlanishi nolga teng. 2-insonga ta’sir qiladigan  $U_{teg.2}$  kuchlanishi esa  $\varphi_{yer.u.}$  va inson turgan asos nuqtasi potensiali  $\varphi_{as.}$  ayirmasiga teng. 3-inson esa yer yuzasidagi potensiallar maydonidan tashqarida turganligi sababli, ya’ni  $\varphi_{as.}=0$  sababli,  $U_{teg.3}$  tegish kuchlanishi olishi mumkin bo‘lgan qiymatning maksimal darajasini oladi:

$$U_{teg.} = \varphi_{yer.u.} - \varphi_{as.} = \varphi_{yer.u.} = I_{yer.u.} \cdot R_{yer.u.} \quad (4.8.7)$$

Demak, xulosa qilib shuni aytish mumkinki, insonga ta'sir qiladigan tegish kuchlanishini kamaytirish yoki nolga tenglashtirish uchun inson oyoqi ostida  $\varphi_{yer.u.}$  potensialiga teng bo'lgan  $\varphi_{as.}$  potensialini hosil qilish kerak. Bu esa oyoq ostiga bir-biriga ulangan yerga ulash qurilmalarini joylashtirish bilan amalgalash oshiriladi.

Tegib ketish koeffitsiyenti tegish kuchlanishi korpusdagi kuchlanishning qanday qismini hosil qilishni ko'rsatadi. Masalan, 4.8.2-rasmdagi 1-odam uchun  $\alpha=0$ ; demak  $U_{teg.1}=0$ ; 3-odam uchun esa  $\alpha=1$ , demak  $U_{teg.3}=U_k$ ; 2-odam uchun esa  $0 < \alpha < 1$ , demak bu odam uchun tegish kuchlanishi noldan katta, korpusdagi kuchlanishdan esa kichik qiymatni tashkil qiladi.

Umumiy holatda, faza kuchlanishi  $220\text{ V}$  va yerga ulash qurilmasi qarshiligi  $R_{yer}<4\text{ Om}$  bo'lganda tegish kuchlanishi  $12\text{ V}$  dan oshmaydi.

Bunda odam orqali o'tadigan tok qiymati quyidagiga teng:

$$I_i. = \frac{U_{teg.2}}{R_i} = \frac{12}{100} = 0,012A = 12mA.$$

Bu inson uchun xavfsiz darajadagi tokdir.

### **Yerga ulash qurilmalariga qo'yiladigan talablar**

Amalda yerga ulash qurilmalarining qarshiliklari kuchlanishga bog'liq holda me'yorlanadi. Transformator yoki generatorning neytral nuqtasi izolyatsiya qilingan, transformator quvvati  $100\text{ kV}\cdot A$  dan katta; tarmoq kuchlanishi  $1000\text{ V}$  gacha bo'lgan elektr uskunalarida himoya uchun yerga ulash qurilmasi qarshiligi  $4\text{ Om}$  dan, quvvati  $100\text{ kV}\cdot A$  dan kichik bo'lganda esa  $10\text{ Om}$  dan oshmasligi lozim.

Tuproqning solishtirma qarshiligi  $\rho_t > 100\text{ Om}\cdot m$  bo'lgan vaqtda yuqoridagi me'yorlarni 0,01 barobar oshirish mumkin. Lekin bu oshirish 10 barobardan yuqori bo'lmasligi lozim. Agar yerga ulash qurilmasi bir vaqtning o'zida kuchlanishi 1000 voltgacha va undan katta bo'lgan elektr uskunalarini uchun qo'llaniladigan bo'lsa, uning qarshiligi

$$R_{yer.} \leq \frac{125}{I_{yer.}}, \text{Om}, \quad (4.8.8)$$

bo'lishi mumkin, lekin u 4 yoki  $10\text{ Om}$  dan oshmasligi kerak.

Kuchlanishi 1000 voltdan yuqori, yerga oqish tokining miqdori kichik ( $<500A$ ) bo'lgan elektr uskunalarida yerga ulash qurilmasining qarshiligi

$$R_{yer.} \leq \frac{250}{I_{yer.}}, Om, \quad (4.8.9)$$

bo'lishi mumkin, lekin u 10 Om dan oshmasligi lozim.

Yerga oqish toki katta ( $>500 A$ ) bo'lgan elektr uskunalarida yerga ulash qurilmasining qarshiligi 0,5 Om dan katta bo'lmasligi kerak.

### 4.8.3 Дастлабки маълумотлар

Berilgan variantga muvofiq (3.8.2-jadval) 1000 V gacha kuchlanishli elektr qurilmalariga o'rnatish uchun "quvur" tipidagi yerga ulash elektrodlari bilan yerga ulash qurilmasini hisoblang (toq variantlar uchun – yerga ulash sterjenlari ketma-ket, juft variantlar uchun – yerga ulash sterjenlari kontur bo'ylab joylashtirilgan (parallel)).

4.8.2-jadval

Dastlabki ma'lumotlar

| №<br>variant | Tuproq turi  | Tuproqning solishtirma<br>qarshiligi | Yerga ulash sterjen<br>o'lchamlari |                                 |   |   | Ulanish chizig'ining kengligi  | Ko'paytiruvchi koefitsiyent |
|--------------|--|--------------------------------------|------------------------------------|---------------------------------|---|---|--|-----------------------------|
|              |  |                                      | Sterjen uzunligi<br><i>Om·m.</i>   | Sterjen diametri<br><i>l, m</i> | Sterjenlar orasidagi<br>masofa<br><i>d, m</i> | Sterjenlarning ko'milish<br>chuqurligi<br><i>a, m</i> | Sterjenlarning ko'milish<br>chuqurligi<br><i>h, h<sub>1</sub>, m</i> |                             |
| 1            | 2  | 3                                    | 4                                  | 5                               | 6   | 7   | 8  | 9                           |
| 1            | Loy  | 40                                   | 2,5                                | 0,026                           | 2,5   | 0,8   | 0,012  | 2,0                         |
| 2            | Loy va katta miqdordagi qumni<br>o'z ichiga olgan tuproq | 100                                  | 2,9                                | 0,035                           | 2,5   | 0,8   | 0,012  | 2,0                         |
| 3            | Toshloq tuproq   | 4000                                 | 2,6                                | 0,040                           | 2,7   | 0,8   | 0,012  | 1,4                         |
| 4            | Loy  | 35                                   | 2,8                                | 0,033                           | 2,6   | 0,8   | 0,012  | 1,5                         |
| 5            | Torfli tuproq  | 35                                   | 2,7                                | 0,048                           | 2,7   | 0,8   | 0,012  | 1,4                         |
| 6            | Yuqori qum tarkibiga ega<br>bo'lgan bo'sh tuproq.        | 250                                  | 2,5                                | 0,050                           | 2,7   | 0,8   | 0,012  | 1,4                         |
